

## **“Biz islomni bilamizmi?” viktorinasining 1-bosqichida berilgan barcha savollar, yakuniy natijalar va g'oliblar haqida ma'lumot**

### **1-tur javoblari**

**Mavzu: Payg'ambarimiz Muhammad SAVning nasablari, tug'ilishlari va bolalıkları**

**1. Payg'ambarimiz SAV qurbonlikdan omon qolgan ikki insoning o'g'lidirlar. Bu ikki inson kimlar?**

- a) Abdulloh, Qusay
- b) Abdulloh, Abdumanof
- c) Abdulloh, Ismoil

**Javob:** Abdulloh, Ismoil.

**Izoh:** Ibrohim a.s. ko'rgan tushlarini Allohning vahiyi deb bilib o'z o'g'illari Ismoil a.s.ni Alloh yo'lida qurbon qilishga o'tlanib, Ismoilni bo'g'ziga pichoq tortadilar, pichoq kesmaydi, shu payt Jabroil a.s. Jannatdan bir qo'chqor olib chiqib Ibrohimga a.s: "Ey, Ibrohim a.s. siz Allohning sinovidan o'tdingiz. Endi siz mana bu qo'chqorni Alloh yo'lida qurbon qiling..." deydilar. Abdulloh Rasululloh SAVning otalari. Bobolari Abdumutallib: "Agar Alloh menga 10 ta o'g'il bersa bittasini Alloh yo'lida qurbonlik qilaman", degan qasamyodiga sodiq qolib, 10 o'g'li ichidan kimni qurbonlik qilish tanlash maqsadida qur'a tashlanganida qur'a Abdullohga tushadi. Abdumutallib Abdullohning bo'yniga pichoq tortaman deb turganida quraysh kattalari uni qaytarib qolishadi. Unga bu qasamyodni boshqa yo'l bilan bajarishlikni maslahat berishadi. Shunda Abdulmuttallib Alloh yo'lida 100 ta tuyani qurbon qilish evaziga Alloh taolo bu zotni saqlab qolgan. ("Saodat asri qissalari")

**2. Har bir musulmon kishiga Payg'ambarimiz SAVning to'rt ota tomon ajdodlarini bilishlik lozim, ularni to'g'ri ketma ketlikda kelgan qatorni belgilang.**

- a) Abdulloh, Abdulmuttallib, Hoshim, Abdumanof
- b) Abdulloh, Abdulmuttallib, Abdumanof, Hoshim
- c) Abdulloh, Hoshim, Abdumanof, Abdulmuttallib

**Javob:** Abdulloh, Abdumutallib, Hoshim, Abdumannof.

**Izoh:** Otalari Abdullohning otasi Abdumutallib. Bu zot Qurayshning ulug'laridan bo'lib, bu qavmning hamma og'irliklarini, muammolarini hal qilishga kuchi yetguvchi fasohatli inson bo'lgan. Abdumutallibning otasi Hoshim va Hoshimning otasi Abdumannofdir. ("Saodat asri qissalari", "Nurul yaqiyin" va "Tarixi Muhammadiy")

**3. Arablar hisobi bilan payg'ambarimiz SAV Fil voqeasining nechani yilida tug'ilganlar?**

- a) Birinchi yili
- b) Fil voqeasidan avval
- c) Fil voqeasining 3-yilida

**Javob:** Birinchi yili.

**Izoh:** Yaman podshosi Abraha Ka'bani vayron qilish uchun ko'plab askarlar bilan Makkaga yurish qilganida, askarlari orasida bahaybat Mahmud ismli Fil bo'lgan. Makkaga yetib kelishgani va fil o'rgatuvchi filga Ka'ba tomonga yurishni buyurganida, Alloh taoloning qudrati bilan bu bahaybat fil Ka'ba tomonga bir qadam ham yurmagan. Ka'baga bostirib kelgan kofirlarni Alloh taolo O'zining o'jiz maxluqlari bo'lmish qushlar tumshuqlarida keltirgan mayda toshlar bilan halok qiladi va ka'batullohni yaqinda tug'ilajak payg'ambari Muhammad SAV uchun, kelajak yangi din, yangi ummat uchun saqlab qolgan yilda Rasululloh SAV dunyoga keladilar. "Ashobi Fil – Fil mingan lashkarlar" qissasi haqida, mo'minlarga ibrat, kofirlarga esa

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

[www.forum.ziyouz.com](http://www.forum.ziyouz.com)

**Ziyo istagan qalblar uchun**

**Islomiy viktorina: Biz Islomni bilamizmi?**

achchiq bir saboq bo'lish uchun Qur'oni karimning "Fil" surasida so'zlangan. ("Saodat asri qissalari", "Nurul yaqiyin" va "Tarixi Muhammadiy")

**4. Fil voqeasi nima uchun Islomdan avvalgi xalqlarda ham to shu kungacha mashhur?**

- a) Yil hisobini shundan boshlaganlari uchun
- b) Bu jangda Allohning mo'jizasini ko'rganliklari sabab
- c) G'alaba qilganlari sabab

**Javob:** Bu jangda Allohning mo'jizasini ko'rganlari uchun.

**Izoh:** Bu jangda bahaybat filning hamma tomonga qarab yurib, faqat Ka'ba tomonga qadam tashlamaganligi va Abobil qushlarining uchib kelib katta lashkarni yo'q qilib yuborganligi, bu Allohning ulug' mo'jizasidir. ("Saodat asri qissalari", "Nurul yaqiyin" va "Tarixi Muhammadiy")

**5. Johiliyat davrida Baytulloh xizmatini boshqarish, ziyoratga keluvchilarni ovqat va suv bilan ta'minlash, quraysh qabilasining maslahat yig'inlarini ochish payg'ambarimizning qaysi bobolari qo'lida bo'lgan?**

- a) Hoshim
- b) Qusay
- c) Abdumanof

**Javob:** Qusay.

**Izoh:** Johiliyat davrida Baytulloh xizmatini boshqarish, ziyoratga keluvchilarni ovqat va suv bilan ta'minlash, Quraysh qabilasining maslahat yig'inlarini ochish Qusayning qo'lida edi. Bunday yig'inlar uning uyida o'tkazilar, janglarda tug' ko'tarish huquqi ham uning ixtiyorida edi. ("Nurul Yaqiyin")

**6. Rasulullohning SAV otalari Abdullohning onalarini ismi kim bo'lgan?**

- a) Otika binti Murra
- b) Fotima binti Umar
- c) Salmo binti Amr

**Javob:** Fotima binti Umar.

**Izoh:** Rasululloh SAVning otalari Abdullohning onasi Qurayshning Fotima Maxzum jamoasiga mansub bo'lgan nasabi toza obro'-e'tiborli Umarning oilasida tug'ilgan. ("Nurul yaqiyin")

**7. Rasulullohning SAV otalari Abdulloh bobolarining nechanchi farzandi edilar?**

- a) 9-chi
- b) 10-chi
- c) 11-chi

**Javob:** 10-chi

**Izoh:** Bu savolda ko'pchilik farzand so'zini o'g'il deb tushunishgan. Ya'ni faqat amakilarini hisob qilib, ammalarini hisoblashmagan. Rasululloh SAVning o'n (ba'zi ma'lumotlarda 12) amaki va olti ammalar bor edi. Bulardan Abu Tolib, Zubayr, Abdul Ka'ba bu uchovlari Payg'ambarimizning otalari Abdulloh bilan tug'ishgan bo'lib, boshqalari o'gay edilar. Bulardan ikki kishi — Hamza bilan Abbas iymonga musharraf bo'ldilar. Rasululloh SAVning oltita ammalar ichida Zubayr ibn Avvomning onalari Safiya binti Abdumuttalib Islomga musharraf bo'ldi. Otika, Arvo ikkovlarining dinga kirganlari gumonlikdur. Qolganlari ersa vahiydan ilgari o'lgandirlar. ("Tarixi Muhammadiy")

**8. Rasulullohning SAV otalari Abdulloh onalari Ominaga necha yoshlarida uylanganlar?**

- a) 20 yosh

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

**Ziyo istagan qalblar uchun**

[www.forum.ziyouz.com](http://www.forum.ziyouz.com)

**Islomiy viktorina: Biz Islomni bilamizmi?**

- b) 18 yosh
- c) 22 yosh

**Javob:** 18 yoshda

**Izoh:** Rasululloh SAVning otalari Abdulloh Abdumutallibning eng suyukli o'g'li bo'lgan. Abdulloh 18 yoshga to'lganida Abdulmutallib Vahobning qizi Ominani olib berdi. Omina Quraysh ayollarining ichida eng nasli toza pokiza ayollardan edi. ("Nurul yaqin")

**9. Rasulullohning SAVning onalari Omina quraysh qabilasining qaysi jamoasidan edi?**

- a) Zuhra
- b) Mahzum
- c) Najjor

**Javob:** Zuhra jamoasi

**Izoh:** Ominaning otasi Vahob, uning otasi Abdumannof, uning otasi Zuhra bo'lgan. Zuhra esa Kilobning o'g'li edi. ("Nurul yaqin")

**10. Payg'ambar SAVga doyalik qilgan Shaffo qaysi buyuk sahobaning onasi edi?**

- a) Sa'd ibn Abu Vaqqos
- b) Abdurahmon ibn Avf
- c) Hamza ibn Abdulmuttalib

**Javob:** Abdurahmon ibn Avf

**Izoh:** Rasululloh SAV Fil yilida Bani Hoshim ko'chasidagi Abu Tolibning uyida dunyoga keldilar. U kishiga Islom nuri yer yuzini yoritganidan keyin eng ulug' sahobiylardan biriga aylangan, "Asharayi Mubashshara"dan bo'lgan sahobiy Abdurahmon ibn Avfning onasi Shaffo doyalik qilgan. ("Nurul yaqin", Tarixi Muhammadiya")

**11. Payg'ambarimiz SAVni ilk emizgan ayol kim?**

- a) Onalari Amina
- b) Ummu Ayman
- c) Suvayba

**Javob:** Suvayba

**Izoh:** Rasululloh sav tug'ilganlaridan keyin u Zotni birinchi bo'lib amakilari Abu Lahabning cho'risi Suvayba emizadi. ("Nurul yaqin")

**12. Payg'ambarimiz SAVning sut onalari Halimaning eri Harisning kunyasi nima edi?**

- a) Abufihr
- b) Murra
- c) Abukabsha

**Javob:** Abukabsha

**Izoh:** Rasululloh SAVga sut ona bo'lish Bani Sa'd qabilasidan bo'lgan Halimaga nasib qildi. Halimaning eri chorvador Haris, kunyasi Abukabsha edi. ("Nurul yaqin")

**13. Payg'ambarimiz SAV bilan qaysi voqeadan keyin shaytonning u zotda nasibasi qolmagan?**

- a) Tug'ilishlari bilan
- b) Payg'ambarlik berilishi bilan
- c) Shaqqi sadr bilan

**Javob:** Shaqqi sadr bilan

**Izoh:** Rasululloh sav 4 yoshga kirganlari mashhur shaqqi sadr “ko’krak yorilishi” hodisasi bo’lib o’tgan. Bu hodisada Alloh taolo farishtalari orqali Rasululloh sav ning qalblaridagi shayton nasibasi bo’lgan “Nafsi ammora” (yomonlikka undovchi nafsni olib tashlagan. Shu kundan boshlab bu zot insonni yo’ldan ozdiradigan ahyu havaslardan ozod bo’lganlar. (“Tarixi Muhammadiy”, “Nurul-Yaqiyn”)

**14. Payg'ambarimiz SAV nechcha yoshga to'lgunlari qadar emizik onalari Halima qo'lida katta bo'ldilar?**

- a) 5 yosh
- b) 2 yosh
- c) 4 yosh

**Javob:** 4 yosh

**Izoh:** Rasululloh SAV 4 yoshga to’lganlarida Shaqqi sadr hodisasi bo’lib, onalari Halima qo’rqib o’z onalari Ominaga topshirgunlaricha o’sha xonadonda bo’lganlar. (“Nurul-yaqiyn”)

**15. "Shaqqi sadr", ya'ni ko'krak yorilish voqeasi Rasululloh SAV hayotlari davomida ikkinchi marta qachon yuz bergan?**

- a) Ilk vahiy tushganda
- b) Me'rojga chiqqanlarida
- c) Hajjatul vado'da

**Javob:** Me'rojga chiqqanlarida

**Izoh:** Rasululloh SAV hayotlari davomida Shaqqi sadr voqeasi ikkinchi marta Me’roj kechasi, Isro voqeesidan oldin, Ka’ba yonida bo’lgan. “Ey Muhammad a.s. Biz sizning ko’ksingizni (qalbingizni) ochib qo’ymadikmi?!” (“Sharh” surasi, 1-oyat. Bu oyatda Muhammadning SAV Isro kechasidagi “Shaqqi Sadr” voqeesiga sihora bor. “Tafsiri Ibi Kasiyr.

**16. Onalari Omina payg'ambar SAV bilan nima maqsadda Madina safariga chiqdilar?**

- a) Tijorat
- b) Sayohat
- c) Ziyorat

**Javob:** Ziyorat

**Izoh:** Muhammad sav 6 yoshga to’lganlari onalari Omina bobolari Abdumutallibning maslahtiga ko’ra Yasribga (Madina) ham qarindoshlarini, ham jufti haloli bo’lgan Abdullohning qabrini ziyorat qilish maqsadida o’g’li Muhammadni va cho’risi Ummu Aymanni olib yo’lga tushadilar. (“Nurul yaqiyn”, “Tarixi Muhammadiy”)

**17. Onalari Ominaning o'limidan keyin payg'ambar SAVni tarbiya qilgan ayol kim?**

- a) Halima
- b) Ummu Ayman
- c) Suvayba

**Javob:** Ummu Ayman

**Izoh:** Omina bir oydan ko’proq vaqt Madinada bo’lganidan keyin o’g’li va cho’risi bilan Makkaga qayitsh uchun yo’lga chiqdi. Lekin ajal uni Makka va Madina oraliq’ida Abvo degan joyda quvib yetdi va jonini mahv etdi. Shundan keyin Muhammad sav butunlay yetim bo’lib cho’rilari Ummu Ayman qo’lida qoldi va tarbiyalandi. Muhammad SAV keyinchalik Ummu

Ayman haqida:”Tuqqan onamdan keyingi onamdir “deya iltifot ko’rsatganlar. (“Nurul yaqiyin”, “Tarixi Muhammadiy”)

**18. Bobolari Abdulmuttalibning olimidan keyin payg'ambarimiz S.A.V. necha yoshda edilar?**

- a) 8
- b) 9
- c) 6

**Javob:** 8 yoshlarida

**Izoh:** Muhammad sav 6 yoshga to’lganlari onalari Ominadan ajralgan bo’lsalar, shundan keyin ikki yil davomida bobolari Abdumutallib bag’rida mehr ko’rib voyaga yetganlar. Muhammad SAV 8 yoshga to’lganlarida esa ajal u kishining mehribonlarini bo’lgan bobolari Abdumutallibni ham o’z ixtiyoriga oladi. Shunday qilib Muhammad SAV uchinchi o’ksizlikni boshlaridan o’tkazadilar. (“Saodat asri qissalari”, “Nurul yaqiyin” va “Tarixi Muhammadiy”)

**19. Bobolarining o'limidan keyin payg'ambarimiz qaysi amakilarining oilasida tarbiya qilindilar?**

- a) Abbos
- b) Abu Tolib
- c) Hamza

**Javob:** Abu Tolib

**Izoh:** Muhammad SAV bobolaridan ajralganlaridan keyin bobolarining vasiyatiga va qur’a tashlash yo’li bilan tanlangan, shu bilan birga Muhammad SAV o’zlari ham bag’rilariga otilib tanlangan amakilari Abu Tolibning tarbiyalarida qoladilar. Abdumutallib faqat ikki o’g’li orasida qur’a tashlaydi. Bular Abu Tolib va Zubayr. Buning sababi Abu Tolib, Zubayr va Abdullohning onalari bir bo’lganligi edi. (“Saodat asri qissalari”, “Nurul yaqiyin” va “Tarixi Muhammadiy”)

**20. Payg'ambarimiz SAV 12 yoshga yetgach amakilari bilan Shom viloyatiga qilingan safar chog'ida Busro shaxrida payg'ambarimiz SAVni Olamlar sarvari, Alloh taolo habibi, oxir zamon payg'ambarliklari haqida xabar bergan rohib kim edi?**

- a) Nasturo
- b) Yaqub
- c) Buhayro

**Javob:** Buhayro

**Izoh:** Shom bilan Makka yashovchi, insonlarni yakkaxudolikka da’vat qilguvchi rohib Buhayro Muhammad SAVning sifatlarini Injil va Tavrotida o’qib bilgan edi. Buhayroning ismi Jirjisiy (Georgiy) bo’lib, Bayrutdagi “Katolik bosmaxonasi” tomonidan 1996 yilda nashr qilingan “Al-Munjid fil a’lom” (atoqli ismlarning izohli lug’ati) kitobida uqyidagi ma’lumotlar bor. “Rohib Buhayro milodiy 6-asrda Arab jazirasida karvonlar yo’li ustida yashar, badaviylarni yakkaxudolikka da’vat qilar edi. Muhammad sav ni Quraysh savdogarlari hamrohligida ko’rib, amakisi Abu Tolibga:”Mana shu jiyaning Muhammad haqida ulug’ xabar bor”, degan.

## 2-tur javoblari

### Mavzu: Payg'ambarimiz SAVning yigitlik davrlari, uylanishlari

#### 1. Payg'ambarimiz SAV 20 yoshga kirganlarida Fijor urushida qatanashdilar. Bu urush qatnashchilari bo'lgan qabilalar qaysi qatorda keltirilgan?

- a) Kinona, Qays, Quraysh
- b) Hazraj, Avs, Quraysh
- c) Quraysh, Zuhra, Kinona

**To'g'ri Javob:** Kinona, Qays, Quraysh.

**Izoh:** Kinona qabilasidan bo'lgan Barroz ibn Qays ismli kishi Qays qabilasidan bo'lgan Urva ibn Utbani, o'zini haqorat qilgani uchun qasd olish niyatida tijorat uchun yo'lga chiqqanida o'ldiradi. Urva ibn Utbaning o'ldirilganini eshitgan Qays qabilasi Kinona va Quraysh qabilasidan Urvani qasosini olish uchun urush boshlashadi. Bu urush Makka bilan Toif shaharlari o'rtasidagi Naxla degan joyda bo'ladi. Bu bemaqsad urushda Abdumutallib o'g'illaridan Zubayr, Abu Tolib, Abbos va Hamza, Abdumutallibning eng sevimli nabirasi Muhammad SAV ham qatnashganlar. Bunda Muhammad a.s 20 yoshda bo'lganlar. "Saodat asri qissalari", "Nurul yaqiyin".

#### 2. Ukoz qanday marosim?

- a) Arablarda mavsumiy bozor
- b) O'zaro kelishmovchiliklarni hal qiladigan qabilalar majlisi
- c) Ziyofat

**To'g'ri Javob:** Arablarda mavsumiy bozor.

**Izoh:** Ukoz – arablarning mavsumiy bozori bo'lib, bunday bozor arablarning tarixida bo'lmagan edi. Bu bozorda yerliklardan tashqari Shom va Yamandan kelgan savdogarlar ham o'z mollari bilan tijorat qilardilar. Chunki bunday mahsuloti ko'p, xaridori bisyor bozor hatto Shom va Yamanning orasida cho'zilib ketgan yuzlarcha chaqirim orasida ham bunday bozor topilmasdi. "Saodat asri qissalari", "Nurul yaqiyin".

#### 3. Fijor urushi nima sababdan bunday nomlandi?

- a) Qurayshning hurmati saqlanmagani sabab
- b) Arablar orasida bekorga qon to'kilgani sabab
- c) Muqaddas Makkaning hurmati saqlanmagani sabab

**To'g'ri Javob:** Muqaddas Makkaning hurmati oyoqosti bo'lgani sabab.

**Izoh:** O'sha paytda ham arablar tomonidan hurmat bilan qaralgan, ketma-ket keladigan 4 oy, Zulq'a da Zulhijja, Muharram va Rajab oylari harom oylar, ya'ni urush qilinishi, yo'ltozarlik qilish, odam o'ldirish harom qilingan oylar hisoblanardi. Bu urush xuddi shu oylarga to'g'ri keldi. Qurayshliklar esa qavmning mudofaasi uchun bu uyda urush qilishga majbur bo'ldilar. Bu oylarda qilingan urushlar, Allohga ko'tarilgan isyon deya ta'rif berilgan. Bu urush arab tarixida misli ko'rilmagan qirg'inbarot urush bo'lganligi, harom oylarda Muqaddas Makkaning hurmati saqlanmaganligi uchun "Fijor", ya'ni "Gunohkorlar urushi" nomi bilan tarixda qoldi. "Saodat asri qissalari", "Nurul yaqiyin".

#### 4. Fijor urushida Qurayshning Qays qabilasiga tovon to'lashini nazorat qilishga kim mas'ul etib saylandi?

- a) Abdulmuttalib
- b) Abu Sufyon
- c) Harb ibn Umayya

**To'g'ri Javob:** Harb ibn Umayya.

**Izoh:** Bu maqsadsiz, shafqatsizlarcha bo'lgan urushda ko'p kishilarni begunoh qoni to'kildi. Oxiri bunga chek qo'yish uchun qurayshliklardan Utba ibn Robia sulh tuzish taklifi bilan chiqdi.

“Sizlarni o’lganlaringizni tovonini to’laymiz, bizlardan o’lganlarini qonini esa Alloh yo’liga bag’ishlaymiz”, dedi Utba. U Qays qabilasidan o’lganlarni tovonini to’lashni o’z bo’yniga oldi. Bu ishni nazorat qilishni esa qavmning ulug’laridan Harb Ibn Umayyaga topshirildi. “Saodat asri qissalari”, “Nurul yaqiyn”.

#### **5. Fijor urushida ko’rilgan talofatni to’lab bo’lingunicha Qurayshdan Qavs qabilasiga kim garovga berilgan?**

- a) Muhammad ibni Abdulloh
- b) Umar ibn Hattob
- c) Abu Sufyon

**To’g’ri Javob:** Abu Sufyon.

**Izoh:** Yuqorida aytib o’tilganidek Qays qavmidan o’lganlarini tovonini to’lashni Utba o’z bo’yniga olganidan keyin, har bir vafot etgan kishi boshiga 100 tuya hisoblandi. Jami bo’lib ikki ming tuya edi. Bunday katta tovonni qanday qilib to’lanishi hammani qiziqitirdi. “Qanday qilib to’laysan?” degan savolga, Utba: “Sizlarga tovonni to’lagunimcha odamlarimizdan garovga qo’yamiz...”, dedi. Shunday qilib qaysliklarga 40 kishilik guruh garovga berildi. Bularning orasida Utba ibj Robianing o’g’li Abu Sufyon va qurashlik aslzodalardan bo’lgan Hakim ibn Hizom ham bo’lgan.

“Saodat asri qissalari”, “Nurul yaqiyn”.

#### **6. Fijor urushidan keyin arablar o’rtasida tuzilgan xayriya uyushmasi kimning uyida tuzilgan edi?**

- a) Abdulmuttalib
- b) Abdulloh ibn Ju’don
- c) Harb ibn Umayya

**To’g’ri Javob:** Abdulloh ibn Ju’don.

**Izoh:** Qurayshliklar Fijor urushidan qaytgach, Makkaliklar yoki musofirlarni nohaqlikka uchraganlarida himoya qilish uchun, qabila boshliqlaridan bo’lgan Abdulloh ibn Ju’donning hovlisida uyushma tashkil qilishdi. Bu uyushmagan “Xilful fuzul” (Fazilatli kishilarning fazilatli ish tutishi) deb nom berishdi. Bu uyushmada Abdumonofning ikki o’g’li bo’lmish Hoshim va Muttalib avlodi, Asad ibni Abduluzzo, Zuhra ibni Kilob avlodi va Taim ibn Murra avlodi jamoasi qatnashdi. Bu uyushmaga Muhammad SAV ham a’zo bo’lgan edilar.

“Saodat asri qissalari”, “Nurul yaqiyn”, “Tarixi Muhammadiy”

#### **7. Fijor urushida Payg’ambarimiz SAVning vazifalari nima edi?**

- a) kamondan o’q otish
- b) otliq askarlar safida jang qilish
- c) o’q terish

**To’g’ri Javob:**

- c) O’q terish.

**Izoh:** Payg’ambarimiz SAV 20 yoshlarida bu urushda amakilari bilan birgalikda qatnashganlar. Faqat hech kimga o’q otmagan, hech kimni qonini to’kmaganlar. Faqatgina qarshi tarafdin otilgan o’qlarni to’plab (yig’ib, terib), amakilariga berganlar.

Ibn Hishom, 1/198

#### **8. Payg’ambarimiz SAV Payg’ambarlik berilganda ham sog’inib eslaydigan johiliyatdagi yaxshilik qaysi?**

- a) Ka’bani qayta tamirlashda qatnashganlari
- b) Halimani uylarida sahroda o’tgan bolaliklari
- c) Xayriya uyushmasiga a’zo bo’lganlari

**To’g’ri Javob:** c) Hayriya uyushmasiga a’zo bo’lganlari.

**Izoh:** Abdulloh ibn Ju'donning uyida tuzilgan hayriya uyushmasiga a'zo bo'lgan, xayrli ishlarda qatnashgan Muhammad SAV, payg'ambarlik sharafiga erishganlaridan keyin ham u kunlarni juda ko'p martalab sog'inib eslab, tilga olganlar. U zot: "Men Abdulloh ibn Jud'oning hovlisida qurilgan uyushmaga kirganman, bu tashkilot qizil tuyalardan qimmatroq, (arablarda qizil tuyalar eng qimmatli narsa hisoblanardi) agar hozir ham biron shunday ishga da'vat etsa, sira ikkilanmay qabul qilardim, deganlar.  
"Nurul yaqiy", "Tarixi Muhammadiy"

### **9. Rasululloh SAV ikkinchi marta Shomga necha yoshlarida safar qilganlar?**

- a) 12
- b) 20
- c) 25

**To'g'ri Javob:** 25.

**Izoh:** Rasululloh sav 25 yoshga kirganlarida "Tohira" laqabi bilan mashhur bo'lgan, katta savdogarlardan bo'lgan Xadicha binti Huvaylid Shomga karvon jo'natmoqchi bo'ladi. Bu karvonga bosh qilib jo'natish uchun esa u ishonchli bir kishi topishi lozim edi. Unga Abu Tolibning jiyani bo'lgan Muhammadni a.s. tavsiya qilishadi. Abu Tolib bilan bu haqda kelishib, Muhammadga a.s. boshqalarga bergan haqqini ikki hissasini berish evaziga kelishadi. Shundan keyin Muhammad a.s. 25 yoshlarida Xadichaning karvonini boshqarib Shomga ikkinchi safarlarini qiladilar.

"Nurul yaqiy", "Tarixi Muhammadiy"

### **10. Hz. Hadicha onamiz tarafidan Payg'ambarimiz SAV Shomga savdo bilan ketishida kim yordamchi bo'lgan?**

- a) Maysara
- b) Said ibn Abu Saib
- c) Nafisa

**To'g'ri Javob:** Maysara.

**Izoh:** Maysara kichik yoshidan beri Xadichaning qo'l ostida voyaga yetgan, uning sof vijdoni, yuksak ahloqi, haqiqiy insoniy fazilatlariga guvoh bo'lib, unga chin ko'ngildan e'tiqod qo'ygan edi. Xadicha ko'plab karvonlarini Shom va Yamanga jo'natar ekan, ularga sarbon qilib yuborgan kishilarini hatti harakatlarini, qanday ish tutganlaiklarini, hisob-kitoblariga yarasha ish qilgan-qilmaganliklarini kuzatib borish uchun, Maysaradan foydalanar edi. Maysara Xadichaning har bir karvonida ishonchli kishi edi. Shu jumladan Shomga, Muhammad SAV boshchiliklarida yuborilgan karvonga ham Maysara ishonchli nazoratchi qilib yuborildi.

"Nurul yaqiy", "Tarixi Muhammadiy"

### **11. Hadicha onamiz va Rasululloh SAVning nikohlarini kim o'qigan?**

- a) amakilari Abu Tolib
- b) Hadichaning amakilari Amr ibn Asad
- c) Abu Bakr Siddiq

**To'g'ri Javob:** Amakilari Abu Tolib.

**Izoh:** Muhammad a.s. Shom safaridan qaytganlaridan keyin, amakilari Abu Tolib bilan Xadichaning amakisi bo'lgan Amr ibn Asadnikiga sovchi bo'lib borishadi. U kishi bu nikohga o'z roziligini beradi. Bu ikki ulug' insonni nikohlarini Muhammadning a.s. amakilari Abu Tolib o'qiydi va o'z xutbasida shunday deydi: "Oллоh bizni Ibrohim va Ismoil avlodi, Ma'ad va Muzor nasli qilib yaratganiga, Baytullohga qaraydigan, Masjidi haromni boshqaradigan martabaga erishtirganiga, Ka'bani ulug' ziyoratgoh, qon to'kish, hatto birona giyohni uzish man etilgan muqaddas maskanga aylantirganiga, bizni martabamizni ko'tarib, odamlarga hukmron qilganiga ming qatla shukr. Jiyanim Muhammad ibn Abdullohning mardlikda, olijanoblikda, fazlu karamda tengi yo'q. To'g'ri, uning mol-dunyosi ko'p emas, biroq davlat degani soyaga o'xshash



o'zidan nariga tushmaydigan va egasiga qaytariladigan omonat. Ollahning nomi bilan qasam ichib aytamanki, Muhammad kelajakda ulug' odam bo'ladi, katta ishlarni amalga oshiradi".  
"Nurul yaqiyin"

**12. Payg'ambarimiz Muhammad SAV Hadicha onamizga mahrga nima hadya qildilar?**

- a) 1 tilla uzuk
- b) 20 ta bo'taloq (tuya)
- c) 11 ziro' kumush

**To'g'ri Javob:** 20ta bo'taloq.

**Izoh:** Yuqoridagi baxtli nikoh o'qilganidan keyin Muhammad a.s. Xadichaga r.a. 20 ta bo'taloq mahr beradigan bo'ldilar.

"Ar-rohiyqim maxtum", "Tarixi Muhammadiy"

**13. Payg'ambarimiz Muhammad SAVning Hadicha onamizdan ko'rgan eng katta qizlari ismi nima?**

- a) Ruqiya
- b) Ummu Gulsum
- c) Zaynab

**To'g'ri Javob:** Zaynab.

**Izoh:** Ko'pchilik olimlarning ij'mosiga binoan, Zaynab Rasululloh SAVning katta qizlari bo'lib, u zot 30 yoshga to'lganlarida tug'ilgan va hijratning 8-yili vafot etgan.

"Nurul yaqiyin", "Siz payg'ambarini ko'rganmisiz"

**14. Payg'ambarimiz Muhammad SAVning eng katta o'g'illari ismi nima?**

- a) Ibrohim
- b) Qosim
- c) Tohir

**To'g'ri Javob:** Qosim.

**Izoh:** Rasulullohning sav birinchi farzandlari va birinchi o'g'illari Qosim bo'lgan. U Islomdan ancha avval Makkada tug'ilgan. Eng sahih qavlgga ko'ra 17 oy yashab vafot etgan. Rasulullohni sav kunyalari ham shu o'g'illariga nisbat berib, Abul Qosim deya atalgan.

"Nurul yaqiyin", "Tarixi Muhammadiy"

**15. Payg'ambarimiz Muhammad SAVning Hadicha onamizdan ko'rgan ikkinchi o'g'illari ismi nima edi?**

- a) Qosim
- b) Abdulloh
- c) Ibrohim

**To'g'ri Javob:** Abdulloh.

**Izoh:** Rasulullohning SAV Xadicha onamizdan ko'rgan ikkinchi o'g'illari Abdulloh bo'lgan. Nasl-nasab bilan shug'ullanuvchi olimlarning gapiga qaragnada, Abdulloh toza va juda yoqimli bo'lgani bois unga Tohir-Toyyib laqablari berilgan. Abdulloh Muhammadga a.s. payg'ambarlik kelganidan keyin Makkada tug'ilib, go'dak paytida o'sha yerda vafot etadi.

"Nurul yaqiyin", "Tarixi Muhammadiy"

**16. Payg'ambarimiz SAV Hadicha onamizdan nechta farzandli bo'lganlar?**

- a) 6
- b) 5
- c) 8

**To'g'ri Javob:** 6.

**Izoh:** Rasulullohni SAV Xadicha r.a. dan ko'rgan farzandlari soni 6 ta bo'lgan 2 o'g'il va 4 qiz.

Mulla Aliyul Qori Hanafiy, “Al Fiqhul akbar” sharhi, Muhammad Sulaymon Mansurfuriy, “Rahmatun lil olamiyn” kitobi 2-juz’.

**17. Rasululloh SAV tiriklik paytida vafot etgan ikki mo'minlar onasi kim?**

- a) Hadicha binti Xuvaylid, Savda binti Zam'a
- b) Hadicha binti Xuvaylid, Zaynab binti Xuzayma
- c) Hadicha binti Xuvaylid, Ummu Salama

**To'g'ri Javob:** b) Hadicha binti Huvaylid, Zaynab binti Xuzayma.

**Izoh:** Oltinchi onamiz Xuzayma qizi Zaynabdur. Xayr-saxovatda nomi chiqqan xotinlardan edi. Shu uchun arablar uni johiliyat zamonida ham «Ummu Masokin», ya'ni, «Misikinlar onasi» deb atamish edilar. Ikki-uch oygina Rasululloh xizmatlarida turgandan keyin vafot topmish edi. Uning janozasini Rasululloh o'zlari o'qib, Baqe' go'ristoniga dafn qildilar. Yoshlari o'ttizdan o'tmagan edi. Rasulullohning tirikliklarida vafot topgan xotinlari Hazrati Hadicha bilan Zaynab ikkovlaridurlar, raziyallohu anhumo.  
“Tarixi Muhammadiy”

**18. Ka'bani qayta ta'mirlash paytida hajarul asvadni joyiga o'rnatish vazifasi Rasululloh sollallohu 'alayhi vasallamga nasib etganda, u zot necha yoshda edilar?**

- a) 35
- b) 38
- c) 40

**To'g'ri Javob:** 35.

**Izoh:** Quraysh arablari Baytullohni qayta buzib qurmoqchi bo'ldilar va bunga faqat halol yo'l bilan topilgan mollarini asrf qilishga klishib oldilar. Bu baytullohning qayta qurilishini sakkizinchisi edi. Bu paytda Rasululloh sav 35 yoshga kirib, ayni kuchga to'lgan paytlari edi. “Saodat asri qissalari”, “Nurul yaqiyin”.

**19. Nima uchun Makka ahli Baytullohni buzib, qayta tikladi?**

- a) Qabilalar aro urushlar oqibatida Ka'ba binosiga ko'p zarar yetgan edi
- b) Ziyoratchilarning ko'p kelgani sabab, baytulloh devorlarini buzib, kengaytirishmoqchi edi
- c) Qattiq yomg'ir yog'ib, Baytullohni sel bosib, bino yiqila boshlagan edi

**To'g'ri Javob:** Qattiq yomg'ir yog'ib, Baytullohni sel bosib, bino yiqila boshlagan edi.

**Izoh:** Makkada qattiq yomg'ir yog'ib, sel kelidi va Baytullohning tomlari qulay boshladi. Shunda makka ahli kelishib Baytullohni qayta qurishga qaror qildilar. Rasululloh SAV bu ishda katta mehnatlari ila qatnashdilar. Tosh tashidilar va boshqa xizmatlarni qildilar. Ibrohim a.s. qo'ygan poydevor ustiga tosh qo'yishib, Baytullohni tomoni ko'krak barobari qilib ko'tardilar. “Saodat asri qissalari”, “Nurul yaqiyin”.

**20. Payg'ambar SAVga hajarul asvadni joylash topshirilganda, u zot hech bir Makka qabilalarini xafa qilmaydigan bir tadbir qo'lladilar. Bu tadbir nima edi?**

- a) Qur'a tashlash orqali. Qur'a g'olibi bo'lgan qabila oqsoqoli, hajarul asvadni qo'lida ko'tarsin, boshqa qabila oqsoqollari unga yordam bersin, dedilar.
- b) Choponlarini yerga yoyib, ustiga qora toshni qo'ydilar, har bir qabila oqsoqoli choponning chekkasidan ushlab, barobar ko'tarishdi.
- c) Qabila oqsoqollari orasida yoshi eng katta bo'lgani hajarul asvadni joyidan qo'zg'otib, payg'ambar alayhissalomga uzatsin, ular, toshni joylasinlar, dedilar.

**To'g'ri Javob:** b)Choponlarini yerga yoyib, ustiga qora toshni qo'ydilar, har bir qabila oqsoqoli choponning chekkasidan ushlab, barobar ko'tarishdi.

**Izoh:** Baytullohni qurish ishlari tugaganidan so'ng, “Hajarul asvad”ni o'z joyiga qo'yish vaqti kelganida uni o'z o'rniga qo'yish uchun kim ko'taradi degan savol ustida talashib, qurayshliklar janjal qila boshladilar. Har bir urug' bu ishda o'zini haqli deb bilar edi. Bu ish shu darajaga

keldiki, hatto bu janjal urushga aylanib ketishiga oz qoldi. Oxiri ularni orasiga kishilar tushib Baytullohni oldida qon to'kishdek og'ir gunohdan ularni saqlab, ularni kelishitirishga harakat qildi. Bir oqilni gapiga kirib, Bani Shayba darvozasidan kim birinchi kirs shu kishini aytgani bo'ladi degan qarorga keldilar. Shu payt bu darvozadan arablar orasida Muhammad Amin nomi bilan tanilgan Muhammad SAV kirib keldilar. U kishini qilgan hukmlariga hamma rozi bo'ldi. U kishi choponlarini yerga yoyib qora toshni uning ustiga qo'ydilar va har bir qabila boshlig'ini uning uchlaridan tutishga buyurdilar. Ular hammalari bir bo'lib ko'tarishib hajarul Asvadni o'z joyiga olib bordilar va toshni Rasululloh sab o'z qo'llari bilan joyiga qo'ydilar. "Saodat asri qissalari", "Nurul yaqiyin".

### 3-tur javoblari.

#### Mavzu: Ilk vahiyning kelishi. Da'vatning boshlanishi

##### 1. Jabroil alayhissalom ilk marta Payg'ambar SAVga nima shaklida ko'rindilar?

- a) Havoda muallaq turgan qanotli maxluq
- b) Odam shaklida
- c) Daraxt shaklida

Javob: Odam shaklida.

Izoh: Kunlarning birida rasululloh tog' tepasida turganlarida to'satdan ro'paralarida bir odam paydo bo'lib: "Ey Muhammad, suyunchi ber, men Jabroilman, sen esang Ollohning bandalariga yuborgan elchisisan!" dedi va shundan keyin: "O'qi!" deya amr etdi. ("Nurul-yaqin") Alloh taoloning Rasuliga yuborgan birinchi kalomi, birinchi hukmi "O'QI" bo'lgan ekan, demak, o'qish va ilm o'rganish har bir inson musulmon uchun farz hisoblanadi.

##### 2. Rasululloh sallallohu alayhi vassallamga ilk bora vahiy qilib Qur'oni karimning qaysi surasi va nechanchi oyatlari nozil bo'lgan?

- a) Fotiha surasining 1-7 oyatlari.
- b) Alaq surasining 1-5 oyatlari
- c) Muddassir surasining 1-5 oyatlari.

Javob: Alaq surasining 1-5 oyatlari.

Izoh: Jabroil u kishini uchinchi marta "O'qi" deb, qattiq quchoqlab qoyib yuborgach: "Insonni quyuq qondan yaratgan robbingning nomi bilan o'qi. Robbing benihoya hurmatga sazovordir. U qalam bilan yozishni o'rgatdi, insonga bilmagan narsalarini bildirdi", dedi. (Amaq surasining 1-5-oyatlari) "Nurul yaqin"

Shu ulug' kunda yer yuzini va insonlarni zalolatdan nurga olib chiqqan quyoshning ilk zarralari yer yuzini va insonlarni qalbini yoritishni boshladi. Bu Allohning ilk kalomlari edi.

##### 3. "Koshki yosh yigit bo'lsam, qavming ota-bobosi e'tiqod qilib kelgan dinini o'zgartirishni targ'ib etganing uchun seni yomon ko'rib, dushmanlik qilishadi, tug'ilib o'sgan yurtindan haydab chiqarishadi". Rasululloh SAVga qarata aytilgan ushbu gaplar muallifi kim?

- a) Varaqa ibn Navfal
- b) Buhayro
- c) Ka'bul Ahbor

Javob: Varaqa ibn Navfal.

**Izoh:** Rasululloh sav yuqoridagi holatdan qattiq ta'sirga tushib, qo'rqin holatlarida uylariga keldilar va Hadicha r.a.ga: "Meni o'rib qo'yinglar..." dedilar. Va bir ozdan keyin bo'lgan voqeani aytib berdilar. Xadicha r.a. o'zlari intizorlik ila kutgan lahzalar shu ekanligini tushundilar va bunga aniqlik kiritish uchun amakilarini o'g'li Varaqa ibn Navfalni oldiga Rasululloh SAVni olib bordilar. Varaqa johiliyat davrida nasroniy diniga kirgan, ibroniy yozuvini puxta egallab, bu yozuvda Injilga juda ko'p sharhlar yozgan, yoshi o'tib, ko'zi o'tmaslashib qolgan mo'tabar olim edi. Muhammad alayhis-salom u kishiga ko'rgan-kechirganlarini bir boshdan gapirib berdilar. Varaqa: "Olloh Muso payg'ambarga yuborgan shariati mana shu", dedi va yuqoridagi gaplarni aytdi. "Nurul yaqin".

##### 4. Rasululloh sallallohu alayhi vassallamga ilk iymon keltirish baxtiga muyassar bo'lgan inson kim?

- a) Abu Bakr Siddiq (r.a.)
- b) Ali ibn Abu Tolib (r.a.)
- c) Xadicha binti Xuvaylid (r.a.)

Javob: Xadicha ibn Huvaylid.

**Izoh:**Rasululloh sav bilan bo'lib o'tgan bu ulug' mo'jizaga birinchi guvoh bo'lgan va buni tiliyu dili bilan birinchi bo'lib tasdiqlagan inson Mo'minlar onasi Xadicha binti Huvaylid edi.Xadicha r.a. bu xushxabarni eshitganing birinchi lahzasidan boshlab, umrining so'nggi kunigacha Rasululloh sav yonlarida bo'ldi va Islomga misli ko'rilmagan yordamni berdi. Alloh u zotdan rozi bo'lsin. "Nurul yaqin".

#### **5. Rasululloh SAVga ikkinchi bo'lib nozil qilingan oyatlar qaysilar?**

- a) Mudassir, 1-2-oyatlar
- b) Fotiha, 1-7-oyatlar
- c) Muzammil, 1-5-oyatlar

Javob:Mudassir, 1-2 oyatlar.

**Izoh:**Birinchi vahiy nozil bo'lgandan keyin ozgina muddat uzilish bo'ldi. Bu uzilishni qancha muddat bo'lgani aniq emas, lekin 40 kun davom etgani haqiqatga yaqinroq. Muhammad alayhis-salom yo'lda ketayotganlarida g'oyibdan surnay navosidek yoqimli ovoz eshitildi, bosh ko'tarib yer bilan ko'k o'rtasida muallaq o'tirgan tanish farishtani ko'rdilar. Rasululloh farishtaning birinchi marta kelib, Hiro g'orida qanday azob berganini eslab, qo'rqqanlaridan uyga qarab qochdilar. Uyga kira solib: "Meni o'rab qo'yinglar! Tezroq o'rab qo'yinglar!" dedilar. Olloh shu zahoti u kishiga quyidagi oyatlarni nozil qildi: "Ey o'ranib olguvchi zot, tur, ogohlantir!" - ya'ni odamlar noto'g'ri yo'ldan, ota-bobolari topingan butlarga sig'inishdan qaytmasa, Olloh azob berajagini aytib qo'rqit. "Robbingni ulug'la!" - ya'ni faqat Ollohni ulug'la, unga boshqa narsalarni sherik keltirib, ibodat qilishdan saqlan. "Kiyimingni pok tut!" - ya'ni Ollohning huzuriga toza libos bilan kelib, ibodat qil, isqirt bosib, nopok yurish mo'min odamga munosib emas. "Azobga giriftor etadigan ishlardan yiroq bo'!" - ya'ni Ollohga itoat etib, buyruqlarini so'zsiz bajar. "Ko'p olish niyatida berma!" - ya'ni birovga biron narsa hadya etsang undan ko'proq olishni ta'ma qilma. Bu mard odamlarning ishi emas. "Robbing uchun sabrli bo'!" - ya'ni qavmingni islom diniga da'vat etgan paytingda ulardan yetgan aziyatlarga sabr bilan bardosh ber. "Nurul yaqin".

#### **6. Rasululloh sallallohu alayhi vassallam bilan ilk bor namoz o'qish baxtiga muassar bo'lgan inson kim?**

- a) Abu Bakr Siddiq (r.a.)
- b) Ali ibn Abu Tolib (r.a.)
- c) Xadicha binti Xuvaylid (r.a.)

Javob:Xadicha binti Huvaylid.

**Izoh:** Xadicha binti Huvaylid r.a. namoz farz bo'lmasidan oldin vafot etganlar. Lekin rasululloh sav namoz farz bo'lmaganda namoz o'qir edilar. Ular bilan birinchi bo'lib namoz o'qigan musulmon Xadicha r.a.dirlar.

#### **7. Payg'ambarimiz SAVga vahiyning boshlanishi qaysi oyga to'g'ri keladi?**

- a) Rabiul avval oyiga
- b) Ramazon oyiga
- c) Rajab oyiga

JavobRamazon oyiga.

**Izoh:**Ilk vahiyning boshlanishi Ramazon oyiga to'g'ri kelganiga dalil, Qur'oni karimning "Qadr" surasining ilk oyatlaridir. Bu oyatda Alloh taolo aytadi:"Albatta Biz uni, ya'ni Qur'onni, qadr kechasida nozil qildik..." Ko'pchilik ulamolarning aytishicha Qadr kechasi ramazon oyining 27-kechasiga to'g'ri keladi. Vallohi a'lam.Bunga Qur'oni karimning yana boshqa ko'plab oyatlarida dalil bor. "Baqara"surasining 185-oyati va "Duxon" surasi 3-oyati shular jumlasidandir.

#### **8. Payg'amarimiz SAV ga ilk vahiy nozil bo'lgan Hiro g'ori joylashgan tog' keyinchalik nima deb nomlangan?**

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

**Ziyo istagan qalblar uchun**

[www.forum.ziyouz.com](http://www.forum.ziyouz.com)

**Islomiy viktorina: Biz Islomni bilamizmi?**

- a) Savr
- b) Nur
- c) Rahmat

Javob: Nur.

**Izoh:** Ilk vahoy nozil bo'lgan Hiro g'ori joylashgan tog' keyinchalik Nur deb nomlangan. Nur tog'i Makkadan Minoga ketaverishda chap tomonda joylashgan. Ar-rahiyqul maxtum".

#### **9. Yoshlardan islomni ilk qabul qilgan ikki buyuk sahoba kim?**

- a) Ali ibn Abu Tolib, Zayd ibn Horisa
- b) Ali ibn Abu Tolib, Abdulloh ibn Abbos
- c) Ali ibn Abu Tolib, Said ibn Zayd

Javob: Ali ibn Abu Tolib, Zayd ibn Horisa.

**Izoh:** Ali ibn Abu Tolib Rasulullohga sav ilk vahiy kelgan paytda hali balog'atga ham yetmagan edilar. Zayd ibn Horisa esa ozod qilgan qullari va tutingan o'g'illari edi. Islomni birinchilikda qabul qilgan yosh yigitlar shu ikki buyuk sahobiylar edi.

#### **10. Rasululloh SAV: "Men islom diniga da'vat etganlar orasida faqat ...gina hech ikkilanmay imonga kelgan". Nuqtalar o'rnini to'ldiring.**

- a) Hadicha binti Huvaylid
- b) Ali ibn Abu Tolib
- c) Abu Bakr Siddiq

Javob: Abu Bakr Siddiq.

**Izoh:** Abu Bakr quraysh qabilasining nufuzli, hushaxloq, saxovatli, suhbat shirin boylaridan biri edi. U rasulullohning yaqin yordamchisiga aylandi, har bir ishni ikkovlon bamaslahat qiladigan bo'lishdi. "Men islom diniga da'vat etganlar orasida faqat Abubakrgina hech ikkilanmay imonga kelgan", degan edilar payg'ambar alayhis-salom. ("Nurul yaqiyin")

#### **11. Rasululloh sallallohu alayhi vassallamga ilk iymon keltirgan sahobalardan, birinchi bo'lib qaysi sahobiyni ismlarini "Abdurrohman" deb o'zgartirgan Abdurahmon ibn Avfning johiliyatdagi ismi nima edi?**

- a) Abduamr
- b) Abdushams
- c) Abduluzzo

Javob: Abduamr.

**Izoh:** Zuhra jamoasidan bo'lmish Abdurahmon ibn Avfning islomga kirishdan oldingi ismi Abduamr edi. Rasululloh unga Abdurahmon deb ot qo'ydilar. ("Nurul yaqin")

#### **12. Qaysi qatordagi javobda Abu Bakr Siddiq tashviqi bilan ilk iymonga kirgan 5 buyuk sahobiy nomi to'g'ri ko'rsatilgan?**

- a) Zubayr ibn Avvom, Abdurahmon ibn Avf, Sa'd ibn Abu Vaqqos, Abdulloh ibn Mas'ud, Usmon ibn Affon
- b) Aburahmon ibn Avf, Zubayr ibn Avvom, Usmon ibn Affon, Talha ibn Ubaydulloh, Sa'd ibn Abu Vaqqos
- c) Usmon ibn Affon, Aburahmon ibn Avf, Talha ibn Ubaydulloh, Ammor ibn Yosir, Zubayr ibn Avvom

Javob: Aburahmon ibn Avf, Zubayr ibn Avvom, Usmon ibn Affon, Talha ibn Ubaydulloh, Sa'd ibn Abu Vaqqos

**Izoh:** Quyida nomlari yozilmish kishilar hazrati Abu Bakr Siddiq tashviqi bilan iymonga kirdilar: Birinchisi, Aburahmon ibn Avf; ikkinchisi, Zubayr ibn Avvom; uchinchisi Usmon ibn Affon; to'rtinchisi, Talha ibn Ubaydulloh, va beshinchisi Sa'd ibn Abu Vaqqos. ("Tarixi Muhammadiy")

### **13. 5 vaqt namoz farz qilingunga qadar musulmonlar qay payt va necha mahal namoz o'qirdilar?**

- a) 3 mahal: quyosh chiqishidan avval, quyosh tikkaga kelgan payt, quyosh botishidan avval
  - b) 2 mahal: ertalab va kechqurun
  - c) 4 mahal: saxar vaqti, tush mahali, shom mahali va yarim kechasi
- Javob: 2 mahal: ertalab va kechqurun.

**Izoh:** Ertalab quyosh chiqishidan oldin 2rakat va kechqurun quyosh botishidan oldin 2rakat namoz o'qishgan. Muqotil ibn Sulaymon aytadi: Qur'oni karimning "G'ofir" surasi 55-oyati ila Alloh taolo Islomning avvalida ertalab va kechqurun namoz o'qishga buyurdi. "Ar-rahuyqul maxtum", "Tafsirun Nasafiy", Tafsiri Xozin", va "Hadis va Hayot", 19-juz', 140 bet.

### **14. Islomda eng avval qon to'kkan sahobiy kim?**

- a) Ammor ibn Yosir
- b) Hamza ibn Abdulmuttalib
- c) Sa'd ibn Abu Vaqqos

Javob: Sa'd ibn Abu Vaqqos.

**Izoh:** Bir kuni hazrati Sa'd ibn Abu Vaqqos bir necha sahobalar bilan tog' ichida yashirincha namoz o'qib turgan chog'larida Quraysh mushriklaridan bir to'p kishilar kelib qoldilar. Bularning namoz o'qishlariga qattiq g'azablanib, inkor qildilar. Har ikki taraf o'z so'zlarini isbotlash ustida bir qancha tortishuvlar bo'ldi. Buning bilan mushriklar qanoatlanishmay, o'rtadin urush chiqardilar. Qurolsiz bo'lgan bu urushda hazrati Sa'd ibn Abu Vaqqos bir mushrikni tuya suyagi bilan urganda, uning boshi yorildi. Islom boshlanishida eng avval to'kilgan qon shu edi. ("Tarixi Muhammadiy")

### **15. "Insonni ota-onasiga yaxshi muomala qilishga buyurdim. Agar ota-onang noma'lum bir narsani menga sherik keltirishga (buyurib) zo'rlasa, itoat etma. Sizlar mening dargohimga qaytib borasizlar, sizlarga o'z qilmishinglarni ayon qilaman", oyati qaysi sahobiyning onasi o'g'lining Islomga kirganidan norizo bo'lgan paytida nozil bo'lgan?**

- a) Talha ibn Ubaydulloh
- b) Sa'd ibn Abu Vaqqos
- c) Zubayr ibn Avvom

Javob: Sa'd ibn Abu Vaqqos.

**Izoh:** Sa'd ibn Abu Vaqqos Islomni qabul qilganini onasidan ancha payt yashirib yurdi, lekin har ishni nihoyasi bo'lgani kabi bu ish ham vaqti kelib oshkor bo'ldi. Va ona o'z o'g'lini yana jaholatga qaytarish cuhun hamma usulni qo'lladi. Hech bir amali kor qilmagaidan keyin, ona: "Agar sen ota-bobolaringni diniga qaytmas ekansan, emn hech narsa yemayman ham, ichmayman ham", deya qasam ichdi. Shunda Sa'd ibn Abu Vaqqos onasiga qarab: "Ey ona, men seni qanchalik yaxshi ko'rishimni bilasan, lekin agar seni yuzta joning bo'lsayu, ko'z o'ngimda yuz marta o'lsang ham bu dinimdan qaytmayman", dedi-da mahzun holda Rasululloh sav oldilariga maslahat olish uchun yo'l oldi. Bu paytda Rasululloh sav Alloh taoloning yuqorida keltirilgan "Luqmon" surasining 14-15 oyati karimalarini vahiy orqali qabul qilayotgan edilar. "Saodat asri qissalari".

### **16. Islomga yashirin da'vat paytida musulmonlar qaysi sahobaning uyida to'planib ilm majlisi qilardilar?**

- a) Abu Bakr Siddiq
- b) Abdulloh ibn Mas'ud
- c) Arqam ibn Abu Arqam

Javob: Arqam ibn Abu Arqam.

**Izoh:** Musulmonlarning soni o'ttizdan oshganda rasululloh hammalarini bir joyga jamlab, din ahkomlarini o'rgatishlari va yo'q-yo'riq ko'rsatishlari zarur bo'lib qoldi. Shu maqsadda

birinchilar qatori islom diniga o'tgan Arqam ibn Abu Arqamning hovlisiga yig'ildilar. ("Nurul yaqin").

**17. Makkada ilk bor shahodat kalimasini ovozi boricha baqirib aytgan va bu ishi uchun makkaliklardan ozor ko'rgan sahobiy kim?**

- a) Abu Bakr Siddiq (r.a.)
- b) Abu Zarr (r.a.)
- c) Zayd ibn Sobit (r.a.)

Javob: Abu Zarr (r.a.)

**Izoh:** Dastlab musulmon bo'lganlardan Abuzar sahroda yashovchi, shirin so'zi bilan tosh yuraklarni eritib yuboradigan notiq a'robiylardan edi. O'zini payg'ambar deb ataayotgan kishi haqida eshitgacha Makkaga qarab yo'l oldi. Masjidga kirib Rasulullohni sav izladi. Va shu orada Hazrati Ali r.a. bilan uchrashib qoldi. Ali uning bu yerga nima maqsadda kelgani bilan qiziqsindi. Abuzar: "Menga yo'l ko'rsatishga va'da bersang aytaman", dedi. Ali rozilik bergach, muddaosini bayon etdi. "Muhammad alayhis-salom rostdan ham xudoning payg'ambari, — dedi Ali. — Ertaga ertalab men bilan birga masjidga borasan. Mabodo biron xavf-xatar sezsam to'xtayman, bo'lmasa orqamdan ergashib ketaverasan". Ertasiga Abuzar Aliga ergashib rasululloh huzurlariga kirdi, u kishinung gaplarini eshitgan zahoti imon keltirib, musulmon bo'ldi. Payg'ambar alayhis-salom: "Joyingga qaytib, to mendan biron topshiriq borguncha ko'rgan-bilganlaringni odamlaringga so'zlab ber", dedilar. Abuzar tashqariga chiqib, baland ovozda: "Ashhadu al-la ilaha illollohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rosuluh", deb yubordi. Mushriklar kela solib uni do'pposlay ketishdi. Abbos r.a uni himoya qildi. ("Nurul yaqin").

**18. Bilol ibn Abu Raboh (r.a.) – ilk bor azon aytgan sahobiy qullikdan ozod qilingunlariga qadar kimning quli edilar?**

- a) Umayya ibn Xalafning
- b) Abu Jahlning
- c) Abu Sufyonning

Javob:Umayya ibn Xalafning.

**Izoh:** Bilol ibn Abu Raboh habash – qop-qora tanli, uzun bo'yi, bir oz bukri, sochlariga oq tushgan, siyrak soqolli bir qul edi. U Makka aslzodalaridan bo'lgan Umayya ibn Xalafning quli edi. ("Saodat asri qissalari")

**19. Islomdagi ilk shahid ayol Sumayyaning qotili kim edi?**

- a) Abu Lahab
- b) Abu Jahl
- c) Umayya ibn Xalaf

Javob: Abu Jahl.

**Izoh:** Islomni dastlab qabul qilganlardan bir bu Yosir oilasi edi. Ular Mug'iyra o'g'illarining Amr ibn Hishom (Abu Jahl) qullari bo'lgan. Ularni Islomni qabul qilganini eshitgan Abu Jahl ularni oilaviy Makkaning Ramda degan dashtida azobu qiynoqlarga soladi. Va shu yerda Islomdagi eng birinchi shahid nomi bilan musulmonlar qalbida o'rin egallab qolgan Summayni qatl etdi. ("Saodat asri qissalari")

**20. Qurayshlik Nofal ibn Xuaylid Talha va yana bir boshqa sahobani ikki qo'ldan bog'lab, ularning ustilarida xar-xil qiynoqlarni o'tkazish uchun, ikkovlarini Makkaning aqli zaiflari qo'lga topshirdi. Shu sababdan Talha va uning do'stini "ikkisi bog'langan" deb chaqirishar edi. Talha r.a. bilan "bog'langan" sahoba kim?**

- a) Abu Bakr Siddiq
- b) Zubayr ibn Avvom
- c) Sa'd ibn Abu Vaqqos



Javob: Abu Bakr Siddiq.

**Izoh:** Nofal ibn Xuaylid, qurayshliklar bu kishini (qurayshning sheri) deb laqablashardi, Talxa ibn Ubaydulloh (roziyallohu anhu)ning yonlariga kelib, arqon bilan qo'llarini qattiq bog'ladi va Abu Bakr (roziyallohu anhu)ni ham ikki qo'lidan bog'lab, ularni ustilarida har xil qiynoqlarni o'tkazish uchun, ikkovlarini Makkaning aqli zaiflari qo'lga topshirdi. Shu sababdan Talxa (roziyallohu anhu) va Abu Bakr Siddiq (roziyallohu anhu)ni "ikkisi bog'langan" deb chaqirishar edi. ("Talha ibn Ubaydulloh", Xolid Muhammad Xolid)

## 4-tur javoblari.

### Mavzu: Islom diniga oshkora da'vatning boshlanishi

#### 1. Oshkora da'vatga asos bo'lgan oyat qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Toha surasi, 5-oyat
- b) Shuaro surasi, 214-oyat
- c) Hijr surasi, 94-oyat

**To'g'ri Javob:** Hijr surasi, 94 oyat.

**Izoh:** Mushriklarning tahdidi kuchayib ketganligi sababli Rasululloh SAV qurayshning katta yig'inlarida oshkora da'vat olib bormadilar. Musulmonlar pinhona ibodat qilishar, namozlarini ko'pincha Makkaning tog'lariga chiqib, pana-pastqamda o'qishardi. Ularning soni o'ttizdan oshganda Rasululloh SAV hammalarini bir joyga jamlab, din ahkomlarini o'rgatishlari va yo'q-yo'riq ko'rsatishlari zarur bo'lib qoldi. Shu maqsadda birinchilar qatori islom diniga o'tgan Arqam ibn Abu Arqamning hovlisiga yig'ildilar. Shu paytgacha Hijr surasining: "Senga buyurilganini oshkora o'rta tashla, mushriklar bilan teng bo'lma", degan 94-oyati nozil bo'lguncha maxfiy ish tutilgan edi. Bu oyat kelgach, Rasululloh SAV Allohning va'dasi va yordamiga ishonib, oshkora da'vatga o'tdilar. ("Nurul Yaqin")

#### 2. Payg'ambarimiz SAV qarindoshlarini ochiq davat qilishlariga nima sabab bo'lgan?

- a) Qurayshda islom sezilib musulmonlar orasi kengayib ularga nisbatan zulm kuchayganda qabiladagi hurmatlik insonlardan himoya istab
- b) Abu Bakr r.a. ni kaltaklanganlarini oson qabul qila olmaganlari sabab
- c) Shuaro surasining 214-oyati nozil bolishi sabab

**To'g'ri Javob:** Shuaro surasining 214-oyati sabab.

**Izoh:** Shu paytgacha Hijr surasining: "Senga buyurilganini oshkora o'rta tashla, mushriklar bilan teng bo'lma", degan 94-oyati nozil bo'lguncha maxfiy ish tutilgan edi. Bu oyat kelgach, rasululloh Ollohning va'dasi va yordamiga ishonib, oshkora da'vatga o'tdilar. ("Nurul-yaqin")

#### 3. Alloh Ta'alo Payg'ambarimizni (salollohu alayhi va sallam) ochiq da'vatga eng birinchi o'z yaqinlaridan boshlashni buyurib oyat nozil qilgandan keyin ular qarindosh-urug'larini mehmonga chaqirdilar. Shu mehmondorchilikda qancha inson yig'ilgandi?

- a) 60 ga yaqin.
- b) 45 ga yaqin
- c) 30 ta.

**To'g'ri Javob:** 45ga yaqin.

**Izoh:** Yuqoridagi oyat nganidan so'ng Rosululloh (sallollohu alayhi va sallam) qarindosh-urug'lar bani Hoshimni uylariga mehmonga chaqirdilar. Ular o'zlari bilan Abdulmuttolib inb Abdulmannof avlodidan bir nafar bilan yi'g'ilishdi. Va ular qirq beshga yaqin erkak edilar. (Ar-Rahiyq Al-Maxtum)

#### 4. Nubuvvatning nechanchi yiliga qadar mushriklar musulmonlarga majlislarda o'tirishlarda gapirish Qur'on tilovat qilish yoki Namoz o'qishlari uchun umuman imkon berishmas edi?

- a) beshinchi yilning oxirlariga qadar.
- b) to'rtinchi yilning boshlariga qadar.
- c) oltinchi yilgacha.

**To'g'ri Javob:** Beshinchi yilning oxirlariga qadar.

**Izoh:** Mushriklar musulmonlarni insonlar orasida Islomga da'vat yoki Qur'on tilovati qilayotganlarini imkonlari bor boricha yashirishar ularni Namoz o'qiyotgan yoki tilovat qilayotgan holda ko'rsalar xar hil o'yinlar kulgu mazah qilib insonlarni hayollarini chalg'itar ularni musulmonlarni ovozini chiqarishga umuman yo'l qo'ymaslikka harakat qilardilar. Hattoki

Nabiy alayhissalom ham majlislar va o'tirishlarda qur'on tilovat eta olmasdilar. va Bu hol nubuvvatdan beshinchi yiloxirlariga qadar davom etdi. Bu ham tilovatdan maqsad nima ekanligini tushunmasdan oldin boshlanadigan kutilmagan hodisalar tufayli edi. (Ar-Rahiyq Al-Maxtum)

### **5. Alloh Ta'alo Muddassir surasining 11-25 oyatlarini Payg'ambarimizga qarshi isyon qilgan qaysi mushrik haqida nozil qildi?**

- a) Abu Lahab
- b) Umayya ibn Halaf
- c) Valiyd ibn Mug'iyra

**To'g'ri Javob:** Valiyda ibn Mug'iyra.

**Izoh:** Alloh ta'alo Valiyd ibn Mug'iyra to'g'risida Muddassir surasining 16 oyatini nozil qildi (11 dan 26 gacha) va shu bilan birga uning o'ylarini kayfiyatini ochdi. (Ar-Rahiyq Al-Maxtum)

18. Chunki u (Qur'onni eshitgach, bu ilohiy Kitobga qanday tuhmat qilish to'g'risida) o'yladi, reja tuzdi.

19. Halok qilingur, qanday reja tuzdi-ya?!

20. Yana halok qilingur, qanday reja tuzdi-ya?!

21. So'ngra u (o'ylagan rejalariga) qaradi.

22. So'ngra (Qur'ondan biron ayb topa olmagach, peshonasini) tirishtirdi va (aftini) burishtirdi.

23. So'ngra (Haqdan) yuz o'girdi va kibr-havo qildi.

24-25. Bas, u: «Bu (Qur'on Allohning so'zi emas, balki) faqat (avvalgilardan naql qilinayotgan bir sehrdir. Bu faqat basharning so'zidir», dedi. ( Muddassir surasi)

### **6. Alloh yo'lida azoblanib ko'r bo'lib qolgan va mushriklarning fitnalariga qarshi go'zal javobi uchun Alloh uning ko'zlariga qaytadan nur bergan ayolning ismi nima?**

- a) Zinnira.
- b) Sumayya
- c) Ummu Ubays.

**To'g'ri Javob:** Zinnira

**Izoh:** Va Zinnira Islomni qabul qilgan va Alloh yo'lida azoblangan ayollardan edi. Ko'zlari yaralanib oxiri ko'r bo'lib qolgandi. Mushriklar unga: "senga Lot va Uzzoning qarg'ishi yetdi" deyishdi. U: Yo'q Alloh haqqi ulardan emas bu Alloh huzuridandir. Agar hohlasa o'zi davolaydi dedi. Va Alloh unga ko'zlarini qaytardi. Mushriklar: "Bu Muhammadning sehrlaridan biri" deyishdi. (Ar-Rahiyq Al-Maxtum)

### **7. Bilol (r.a) qulikdan ozod qilgan inson?**

- a) Abu Bakr (r.a)
- b) Usmon (r.a)
- c) Talha (r.a)

**To'g'ri Javob:** Abu Bakr r.a.

**Izoh:** Bilol ibn Raboh qurayshlik Umayya ibn Xalafil Jo'mahining quli edi. Umayya o'z quli islom diniga kirganini eshitgach, uning bo'yniga arqon solib, bolalariga jonli o'yinchoq sifatida berib qo'ydi. Xuddi buyumdek, hayvondek xo'rlangan Bilol Ollohning birligiga sira shak keltirmadi. Bu azoblar kor qilmaganini ko'rgan Umayya yozning eng jazirama kunlari uni qoq peshinda hovur ufurib turgan cho'lga olib borardi. Yerga oyoq bosib bo'lmas, qumga tuxum qo'ysa pishar, tovondan o'tgan issiq miyadan tutun chiqarardi. Umayya Bilolni issiq qumga chalqancha yotqizib, ustiga bahaybat tosh bostirar va Muhammaddan yuz o'girib, Lot, Uzzo degan butlarga cho'qinmasang, mana shunday azobda qiynab o'ldiraman der, Bilol esa og'ishmay: "Olloh bir, Olloh bir", deya javob qaytarardi. Kunlarning birida xuddi shunday dahshatli azobning ustiga Abubakr kelib qoldi. "Ey Umayya, bir bechoraga shuncha azob bergani Ollohdan qo'rqmaysanmi? Uni tokay qiynaysan?" dedi u. "Uni sen yo'ldan ozdirding.

Qani qo'lingdan kelsa, uni qutqarib olmaysanmi?" — dedi Umayya zahrini sohib. Abubakr shu zahoti Bilolni sotib olib, ozod qildi. (Nurul-yaqiyn)

#### **8. Asadulloh (Allohning she'ri) deya nom olgan sahoba?**

- a. Umar roziyallohu anhu
- b. Sa'd ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhu
- c. Hamza roziyallohu anhu

**To'g'ri Javob:** Hamza r.a.

**Izoh:** Jismoniy jihatdan haddan tashqari baquvvat, o'ta jasur Hamza musulmonlarning qalqoniga, mushriklarning yuragiga g'uluv soladigan qudratli bahodirga aylandi va unga Asadulloh (Oloh-ning sheri) deya nom berildi. (Nurul-yaqiyn)

#### **9. Qaysi oyatlar hazrati Umar ibn Hattobni zalolatdan chiqib, Haq yo'liga kirishlariga sababchi bo'ldi?**

- a. Rahmon surasining 1-5 oyatlari
- b. Toha surasining 1-6 oyatlari
- c. Hadid surasining 1-2 oyatlari

**To'g'ri Javob:** "Toha" surasining 1-6 oyatlari.

**Izoh:** Mushafga nisbatan hurmatda bo'lishini talab qilgan holda Fotima (r.a.) javob berdi: - Akaginam, sen Allohga sherik tutganing uchun nopoksan, holbuki, bu Kitobga faqat pokiza insonlarga qo'l tekizadi. Tur, oldin tahorat ol!

Umar g'usl qildi. Keyin unga Qur'ondan Toha surasining oyatlari yozilgan sahifalarni berishdi.

Umar ularni o'qib, chuqur o'yga toldi. Yuzida hidoyatning nurlari jilolana boshladi.

"Bu qandayin sharafli, qandayin laziz kalom! Bundan-da go'zal, bundan-da shirin so'z bo'lishi mumkin emas!" (Sahabalar Ansiklopedisi)

#### **10. U Ummu Anmorning quli bo'lgan. U yasagan qilichlar Makkada mashhur bo'lgan. Islomni qabul qilgan bu mashhur sahoba-temirchi kim edi?**

- a. Xabbob ibn Arat
- b. Abu Fukayha
- c. Suhayb Rumiy

**To'g'ri Javob:** Xabbob ibn Arat.

**Izoh:** Ummu Anmar o'zining yangi qulini Makkaning qurol yasaydigan temirchisiga olib borib, unga hunar o'rgatishligini so'rab, unga qilich yasashni o'rgatishligini iltimos qilib topshirdi.

Aqli bola tez orada bu hunarni egalladi va ancha mahoratli usta ham bo'ldi. Qachon Xabbob o'rganib bo'lganidan so'ng Ummu Anmar qilich yasashlik uchun va undan foyda ko'rishlik maqsadida unga alohida temir do'kon qilib berdi va har xil kerakli asboblarni ham olib berdi. (Hayatus sahaba)

#### **11. Payg'ambarimiz (s.a.v.) harami sharifda namoz o'qib turganlarida kim u zotni kelib bo'g'ishga jur'at etdi?**

- a) Abu Jahl
- b) Abu Lahab
- c) Uqba ibn Abi Mu'ayt

**To'g'ri Javob:** Uqba ibn Abi Mu'ayt.

**Izoh:** Kunlarning birida payg'ambar alayhis-salom namoz o'qiyotganlarida Uqba orqadan kelib u kishining bo'yniga choponini tashlab, bo'ga boshladi. Tasodifan kelib qolgan hazrat Abu Bakr rasulullohni ajratib oldi-da, Mo'minlar surasining "Robbing Oloh" degan va "robbingiz tomonidan sizlarga mo'jizalar olib kelgan kishini o'ldirasizlarmi", degan oyatini aytib, mushrikni koyidi. (Sahihul Buxoriy)

## 12. Allohga qasamki ertaga Muhammad SAV namoz o'qiyotganda boshini tosh bilan majaqlab tashlayman degan kim edi?

- a) Abu Jahl
- b) Abu Lahab
- c) Os ibn Voil

**To'g'ri Javob:** Abu Jahl.

**Izoh:** Abu Jahl mal'un turib:

— Ey Quraysh xalqi, mana ko'rdinglar, Muhammad bilan bo'lgan muomalamiz shu bo'ldi, dinimizni xorlab, butlarimizni haqorat qilib, ota-bobolarimizni, bizni ahmoq sanab yuribdi... Endi men o'z ko'nglimda shunday ahd qildimki, agar ertaga kelib Baytulloh oldida yana o'z namozini o'qimoqchi bo'lsa, naqd sajdaga bosh qo'ygan chog'ida qo'l ko'targudek og'ir tosh bilan urib boshini yanchaman... — dedi.

Ertasi kuni o'zi degandek bir cho'ng toshni tutib, poylab turdi. Qachonki Payg'ambarimiz sajdaga bosh qo'yib edilar, yomon niyat bilan poylab turgan Abu Jahl bir katta tosh ko'targan holda urmoqchi bo'lib yaqin keldi. Kelishi hamon ko'krigidan itargandek bo'lib, orqaga qaytdi. Qo'rqanidin rangi o'chib, tosh ko'targan qo'li jonsizlanib, uni tashladi.

— Ey Abul Hakam, senga nima hodisa bo'ldi? — deb undin so'radilar.

Anda ul:

— Kechagi aytgan ishimni qilmoqchi bo'lib, yaqin borgan edim, tishlari nayzadek, umrimda ko'rmagan haybatlik bir bug'ro tuya oldimdan to'g'ri chiqib, og'zini g'ordek ochib, menga hamla qildi. Bo'lgan voqea shuldir,— dedi. Payg'ambarimiz:

— Ko'ringan bug'ro tuya birodarim Jabroildur, agar menga yaqinlashsa, uni halok qilur edi, — dedilar. (Tarixi Muhammadiy)

## 13. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan kurash tushgan va shu bilan islomni qabul qilgan Qurayshlik pahlavon kim edi?

- a. Tufayl ibn Abu Amr
- b. Rakona ibn Abdu Yazid
- c. Xolid ibn Valid.

**To'g'ri Javob:** Rakona ibn Abdu Yazid

**Izoh:** Quraysh qabilasi ichida Rakona ibn Abdu Yazid nomlik bir pahlavon yigit bor edi. Kurash maydonida otog'i chiqqan, yonboshi yerga tegmagan edi. Bir kun xoli bir ko'chadan o'tib borayotganida, Payg'ambarimiz aning oldidan chiqib:

— Ey Rakona, Xudodin qo'rqgil, mening nasihatimni qabul qilib, Islom diniga kirgil, — dedilar.

Anda Rakona:

— Ey Muhammad, sening kelturgan bu dining haqligini qaydin bilurman? Uning haqligiga biror belgi ko'rsatsang, qabul qilayin, — dedi. Anda Rasululloh:

— Sening pahlavonligingga so'z yo'qdur. Kuch-quvvatda barchadin o'zingni ustun chog'larsan. Qo'pgil (tur), ikkovimiz bu yerda kurashaylik. Agar seni yiqar bo'lsam, mening haq payg'ambarligimga ishonib, iymon keltururmisani? — dedilar. Ul ham roziligini bildirib, tura kelib kurashga tutindi. Muborak qo'llari tekkan hamon butun kuchidin ajradi, ikki bukib, ani yerga urdilar. Bu ishga Rakona hayron qolib, qaytadin kurashmoqni talab qildi. Bu qatimda esa, burungidin og'irroq holga qoldi. (Tarixi Muhammadiy)

## 14. Abu Bakr (r.a) ga siddiq unvoni nimaga berilgan?

- a) Muhammad (s.a.v) merojga chiqqanlarini tasdiqlaganlari uchun
- b) Muhammad (s.a.v) paygambarliklarini tasdiqlaganlari uchun
- c) Muhammad (s.a.v) qilgan hizmatlari uchun.

**To'g'ri Javob:** Muhammad (s.a.v) merojga chiqqanlarini tasdiqlaganlari uchun

**Izoh:** Rasululloh alayhissalom ul janobning rostgo'yliklari, omonatdorliklari hamda Isro va Me'roj hodisasini eng birinchi bo'lib tasdiqlaganliklari uchun Siddiq deb nom qo'ygan edilar.

Ya'ni, Rasulu akrom hazratlari janobni rostgo'ylarning rostgo'yrog'i degan yuksak sifat bilan oliy maqom darajasiga ko'targandilar. (Xulafoi roshidiyn)

**15. Habashistonga qilingan birinchi hijratda kim bu jamoaga boshliq etib tayinlangan edi?**

- a) Usmon ibn Maz'un
- b) Ja'far ibn Abu Tolib
- c) Zubayr ibn Avvom.

**To'g'ri Javob:** Usmon ibn Maz'un

**Izoh:** Vaziyat keskinlashib, musulmonlarning hayoti xavf ostida qolgani uchun rasulullohning ko'rsatmasiga binoan bir qism odam diniy ta'limotni asrash niyatida uy-joy, mol-mulkini tashlab, yurtini tark etishga qaror qildi. Bu islom tarixidagi dastlabki hijrat edi. Muhajirlardan o'n kishi erkak va beshovlon ayol bo'lib, bular Usmon ibn Affon va uning rafiqasi, rasulullohning qizlari Ruqiyya, Abu Salama ayoli Ummu Salama bilan, Abu Salamaning o'gay birodari Abu Subra ibn Abu Rahm ayoli Ummu Gulsum bilan, Omir ibn Robiya ayoli Laylo bilan, Abu Xuzayfa ibn Utba ibn Robiya ayoli Suhaylning qizi Sahla bilan, Abdurahmon ibn Avf, Usmon ibn Maz'un, Mus'ab ibn Umayr, Suhayl ibn Bayzo, Zubayir ibn Avvomlar edi. Ibn Hishomning rivoyat qilishicha, Usmon ibn Maz'un ularga boshliq etib tayinlandi. (Nurul-yaqin)

**16. Habashistonga qilingan birinchi hijratda quyidagi kishilardan qaysi birlari ishtirok etmagan?**

- a) Abu Subra ibn Abu Rahm, Omir ibn Robiya
- b) Mus'ab ibn Umayr, Abdurahmon ibn Avf
- c) Abdulloh ibn Mas'ud, Ubaydulloh ibn Jahsh

**To'g'ri Javob:** Abdulloh ibn Mas'ud, Ubaydulloh ibn Jahsh

**Izoh:** Vaziyat keskinlashib, musulmonlarning hayoti xavf ostida qolgani uchun rasulullohning ko'rsatmasiga binoan bir qism odam diniy ta'limotni asrash niyatida uy-joy, mol-mulkini tashlab, yurtini tark etishga qaror qildi. Bu islom tarixidagi dastlabki hijrat edi. Muhajirlardan o'n kishi erkak va beshovlon ayol bo'lib, bular Usmon ibn Affon va uning rafiqasi, rasulullohning qizlari Ruqiyya, Abu Salama ayoli Ummu Salama bilan, Abu Salamaning o'gay birodari Abu Subra ibn Abu Rahm ayoli Ummu Gulsum bilan, Omir ibn Robiya ayoli Laylo bilan, Abu Xuzayfa ibn Utba ibn Robiya ayoli Suhaylning qizi Sahla bilan, Abdurahmon ibn Avf, Usmon ibn Maz'un, Mus'ab ibn Umayr, Suhayl ibn Bayzo, Zubayir ibn Avvomlar edi. Ibn Hishomning rivoyat qilishicha, Usmon ibn Maz'un ularga boshliq etib tayinlandi. (Nurul-yaqin)

**17. Kim islomga kirgach, musulmonlar kuchayib, o'zlariga ishonch paydo bo'lgan va uning talabiga binoan nomozni masjidida o'qiy boshlashgan?**

- a) Umar ibn Xattob
- b) Hamza ibn Abdulmuttalib
- c) Tufayl ibn Amr

**To'g'ri Javob:** Umar ibn Xattob

**Izoh:** "Sahih-ul-Buxoriy"da rivoyat qilinishicha, Umar islomga kirgach, musulmonlar kuchayib, o'zlariga ishonch paydo bo'lgan va uning talabiga binoan nomozni masjidida o'qiy boshlashdi. ("Ash'arai mubashshara va Payg'ambarimiz SAV", "Nurul-yaqin")

**18. U johilyat davrida ruhiy kasal odamlarni, nopok mavjudotlar ta'siridagi kasal odamlarni davolar edi. O'sha davrda Makkaning johil odamlari Rasululloh SAVni ruhiy kasal deb ayblar edilar. Shunda u Muhammad SAV oldilariga kelib, u zotni davolamoqchi ekanligini bildiradi. Rasululloh SAV unga kalima bilan da'vat qiladilar va o'sha zahoti u islomni qabul qiladilar. Bu sahoba kim?**

- a) Damod r.a.
- b) Abu Subra r.a.
- c) Suhayl ibn Yabzo r.a.

**To'g'ri Javob:** Damod r.a.

**Izoh:** Damod r.a. johilyat davrida ruhiy kasal odamlarni, nopok mavjudotlar ta'siridagi kasal odamlarni davolar edi. O'sha davrda Makkaning johil odamlari Rasululloh SAVni ruhiy kasal deb ayblar edilar. Shunda u Muhammad SAV oldilariga kelib, u zotni davolamoqchi ekanligini bildiradi. Rasululloh SAV unga kalima bilan da'vat qiladilar va o'sha zahoti hz. Damod islomni qabul qiladilar. (Muhammad Yusuf Kandehlaviy, Hayatus Sahaba)

**19. "Sizlar Muhammaddan bolalik chog'idayoq xursand edinglar, u orangizdagi eng rostgo'y, eng ishonchli kishi edi, Voyaga yetib, payg'ambar bo'lganda uni sehrgarga chiqardinglar. Ollohning nomi bilan qasamyod qilamanki, u aslo sehrgar emas". Garchi o'zi ashaddiy dushman bo'lsa-da, payg'ambarimizning nubuvvatdan oldingi fazilatlariga tan berib, yuqoridagi gaplarni aytgan inson kim edi?**

- a) Nazr ibn Xoris
- b) Utba ibn Robia
- c) Zuhayr ibn Abu Umayya

**To'g'ri Javob:** Nazr ibn Xoris

**Izoh:** Hatto Abdudod jamoasidan bo'lmish rasulullohning ashaddiy dushmani Nazr ibn Horis ham u kishidagi fazilatlariga tan berib, Ukoz bozorida o'tgan bir yig'inda: "Sizlar (qurayshlarni aytmoqchi) Muhammaddan bolalik chog'idayoq xursand edinglar, u orangizdagi eng rostgo'y, eng ishonchli kishi edi, Voyaga yetib, payg'ambar bo'lganda uni sehrgarga chiqardinglar. Ollohning nomi bilan qasamyod qilamanki, u aslo sehrgar emas", degan. (Nurul-Yaqiyn)

**20. Payg'ambarlik da'vosini qilgan kishiga shu uch narsadan savol beringlar, buni payg'ambardan boshqa hech kim bilmaydi. Madinadagi yahud ulamolari aytgan so'z qaysi qatorda to'g'ri berilgan?**

- a) Hizr alayhissalom va Muso qissasi, Ya'juj va Ma'juj, inson ruhi haqida
- b) Ashobi Kahf qissalari, Butun olam atrofini aylangan bir odam, inson ruhining haqiqati
- c) Luqmon hakim, Zulqarnayn qissasi, G'or egalari qissasi.

**To'g'ri Javob:** Ashobi Kahf qissalari, Butun olam atrofini aylangan bir odam, inson ruhining haqiqati

**Izoh:** — Andog' bo'lsa, ul payg'ambarlik da'vosini qilgan kishiga shu uch narsadan savol beringlar, buni payg'ambardin boshqa hech kim bilmaydi.

1. O'tmish zamondagi Ashobi Kahf qissalaridin so'ranglar.
2. «Butun olam atrofini aylangan bir odam o'tgan, u kim?» deb so'ranglar.
3. Inson ruhining haqiqati nimadur?

Agar shu uch savolga haqiqati ila javob bera olsa, bilinglarkim, u kishi payg'ambardur. Anda u odamga iymon keltirib, ko'rsatgan yo'liga kirish kerak, agar bu savollarga javob bera olmasa, ul chog'da uning yolg'onchiligi ma'lum bo'lib, o'zi jazoga loyiqdur, dedilar. (Tarixi Muhammadiy)

## 5-tur javoblari

### Mavzu: Tahorat hukmlari (Hanafiy mazhabida)

#### 1. Sha'riati Islomiyada amallar savob yoki gunoh bo'lishi bilan fiqhiy istilohga ko'ra nechaga bo'linadi? Quyidagilardan to'g'risini belgilang.

- a) Bechta: Farz, vojib, sunnat, harom, muboh.
- b) Oltita: Farz, sunnat, vojib, harom, makruhi tahrimiy, muboh.
- c) Yettita: Farz, vojib, sunnat, harom, makruhi tahrimiy, makruhi tanziliy, muboh.

**To'g'ri Javob:** Yettita: Farz, vojib, sunnat, harom, makruhi tahrimiy, makruhi tanziliy, muboh.

**Izoh:** Shariati islomiyada amallar savob yoki gunoh bo'lish e'tibori bilan fiqhiy istilohga ko'ra, yetti navga bo'linadi:

- 1. Farz;
- 2. Vojib;
- 3. Sunnat;
- 4. Harom;
- 5. Makruh tahrimiy;
- 6. Makruh tanzihiy;
- 7. Muboh. ("Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari")

#### 2. Sunnat necha xil bo'ladi? Quyidagi qatorlardan to'g'risini belgilang.

- a) 1 xil, Sunnati muakkada.
- b) 2 xil, Sunnati muakkada, sunnati mashru'a.
- c) 3 xil, sunnati muakkada, sunnati mashru'a, sunnati zoida.

**To'g'ri Javob:** 3 xil, sunnati muakkada, sunnati mashru'a, sunnati zoida.

**Izoh:** Sunnat - bajarishlik qat'iy suratda talab qilinmagan amalga sunnat, deyiladi. Sunnat fiqhiy istilohda mandub, mustahab, odob kabi so'zlar bilan ham ishlatiladi.

Sunnatning turlari uchga bo'linadi:

- 1. Takidlangan sunnat (sunnati muakkada);
- 2. Odatiy sunnat (sunnati mashru'a);
- 3. Zoida sunnat (sunnati zoida).

Sunnati muakkadaga misvok ishlatish, jamoat bilan namoz o'qish, sunnati ravotiblarni o'qish kabilar kiradi.

Sunnati muakkadaning hukmi vojibdan keyingi o'rinda turadi.

Odatiy sunnatlarga Payg'ambarimiz (s.a.v.) odatda qilib yurgan, lekin boshqalarga qilishlikni ta'kidlamagan sunnatlar kiradi.

Ramazondan boshqa paytlardagi tutiladigan ixtiyoriy ro'zalar, farz va sunnati muakkada namozlaridan boshqa ixtiyoriy namozlar, Zuxo namozi, Asr va Xufton namozidan oldingi to'rt rikat sunnat namozlari, zulqa'da oyida olti kun ro'za tutishlik, dushanba va payshanba kunlaridagi ro'zalar va hokazolar shular jumlasidandir.

Sunnatga amal qilgan odam savobga erishadi, unga amal qilmagan kishiga esa azob berilmasada, qiyomat kunida malomatga qolish ehtimoli bor. ("Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari", «Hadis va hayot»)

#### 3. Hojatxonaga kirayotgan kishi qaysi duoni o'qishi odabdan hisoblanadi?

- a) "Allohumma inniy a'uzu bika minal xubsi val xobais".
- b) "G'ufronaka, alhamdulillahillaziy azhaba 'annil azaa va 'ofaniy".
- c) "Robbana atina fid dunya hasanata va fil axiroti hasanata va qina azaban nar".

**To'g'ri Javob:** "Allohumma inniy a'uzu bika minal xubsi val xobais".

**Izoh:** Hojatxonaga kirayotgan kishi uchun quyidagilar odob hisoblanadi:

Kirishdan oldin ushbu duoni o'qish:



«Allohumma inniy a'uzu bika minal xubsi val xobais».

(Ma'nosi: «Ey Rabbim, erkak va ayol shaytonning yomonligidan panoh tilayman».) (“Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari”)

#### 4. Tahoratning farzlari nechta va ular qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) 3 ta; yuzni, qo'lni oyoqni yuvish.
- b) 4 ta; yuzni, qo'lni, oqyoqniyuvish va boshqa mash tortish.
- c) 5 ta; yuzni, qo'lni, oyoqni, og'izni yuvish va boshqa mash tortish.

**To'g'ri Javob:** 4 ta; yuzni, qo'lni, oqyoqniyuvish va boshqa mash tortish.

**Izoh:** Tahoratning farzlari to'rtadir:

1. Yuzni bir marta yuvmoqlik. Yuvish, degani suv tegishi lozim bo'lgan o'rinlardan suvni oqizmoqlikdir. Yuzning chegarasi uzunasiga soch chiqqan joidan jag'ning ostigacha, kengligi esa ikki quloq yumshog'ining orasigacha bo'lgan o'rindir.
  2. Ikki qo'lni tirsaklari bilan qo'shib bir marta yuvishlik.
  3. Boshning to'rtidan biriga bir marta mashtortish.
  4. Ikki oyoqni ham oshig'i bilan qo'shib bir marta yuvishlik. Oyoqning oshig'i qadamdan yuqorida, to'piqdan pastdagi bo'rtib ko'rinib turgan suyakdir.
- Tahorat qiladigan kishi agar tirnoqlari uzun bo'lsa, uning ostiga suv yetkazishi va yana ko'zi atrofiga yig'ilib qoladigan kirlarni olib, ostiga suv tekkizishi ham shartdir. (“Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari”)

#### 5. Tahoratning farzlari qaysi oyatlarda keltirilgan?

- a) “Moida”, 6-oyat.
- b) “Tavba”, 15-oyat.
- c) “Haj”, 8-oyat.

**To'g'ri Javob:** “Moida”, 6-oyat.

**Izoh:** Alloh taolo: «Ey iymon keltirganlar, namozga tursanglar, yuzinglarni yuvinglar va qo'linglarni tirsagigacha (qo'shib) yuvinglar va boshinglarga mash tortinglar va oyog'inglarni to'pig'igacha (qo'shib) yuvinglar», deb aytgan (Moida surasi, 6-oyat).

#### 6. «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hojatxonaga kirdilar, men u kishiga tahorat uchun suv keltirib qo'ydim. Janob Rasululloh (chiqib): «Kim qo'ydi buni?» — dedilar. Rasulullohga (... , deb) aytishdi. Rasululloh: «Ilohi, uni din bilimdoni qilgaysan!»—deb duo qildilar. Savol: tahoratga suv keltirgani uchun Rasulullohning duolariga sabachi bo'lgan bu mashhur sahoba kim?

- a) Abdulloh ibn Umar
- b) Abdulloh ibn Abbos
- c) Abdulloh ibn Mas'ud

**To'g'ri Javob:** Abdulloh ibn Abbos

**Izoh:** Ibn Abbos raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hojatxonaga kirdilar, men u kishiga tahorat uchun suv keltirib qo'ydim. Janob Rasululloh (chiqib): «Kim qo'ydi buni?» — dedilar. Rasulullohga (ibn Abbos, deb) aytishdi. Rasululloh: «Ilohi, uni din bilimdoni qilgaysan!»—deb duo qildilar. (Al-Jome' as-sahih, “Tahorat kitobi”, 10-bob)

#### 7. “Boshning hammasiga bir marta mash tortish” tahoratning qanday hukmi hisoblanadi?

- a) Tahoratning odobi
- b) Tahoratning farzi
- c) Tahoratning sunnati

**To'g'ri Javob:** Tahoratning sunnati

**Izoh:** Ma'lumki, boshning to'rtidan biriga bir marta mash tortish tahoratning farzi hisoblanadi. Bu hukm Qur'oni Karim Moida surasining 6 oyati bilan isbotini topgan. Demak, to'rtidan biriga

bir marta mash tortish farz hisoblanadi. Boshning hammasiga bir marta mash tortish esa, hadisi sharifda keltirilgani bois sunnat hisoblanadi. Hadisi sharif: Anas ibn Molik (r.a.) uch martadan yuvib tahorat qildilar, boshlariga bir marta mash tortdilar va aytdilarki: “Bu Rasululloh (s.a.v.) ning tahoratlaridir”. (Burhoniddin al-Marg‘inoniy, “Hidoya”)

#### **8. G‘usl vojib bo‘lgan kishi Qur‘oni Karim oyatlarini yoddan o‘qishi joizmi?**

- a) Tahoratsiz kishi kabi mushafga qaramasdan yoddan o‘qishi joiz
- b) Harom
- c) Makruh

**To‘g‘ri Javob:** Harom

**Izoh:** Kichik tahoratsizlik holatidagi kishiga mumkin bo‘lmagan amallar katta tahoratsizlik holatidagi kishiga ham bajarish man etiladi. Shu bilan birga g‘usl vojib bo‘lgan kishiga Quroni karimni xoh yoddan bo‘lsin, xoh qarab o‘qishlik hamda masjidga kirishligi ham harom hisoblanadi. (“Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari”)

#### **9. Quyidagilardan qaysi biri tahoratdagi sunnat amallarga kirmaydi?**

- a) Tahoratni «Bismillah...» bilan boshlamoq, tahoratni misvok ishlatish bilan boshlamoq, burniga ham uch marta suv olib qoqmoq.
- b) Tahorat chog‘i duoda bo‘lish, liboslarga suv sachramasligi uchun balandda turish, qiblaga qarab o‘tirmoq
- c) Boshga mash tortganda peshonadan boshlamoq, qo‘lni yuvmoq, qo‘l va oyoqni yuvganda panja uchidan boshlamoq.

**To‘g‘ri Javob:** Tahorat chog‘i duoda bo‘lish, liboslarga suv sachramasligi uchun balandda turish, qiblaga qarab o‘tirmoq

**Izoh:** Tahoratdagi sunnat amallar:

1. «Bismillahir rohmanir rohim», deb boshlamoq.
2. Tahorat qilishni dilga tugmoq.
3. Qo‘lni yuvmoq.
4. Tishni misvok yoki qo‘l bilan yuvmoq.
5. O‘ng qo‘lga uch marta suv olib og‘iz chaymoq.
6. O‘ng qo‘lga uch marta suv olib burunni yuvmoq.
7. Qosh, mo‘ylov va lab ostiga suv yetkazmoq.
8. Soqol oralariga panja urib ishqalamoq.
9. Oyoq panjalariga qo‘l panjalari bilan suv yetkazib chog‘ishtirmoq.
10. Yuz, qo‘l va oyoqni uch martadan yuvmoq.
11. O‘ng qo‘lni chap qo‘ldan, o‘ng oyoqni chap oyoqdan ilgari yuvmoq.
12. Boshga mash tortganda peshonadan boshlamoq.
13. Boshning sochli joyining hammasini ho‘llamoq.
14. Ko‘rsatkich barmoq bilan quloq ichiga mash tortmoq, bosh barmoq bilan esa quloq tashqarisiga mash tortmoq.
15. Ikki qo‘lning ort tarafi bilan gardanga mash tortmoq.
16. Tahoratning barcha farzlarini o‘rniga qo‘ymoq.
17. Tahorat orasida boshqa amallar bilan mashg‘ul bo‘lmaslik.
18. Qo‘l va oyoqni yuvganda panja uchidan boshlamoq.

Tahorat qilishda besh ish mustahabdir: liboslarga suv sachramasligi uchun balandda turish; qiblaga qarab o‘tirish; tahorat suvini o‘zi hozirlash; tahorat chog‘i duoda bo‘lish; tahorat chog‘i tobe‘ va sertavoze‘ turish. (“Ibodati Islomiya”)

#### **10. Quyidagilardan qaysi biri tahoratning makruh amallariga kirmaydi?**

- a) Suvni yuzga zarb bilan urish, suvni o‘ta kam ishlatishlik, suvni isrof qilish.
- b) Najosatli o‘rinlarda tahorat olish, Tahorat asnosida zaruratsiz gaplashish, ro‘zador odamning burniga va og‘ziga suvni qattiq tortishi.

c) Yomg'ir suvida tahorat olish, tahorat tartibini buzish, ya'ni avval yuzni, so'ng qo'lni yuvish.  
**To'g'ri Javob:** Yomg'ir suvida tahorat olish, tahorat tartibini buzish, ya'ni avval yuzni, so'ng qo'lni yuvish.

**Izoh:** Quyidagi ishlar tahoratda makruhi tanzihiy hisoblanadi:

1. Suvni isrof qilish.
2. Suvni o'ta kam ishlatishlik.
3. Suvni yuzga zarb bilan urish.
4. Ro'zador odamning burniga va og'ziga suvni qattiq tortishi ham makruhdir. Chunki bunda ro'zaning ochilib ketish xavfi bor.
5. Najosatli o'rinlarda tahorat olish.
6. Tahorat asnosida zaruratsiz gaplashish.
7. Burunga, og'izga suv olish va niyatga o'xshagan ta'kidlangan sunnatlarni tark qilishlik ham makruhdir. ("Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari")

**11. «Alhamdu lillahillazi ja'alal maa tahuran val islama nuran» (Ma'nosi: «Suvni ham, Islom dinini ham poklik manbai qilib yaratgan Allohga hamd bo'lsin») duosi tahoratning qaysi rukni bajarilayotganda aytiladi?**

- a) Ikki qo'l yuvilayotganda
- b) Og'iz chayilayotganda
- c) Yuz yuvilayotganda

**To'g'ri Javob:** Ikki qo'l yuvilayotganda

–**Izoh:** Tahorat boshlanib, ikki qo'l yuvilayotganda ushbu duo o'qiladi:

«Alhamdu lillahillazi ja'alal maa tahuran val islama nuran».

Ma'nosi: «Suvni ham, Islom dinini ham poklik manbai qilib yaratgan Allohga hamd bo'lsin». ("Ibodati Islomiya")

**12. Burunga suv tortilayotganda qaysi duo o'qiladi?**

- a) «Allohumma arihni roihatal jannati va la turihni roihatan-nari».
- b) «Allohumma bayyiz vajhi bi nurika yavma tabyazzu vujuhu ulaika va la tusavvid vajhi yavma tasvaddu vujuhu a'doik».
- c) «Allohumma la tu'tini kitabi bishimali va la min varoi zohri va la tuhosibni hisaban shadidan».

**To'g'ri Javob:** «Allohumma arihni roihatal jannati va la turihni roihatan-nari».

**Izoh:** Burunga suv tortilayotganda ushbu duo o'qiladi:

«Allohumma arihni roihatal jannati va la turihni roihatan-nari».

Ma'nosi: «Ilohim, jannat hididan bahramand et, do'zax isidan nari tut». ("Ibodati Islomiya")

**13. Tahoratsiz kishiga harom bo'lmagan amallarni belgilang.**

- a) Nafl namoz o'qishi, sajda tilovatini bajarish.
- b) Baytullohni tavof qilish, Qur'on g'ilofini ushlash.
- c) Tobutni ko'tarish, masjidga kirish.

**To'g'ri Javob:** Tobutni ko'tarish, masjidga kirish.

**Izoh:** Tahoratsiz kishiga harom bo'lgan narsalar:

1. Tahoratsiz kishi xoh nafl bo'lsin, xoh farz bo'lsin, namoz o'qishi haromdir.
2. Janoza namozini ham betahorat o'qish haromdir.
3. Sajda tilovatini betahorat bajarmoqlik ham haromdir. Chunki sajdada namoz ma'nosi bor.
4. Tahoratsiz Baytullohni tavof qilish man etiladi. Bunga tavofning farz yoki nafl bo'lishining farqi yo'q. Chunki tavof ham namozdir. Faqat unda gaplashishlik muboh qilingandir. Agar bir kishi Baytullohni tahoratsiz tavof qilsa, o'zi gunohkor bo'lsa ham, tavofi durust bo'ladi. Chunki tavof uchun tahoratli bo'lish shart qilinmaydi, balki u vojibdir.

5. Tahoratsiz kishining Qur'on kitobining hammasini yoki ba'zisini, agar bir oyat bo'lsa ham, ushlashi durust emas. Ammo Qur'on kitobining ustida undan ajragan g'ilofi bo'lsa, ushlash mumkin bo'ladi. ("Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari")

#### 14. Qanday suvlarda tahorat olish mumkin emas?

- daraxt, meva, ko'katlardan siqib olingan suvda, tahorat ustiga tahorat olish uchun) ishlatilgan suvda
- To'xtab turishi bilan biroz o'zgargan hovuz suvida, yomg'ir suvida
- Baliq va hasharotlar o'lib qolgan suvda, dengiz suvida.

**To'g'ri Javob:** daraxt, meva, ko'katlardan siqib olingan suvda, tahorat ustiga tahorat olish uchun) ishlatilgan suvda

**Izoh:** Yer va osmondan chiqadigan suvlarning hamma turi bilan tahorat olsa bo'ladi. Agar hovuzdagi suv to'xtab turishi bilan biroz o'zgargan bo'lsa yoki unga toza narsalar, masalan, tol bargi, cho'p aralashuvi bilan o'zgarsa ham, u bilan tahorat olinaveradi. Shuningdek, suvda tug'ilib-o'lgan yoki oquvchi qoni yo'q hayvon yoki hasharotlar (baliq, pashsha, chivin va boshqalar)ning jasadi suvni iflos qilmaydi.

Ammo pok narsa suvga tushib, suvni suvlik tabiatidan chiqarib yuborsa yoki toza narsani aralashtirib qaynatish bilan uni boshqa narsaga aylantirsa (masalan, go'sht suvga solib qaynatilsa), unday suv bilan tahorat olib bo'lmaydi.

Quyidagi suvlar bilan tahorat olish mumkin emas:

- najasot tushgan idishdagi va hajmi 10x10 metrdan oz bo'lgan hovuzdagi suvda;
- daraxt, meva, ko'katlardan siqib olingan suvda;
- qurbat hosil qilish uchun (savob umidida tahorat ustiga tahorat olish uchun) ishlatilgan suvda;
- ifloslikni ketkazish uchun ishlatilgan suvda. ("Muxtasari viqoya")

#### 15. Tahoratga ishlatilgan suvdan idish yuvish yoki boshqa maqsadda foydalanish mumkinmi?

- Joiz
- Joiz emas.
- Rangi o'zgarmagan bo'lsa joiz.

**To'g'ri Javob:** Joiz emas.

**Izoh:** Mazhabimiz mujtahidlaridan Imom Abu Yusuf rahmatullohi alayh: "Ishlatilgan suv najasdir, chunki u bilan badandagi nopoklik tozalangan. Nopoklikni ketkazish uchun ishlatilgan suv nopok bo'lib qoladi. Ishlatilgan suv kiyimning to'rtidan biridan ko'p qismiga tegsa, u bilan namoz o'qib bo'lmaydi", deydilar. Imomi A'zam rahmatullohi alayh: "Ishlatilgan suv kiyimning kaft kengligidan (ochiq kaftda suv turadigan joydan) ko'p qismiga tegsa, u bilan namoz o'qish mumkin emas", deganlar. Imom Muhammad rahmatullohi alayh: "Ishlatilgan suv toza, ammo tozalamaydi, ya'ni uni qayta tahoratga ishlatib bo'lmaydi. Zero, kishi a'zolari tozadir, biroq tahorat olmay namoz o'qish, qo'lni yuvmay taom yeyish mumkin emas. Ularga qo'yilgan bu taqiqtahorat olganda yo qo'lni yuvganda suvga o'tadi va suvning sifati yuvilmagan a'zo sifati kabi bo'lib qoladi. Shuning uchun ishlatilgan suv toza, ammo tozalovchi emasdir", deydilar.

Muhaqqiq ulamolar Imom Muhammad rahmatullohi alayhso'zlarini ixtiyor qilishgan va unga fatvo berishgan. Demak, ishlatilgan suv toza, ammo tozalovchi emas. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, ishlatilgan suv kiyimga tegsa, uni harom qilmaydi. Uni toza deyishdan murod shu. Biroq ishlatilgan suvni ichish yo taomga ishlatish mumkin emas. ("Raddul Muxtor")

#### 16. Sahih manbalarga ko'ra Rasululloh SAV tahorat uchun qancha suv sarflardilar?

- 1 mud (taxminan 1 litr)
- 1,5 mud (taxminan 1,5 litr)
- Yarim so' (taxminan 2 litr)

**To'g'ri Javob:** 1 mud (taxminan 1 litr)

**Izoh:** Ibn Jabrga Anas bunday degan ekanlar: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam g‘uslga bir so‘dan (taxminan 4 litrdan) 5 mudgacha (taxminan 5 litrgacha) suv ishlatar edilar, 1 mud suv bilan tahorat olar edilar». (“Sahihi Buxoriy”, Tahorat kitobi, 49-bob)

### **17. Tahoratda yuviladigan a‘zolarida yara yoki kasallik bo‘lganida qanday tahorat olinadi?**

- a) Issiq suv bilan yuviladi.
- b) Jarohat ustiga mash tortiladi.
- c) Tayammum qilinadi.
- d) Qanday vaziyatdaligiga ko‘ra yuqoridagi barcha javoblar javoblar mos tushishi mumkin.

**To‘g‘ri Javob:** Qanday vaziyatdaligiga ko‘ra yuqoridagi barcha javoblar javoblar mos tushishi mumkin.

**Izoh:** Tahoratda yuviladigan a‘zolarining birida yara yoki kasallik bo‘lganida issiq suv bilan yuvish ham kishining sog‘ligiga zararli bo‘lsa, yuvilmaydi, balki ho‘l qo‘l bilan ustiga mash tortiladi. Agar mash tortish ham zarar yetkazadigan bo‘lsa, bu amal ham tark etiladi. Agar bunday kasallik tahoratda (g‘uslda) yuviladigan a‘zolarining ko‘p qismini qamrab olgan bo‘lsa, tahorat yoki g‘usl o‘rniga tayammum qilinadi. (“Dinda savolim bor”, 1-kitob)

### **18. Quyidagi qaysi holatda tahorat ketadi?**

- a) Chivin yoki burganing badandan qon so‘rishi.
- b) Badandan yiring yoki qon sal chiqib oqsa.
- c) Og‘izdan qusuqsiz kelgan qon og‘iz suvini sarg‘aytirsas.

**To‘g‘ri Javob:** Badandan yiring yoki qon sal chiqib oqsa.

**Izoh:** Badandan qon va yiring chiqib, joyidan sal oqsa, tahorat singan bo‘ladi. Chiqqan joyida turib qolsa, ya‘ni oqmasa, tahorati sinmaydi. Burundan kelgan qon sirtga chiqmasa ham, ichida ko‘rinishining o‘zi tahoratni sindiradi.

Qusuq ham og‘izni to‘ldirsas, tahoratni buzadi. Qusuqning gapirishga mone‘ miqdori og‘iz to‘lishi hisoblanadi. Ammo Imom Zufar: «Qusuqning ozi ham, ko‘pi ham tahoratni sindiradi», deyдилar. Agar kishi bir yerda va bir sababdan oz-ozdan qussa va ularni to‘plaganda og‘iz to‘ladigan darajada bo‘lsa, tahorat buziladi. Ammo bir necha joyda va turli sabab bilan oz-ozdan qussa, tahorat buzilmaydi. Lekin shu holda ham qayta tahorat olinsa, ehtiyot nuqtai nazaridan yakun bo‘ladi.

Agar qusuqqa qon aralashgan bo‘lsa, uning ozginasi ham tahoratni sindiradi. Og‘izdan qusuqsiz kelgan qon og‘izning suvini qizartirsas, tahorat ketadi, sarg‘aytirsas, tahorat sinmaydi.

Chivin yoki burgalar badandan qancha to‘yib qon so‘rsa ham, tahorat sinmaydi. Lekin katta kana to‘yib so‘rsa, qayta tahorat olish kerak bo‘ladi. (“Dinda savolim bor”, 3-kitob)

### **19. Daraxtlardan yoki daraxt mevalaridan siqib olingan suvga tahorat olish joizmi?**

- a) Joiz
- b) Joiz emas
- c) Makruh

**To‘g‘ri Javob:** Joiz emas

**Izoh:** Daraxtlardan yoki daraxt mevalaridan siqib olingan suv haqiqiy suv emas. Suv topilmagan holda kishi tayammum qiladi, lekin yuviladigan a‘zolarini yuvishlik taabbudiy (Alloh buyurgan) vazifadir, shuning uchun nassdagidan boshqasiga o‘tmaydi. Ammo tok tanasidan tomib turgan suvga tahorat olish joiz, chunki uning suvi siqilmasa ham o‘zi chiqadi. (Burhoniddin al-Marg‘inoniy, “Hidoya”)

### **20. Yosh bola namozda kulsa, tahorati ketadimi?**

- a) Ketmaydi.
- b) Ketadi, tezda tahorat olishi lozim bo‘ladi.
- c) Baland ovozda kulsa ketadi, past ovozda kulsa, ketmaydi.

**To‘g‘ri Javob:** Ketmaydi.

**Izoh:** Yosh bolaning kulgisi tahoratini ham, namozini ham buzmaydi. Kulgi uch xil bo‘ladi: ovoz chiqarib kulish. Bu tahoratni ham, namozni ham buzadi. Ulamolar: «Kimki namozdan tashqarida ham qahqaha urib kulsa, qayta tahorat qilishi mustahab», deganlar. Kishi kulgisini o‘zi eshitib, yonidagi eshitmasa, namozi buziladi, ammo tahorati ketmaydi. Tabassum namozni ham, tahoratni ham buzmaydi. (“Dinda savolim bor”, 3-kitob)

## 6-tur javoblari

**Mavzu: Islom tarixida huzun yili. Toifga hijrat. Isro va me'roj**

### **1. Nima sababdan Islom tarixida "Sanatul Huzun" (Qayg'u yili) deb olgan yil bo'lgan?**

- a) Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'g'illari Ibrohimdan ayriladilar.
- b) Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ikki qizlari Ruqiya va Ummu Gulsumdan ayriladilar
- c) Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Xadicha onamiz va amakilaridan ayriladilar

**To'g'ri Javob:** Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Xadicha onamiz va amakilaridan ayriladilar

**Izoh:** Payg'ambarlik davrining o'ninchi yilida, hijratdin uch yil ilgari Makka shahrida onamiz Xadicha vafot topdilar. . Bu musibat ustiga butun dushmanlariga haybat ko'rsatib turgan amakilari Abu Tolibning vafot qilishi Payg'ambarimizga qattiq ta'sir qildi. Bu mehribon yordamchilaridin birdaniga ajralganlari uchun ortiqcha qayg'urdilar. Shu musibat bo'lgan yilni qayg'u-hasrat yili, deb atadilar. (Tarixi Muhammadiy)

### **2. Islom tarixida "Sanatul-huzun" ("Qayg'u yili") nomini olgan yil Makka davrining nechanchi sanasiga to'g'ri keladi?**

- a) To'qqizinchi
- b) O'ninchi
- c) O'n birinchi

**To'g'ri Javob:** O'ninchi

**Izoh:** Abu Tolib va Xadichaning o'limi Makka davrining o'ninchi yiliga to'g'ri kelgan edi. Islom tarixida bu o'ninchi yilga "Sanatul huzun", "Omul huzun" (huzun yili) deb ataldi.(Payg'ambarimiz va Asharai mubashshara)

### **3. Janobimizning amakilari Abu Tolibning ahvollari yomonlashib, o'limi yaqinlashgan vaqtda yonlarida Rasululloh sallallohu alayhi vassallam bilan yana ikki mushrik bo'lgan. Ular Abu Tolibga "Abdulmuttalibni dinidan yuz o'girasanmi?" deb, shahodat kalimasini aytishdan qaytarishgan. Bu ikki mushrik kim edi?**

- a) Utba ibn Robiya, Abu Jahl.
- b) Abu Jahl, Abdulloh ibn Abu Umayya.
- c) Abu Lahab, Abu Jahl.

**To'g'ri Javob:** Abu Jahl, Abdulloh ibn Abu Umayya.

**Izoh:** Bir necha kundan keyin Abu Jahl bilan Abdulloh ibn Abu Umayya birga yana Abu Tolibni borib ko'rishdi. Ular kasalni yoniga o'tirar ekanlar, ushbi damda Rasululloh sallallohu alayhi vassallam ham kelib qoldilar. Amakilaridan hol-ahvol so'radilar, tasalli berdilar. Narigi tomonga o'tirdilar.

O'tirdilar, ammo jondan aziz amakilarining ahvoli ancha yomonlashganini, o'limga yana bir odim yaqinlashganini sezidilar. nga so'nggi soatlarda ham yaxshilik qilishlari mumkin edi:

- Amakijon, bir marta bo'lsa ham "La ilaha illalloh", deng. Toki men vaqti-soati kelganida, Allohning huzurida bunga guvohlik bera olayin, - dedilar.

Payg'ambar sallallohu alayhi vassallam shunday der ekanlar, Abu Jahl va uning birodari:

- Yo Abu Tolib, Abdulmuttalibni dinidan qaytasanmi? – deb uni qaytarishga urinishdi. ("Saodat asri qissalari" 2-kitob, 83-84 betlar)

### **4. Xadicha roziyallohu anhonning muborak jasadlari qayerga qo'yilgan?**

- a) Hojun qabristoniga.
- b) Baqi' qabristoniga.
- c) Hujrai saodatga.

**To'g'ri Javob:** Hojun qabristoniga.

**Izoh:** Makkaning Hojun qabristoni Hazrati Hadichaning muborak vujudlari ila sharaflandi. (“Saodat asri qissalari” 2-kitob, 91-bet)

**5. Abu Tolib vafotlaridan keyin, Rasululloh sallallohu alayhi vassallamning qaysi amakilari u zot sallallohu alayhi vassallamni o’z himoyasiga olgan?**

- a) Hamza (r.a.)
- b) Abbos (r.a.)
- c) Abu Lahab.

**To’g’ri Javob:** Abu Lahab.

**Izoh:** Rasululloh sallallohu alayhi vassallam bir necha kungacha uylaridan chiqmadilar. Qalblari g’am-g’ussaga to’lgan. Kamiga qurqyshliklar haddan tashqari qutirib ketti.

Bu vaziyat yuragi kin va adovatga to’la Abu Lahabning ham rahmini keltirdi. Bir kuni jiyaning yoniga keldi-da:

- Yo Muhammad, Abu Tolib hayotlik chog’ida qanday yurgan bo’lsang, shunday erkin yuraver. Lotni o’rtaga qo’yib qasam ichamanki, hech kim senga ziyon-zahmat yetkaza olmaydi, - dedi. Shu tariqa Abu Lahab jiyani Muhammad ibn Abdullohni himoyasiga oldi. (“Saodat asri qissalari” 2- kitob, 91-92 betlar)

**6. Xadicha roziyallohu anhoning vafotlaridan keyin Rasululloh sallallohu alayhi vassallam birinchi turmish qurgan “Mo’minlar onasi” kim?**

- a) Savda binti Zam’a (r.anho)
- b) Oysha (r. anho)
- c) Ummu Salama (r. anho)

**To’g’ri Javob:** Savda binti Zam’a (r. anho)

**Izoh:** Usmon ibn Maz’uning xotini Havla bir kuni Rasululloh sallallohu alayhi vassallamni ziyorat etishga keldi va muddaoga ko’chaqoldi:

- Yo Rasululloh, Hadichaning yo’qligi bilinyapti, - dedi.

O’sha kuni u Janobi Payg’ambarimizni (s.a.v.) yana uylanishga rozi qildi. Savda binti Zam’a bilan hazrati Abu Bakrning qizi Oysha ikkialasi nomzod o’laroq ko’rsatdi va ularga sovchilik qilish vazifasini zimmasiga olib, u yerdan chiqdi. Savda yoshi ancha katta, to’ladan kelgan, og’ir-vazmin harakatli bir ayol edi. Eri o’lib, besh-oltita farzandi bilan beva qilgan.

Nabiyyi akramdan (s.a.v.) kelgan taklifni mamnunlik bilan kutib oldi. Shunday qilib, payg’ambarlikning 13-yili ramazon oyida Savda “Mo’minlar onasi” (Ummul mo’minin) bo’lish sharafiga erishdi. (“Saodat asri qissalari”)

**7. Toif safarida Payg’ambarimiz (s.a.v.) ga kim hamrohlik qildi?**

- a) Abu Bakr
- b) Zayd ibn Horisa
- c) Ali ibn Abu Tolib

**To’g’ri Javob:** Zayd ibn Horisa

**Izoh:** Rasuli Akram Islom dinini yoyish maqsadida Hijoz shaharlaridan biri toifga bordilar. Bu safarda u zotga tutingan o’g’illari Zayd ibn Horisa hamrohlik qildi. (Nurul-yaqin, Tarixi Muhammadiy)

**8. Toif shahrida qaysi qabila istiqomat qilardi?**

- a) Banu Saqif
- b) Banu Qurayza
- c) Avs va Xazraj

**To’g’ri Javob:** Banu Saqif

**Izoh:** Makka shahridan 70-80 chaqirim sharq tomonda joylashgan Toif shahrida Banu Saqif qabilasi yashar edi. Makkadagi Quraysh qabilasi kabi toiflik saqifiylar ham butfarast edilar. (Tarixi Muhammadiy, Payg’ambarimiz va Asharai mubashshara).



**9. Rasululloh sallallohu alayhi vassallam Toif voqeasidan qattiq ta'sirlangandilar. Hatto yillar o'tib ham bu safarni unutmadilar va Toif voqeasini musulmonlar uchun achinarli bo'lgan bir voqeadan ham alamli deb aytgandilar. Bu qaysi voqea?**

- a) Uhud jangi.
- b) Xadicha onamizning vafotlari.
- c) Musulmonlarning qiynoqqa solinishi.

**To'g'ri Javob:** Uhud jangi.

**Izoh:** Rasululloh sallallohu alayhi vassallam Toif safarini haqiqatdan ham unutmadilar, unuta olmadilar. Yillar o'tib, suyuqli hotinlari Oysha onamiz (r.a.):

- Yo Rasululloh, Uhud jangidan ko'ra ham achinarli, alamli kun bo'lganmi?! – deb so'raganlarida, Toif voqeasini eslab, u savdolarni bir boshdan gapirib bergan edilar. O'sha kundagidey g'am-g'ussaga cho'mgan boshqa kunni eslay olmasliklarini ta'kidlagan edilar. ("Saodat asri qissalari" 2-kitob, 95-bet.)

**10. Toifdan Makkaga qaytganlarida Janobimiz Rasululloh sallallohu alayhi vassallamni kim o'z himoyasiga olgan?**

- a) Axnas ibn Shariq.
- b) Suxayl ibn Amr.
- c) Mut'im ibn Odiy.

**To'g'ri Javob:** Mut'im ibn Odiy.

**Izoh:** Rasululloh sallallohu alayhi vassallam Makkaga tobora yaqinlashar ekanlar, Hiro tog'ining etaklariga yetganda to'xtadilar. Bu yerdan u yog'iga hotirjam ketish imkoni yo'q, bemalol shaharga kirishga mushriklar yo'l qo'ymasligini juda yaxshi bilar edilar.

Shu payt Huzo'a qabilasidan bir odam uchrab qoldi.

- Menga holis bir xizmat qilmaysanmi? – deb so'radilar Rasululloh sallallohu alayhi vassallam.

- Bajonudil, - dedi yo'lovchi.

- U holda Makkaga borgin-da, Axnas ibn Shariqni top. Muhammad ibn Abdullohni yonidan kelayotirman, "Robbim yuborgan din va payg'ambarlik vazifasini ado etishim davomida meni o'z himoyasiga olarmikan?" deb so'ra.

Yo'lovchi ketdi. Axnasni topib, bor gapni so'zlab berdi. Axnas o'zining boshqa qabiladan ekanligini bahona qilib, uni quruq qaytardi. Yo'lovchi qaytib kelganida Rasululloh sallallohu alayhi vassallam takror iltimos qildilar:

- Yana bir marta bormaysanmi men uchun? – "Mayli" javobini olgach, dedilar – Suxayl ibn Amrni top, o'sha gaplarimni unga bildir.

U yana Makkaga bordi va yana quruq qaytib keldi. Suxayl taklifni rad etgan edi. Haligi odam uchunchu marta ham Makkaga borib kelishga rozi bo'ldi va bu safar Mut'im ibn Odiynikiga bordi. Mut'im bu taklifga rozi bo'ldi.

Tong otganch, Mut'im o'g'illarini olib, barchalari qurollangan holda Hiro tog'i etaklariga keldi va Rasululloh sallallohu alayhi vassallamni boshlab, Makka sari yo'l olishdi. (Saodat asri qissalari)

**11. Rasululloh sallallohu alayhi vassallam Toifga da'vat qilmoqlik niyatida borganlarida Utba va Shayba ibn Robialarning nasroniy quli bo'lgan, Rasululloh sallallohu alayhi vassallamga uzum olib borgan inson kim edi?**

- a) Addos
- b) Suhayb Rumi
- c) Salmoni Forsiy

**To'g'ri Javob:** Addos

**Izoh:** Bu gaplarni eshitib turgan Utba bilan Shaybaning rahmi kelib rasulullohga quli Addosdan bir bosh uzum berib yuborishdi. Payg'ambar alayhis-salom: "Bismillahir rohmanir rohim" deb uzumni yeya boshladilar. Addos: "Bu yurtning odamlari bunday gaplarni aytishmasdi.

Qayerliksan?" — deb so‘radi "Sen o‘zing qayerliksan? Qaysi dinga e‘tiqod qilasan?" — deb so‘radilar rasululloh. "Men Dajla daryosi bo‘yiga joylashgan Ninavay shahridanman. Nasroniy diniga e‘tiqod qilaman", dedi Addos. "Yunus ibn Matto degan yaxshi odamning yurtidan ekansan-da", dedilar sarvari olam. "Sen u kishini qaydan bilasan?" deya qiziqsindi Addos. Rasululloh Qur‘ondagi Yunus qissasini o‘qib berdilar. Bu hikoyatdan qattiq mutaassir bo‘lgan Addos kalima keltirib, musulmon bo‘ldi. (Nurul yaqin)

## **12. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Toifdan chiqib Naxla bog'iga borganlarida kimlar Qur'on tilovatini eshitib islomni qabul qilishdi?**

a) Saqiyf qabilasi

b) G'ifor qabilasi

c) Nasidin degan joydagi jinlar

**Izoh:** Payg'ambarimiz Naxla degan joyga kelganlarida bir guruh jinlar u zotning tilovatiga quloq tutishdi va imon keltirishdi. Ahqof surasining 29-32 oyatlari va Jin surasida bu voqea bayon etilgan. (Nurul yaqin)

## **13. "Me'roj" so'zining ma'nosi nima?**

a) yuqoriga ko'tarilish.

b) kechasi yurgizish.

c) tasalli berish.

**To'g'ri Javob:** Yuqoriga ko'tarilish.

**Izoh:** Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning Masjid ul-Haromdan Masjid ul-Aqsoga qilgan tungi sayrlari Isro va Me'roj qur'on bilan sobit bo'lgan:

«O'z bandasi (Muhammadni), unga mo'jizalarimizdan ko'rsatish uchun tunda, Masjid ul-Haromdan Biz atrofini barakatli qilib qo'ygan Masjid ul-Aqsoga sayr qildirgan zot pokdir. Darhaqiqat u eshituvchi va ko'ruvchidir». (Al-Isro surasi 1-oyat).

U yerdan osmonlarga ko'tarilishlari - Me'rojdir. ("Ahli sunna val-jamoa aqoidi")

## **14. "Isro va Meroj" qaysi oyning qaysi kuniga to'g'ri kelgan?**

a) Rajab oyining 27-kechasiga

b) Ramazon oyining 27-kechasiga

c) Rabiul-avval oyining 15-kechasiga

**To'g'ri Javob:** Rajab oyining 27-kechasiga

**Izoh:** Rajab oyining 27-kechasi Isro va Me'roj kechasidir. Shu kecha payg'ambarimiz sallallohu alayhi va sallam Alloh taoloning qudrati bilan farishtalar yordamida Makkadan Quddusdagi Masjid-ul Aqsoga borganlar. So'ngra Alloh taoloning huzuriga, osmonga ko'tarilib, "Sidratul muntaho"ga yetib bordilar. ("Ahli sunna val-jamoa aqoidi")

## **15. Rasululloh sallallohu alayhi vassallam Me'rojga chiqqanlarida O'ng tomoniga qarasa, kuladi, chap tomoniga qarasa, yig'laydigan bir zot bilan uchrashganlar. U kim edi?**

a) Odam alayhissalom

b) Iso alayhissalom

c) Ibrohim alayhissalom

**To'g'ri Javob:** Odam alayhissalom

**Izoh:** Birinchi osmonga chiqqanimda Jabroil alayhissalom osmonbonga: «Eshikni ochg'il!» — deb aytdilar. U: «Kim bu?»— dedi. «Jabroilman»,— dedilar, Osmonbon: «Sen bilan birga biron kishi bormi?» — dedi. «Ha, men bilan Muhammad alayhissalom bor»,— dedilar Hazrat Jabroil. Osmonbon: «Muhammad alayhissalomning osmonga chiqmog'iga ruxsat bo'ldimi?» — dedi. Jabroil alayhissalom: «Ha»,— dedilar. Eshik ochilgach, birinchi osmon ichkarisiga ko'tarildik. U yerda bir kishi o'tiribdi. Uning o'ng tomonida ham, chap tomonida ham odam gavjum. O'ng tomoniga qarasa, kuladi, chap tomoniga qarasa, yig'laydi. O'sha kishi menga qarab: «Xush kelibsiz, payg'ambar, yaxshi o'g'il!»—dedi. «Bu kishi kim?» — deb so'radim Hazrat Jabroildan.

«Bu —Odam alayhissalom va mana bu o'ng va chap tomonlarida turganlar Odam bolalarining ruhlaridir. Bularndan o'ng tomondagilari jannat ahli va chap tomondagilari do'zax ahlidir. (Shuning uchun ham) Odam alayhissalom o'ng tomonlariga qaraganlarida kuladilar, chap tomonlariga qaraganlarida yig'laydilar»,— dedilar Jabroil alayhissalom. ("Sahihi Buxoriy", Namoz kitobi)

**16. Rasululloh sallallohu alayhi vassallam Me'rojga chiqqanlarida Ikkinchi osmonda ikkita payg'ambar bilan uchrashganlar. Bu payg'ambar alayhissalomlar kimlar?**

- a) Muso va Horun (alayhissalomlar)
- b) Ibrohim va Iso (alayhissalomlar)
- c) Yahyo va Iso (alayhissalomlar).

**To'g'ri Javob:** Yahyo va Iso. (alayhissalomlar)

**Izoh:** . Ul joydin ko'tarilib, ikkinchi osmonga yetdilar. Ul joyda ham yuqoridagidek savol-javoblar bo'ldi. Hazrati Iso, Hazrati Yahyo payg'ambarlarning makonlari shu osmonda edi. Bu zotlar ham qarshi olib, xayr-duoda bo'ldilar. (Tarixi Muhammadiy).

**17. Yettinchi osmondan keyin Rasululloh sallallohu alayhi vassallam qayerga ko'tarilganlar?**

- a) "Sidratul muntaho"ga.
- b) "Baytul ma'mur" ga.
- c) "Arshi A'lo" ga.

**To'g'ri Javob:** "Sidratul muntaho" ga

**Izoh:** Rajab oyining 27-kechasi Isro va Me'roj kechasidir. Shu kecha payg'ambarimiz sallallohu alayhi va sallam Alloh taoloning qudrati bilan farishtalar yordamida Makkadan Quddusdagi Masjid-ul Aqsoga borganlar. So'ngra Alloh taoloning huzuriga, osmonga ko'tarilib, "Sidratul muntaho"ga yetib bordilar.

Sharh. Imom Ahmad Abdulloh ibn Ma'sud raziyallohu anhudan rivoyat qilishlaricha «Sidratul muntaho» yettinchi osmondagi Nilufar ismli daraxt bo'lib, uning shoxlari duru yoqut va zabarjaddlardan iboratdir. Yerdan nimaiki ko'tarilib chiqsa intihosi unga yetadi va yuqoridan nimaiki tushsa, intihosi unga yetadi. Shuning uchun ham «Muntaho» ya'ni, intihosiga borib yetadigan joy deb ataladi. (Ibn Kasir tafsiri III jild).

**18. Me'rojda Rasululloh sallallohu alayhi vassallamga nimalarni xabari berilgan?**

- a) besh vaqt namoz, Islomni kuchayishi, Jannatga birinchi kirishlari.
- b) besh vaqt namoz, Baqara surasining oxirgi oyatlari, ummatlarini mag'firat qilinishi.
- c) Baqara surasining oxiri, besh vaqt namoz, Qiyomat kunida shafloatchi bo'lishlari.

**To'g'ri Javob:** b) besh vaqt namoz, Baqara surasining oxirgi oyatlari, ummatlarini mag'firat qilinishi.

**Izoh:** Rasululloh sallallohu alayhi va sallam Me'roj kechasida Allohning qudratiga dalolat qiladigan alomatlarini, jumladan, Jannat, Do'zax, Baytul Ma'murni, o'tgan payg'ambarlar, farishtalar, Jabroil farishtaning asliy ko'rinishlarini va boshqa narsalarni ko'rdilar. O'sha Me'roj kechasi ummati Muhammadiyaga besh vaqt namoz farz qilindi. Baqara surasining oxirgi ikki oyati va quyidagi 12 ta hukm berildi, ya'ni:

1. Allohga shirk keltirmaslik.
2. Ota-onaga itoat qilish.
3. Qarindosh va muhtojlarga yordam berish.
4. Molni behuda sarf qilmaslik.
5. Bolalarni o'ldirmaslik.
6. Zinoga yaqinlashmaslik.
7. Yetimlarga yaxshi muomalada bo'lish.
8. Nohaq odam o'ldirmaslik.
9. Ahdiga vafo qilish.

10. O'lchovda to'g'ri, adolatli bo'lish.
11. Bilmasdan birovlarining ilmi yoki aytganlariga ergashmaslik.
12. Yer yuzida kibr va g'urur bilan yurmaslik. ("Ahli sunna val-jamoa e'tiqodi")

**19. Quyidagilar orasidan kim o'zi musulmon holida 5 vaqt namoz o'qish baxtiga muassar bo'la olmagan?**

- a) Abu Tolib ibn Abdulmuttalib
- b) Xadicha binti Huvaylid
- c) Hamza ibn Abdulmuttalib

**To'g'ri Javob:** Xadicha binti Huvaylid

**Izoh:** Chunki 5 vaqt namoz Me'roj kechasi farz qilingan. Xadicha (r.a.) esa bu hodisadan ilgari vafot etganlar. (Asharai mubashshara)

**20. 50 vaqt namozni 5 vaqt qilib qisqartirilishiga sababchi bo'lgan payg'ambar?**

- a) Muso (a.s)
- b) Ibrohim (a.s)
- c) Iso (a.s)

**To'g'ri Javob:** Muso (a.s)

**Izoh:** Alloh Taolo Me'roj tunida Rasululloh va ummatlariga 50 vaqt namoz farz etdi.

Qaytishlarida Muso (a.s): "Ey Muhammad, buni ummating ko'tarolmaydi. Qayt, Robbingdan so'ra, buni yengillatsin", deb qaytardilar. Bir necha bor qatnash asnosida 5 vaqt namoz qaror topdi. (Tarixi Muhammadiy, Nurul yaqin)

## 7-tur javoblari

**Mavzu: Rasululloh SAVning boshqa qabilalarni ham Islomga da'vat etishlari. Madinaga hijratning boshlanishi**

**1. Mushriklar Rasululloh s.a.v. ga Oyni 2 ga bo'lishni so'rashadi. Bu bilan ular Rasululloh s.a.v. bu ishni qila olmaydilar deb o'ylab, ul zotni sharmanda qilmoqchi bo'ladilar. Shu taklifni kim aytgan edi?**

- a) Abu Sufyon
- b) Abu Lahab
- c) Abu Jahl

**To'g'ri Javob:** Abu Jahl

**Izoh:** Rasululloh sallalohu alayhi vassallamdan achchiq bir mag'lubiyatga uchragan mushriklar buning alamini qanday olish haqida tinimsiz bosh qotirdilar.

O'sha zahoti turli –tuman mulohazalar yog'ila boshladi.

- Shoshmanglar birodarlar. U shunday bir ish bo'lishi kerakki, undan mushkulroq bir ishni topish mumkin bo'lmasin. O'rniga mana bunday qilsak bo'larkan, deyilmasin.

Bu ham to'g'ri fikr edi. Boshlar egildi. Zehinlar butkul shu muammo bilan band bo'ldi. Kimdir daraxtni yurgizsin, suvni teskari tomonga oqizsin dedi. Lekin bu takliflar ma'qul ko'rilmadi.

Nihoyat Abu Jahl fikr bildirdi:

- Oyni ikkiga bo'lsin: bir bo'lagi bir tepalikning, ikkinchi bo'lagi boshqa tepalikning, ikkinchi bo'lagi boshqa tepalikning ustida charaqlab tursin, so'ngra yana birlashtirib, asl holiga qaytarsin, - dedi.

Bu gap hammaga ma'qul keldi, yuzlarda tabassum balqidi. Hech kim bundan zo'roq taklifni kirita olmas edi. (Saodat asri qissalari 2-kitob, 5 bet)

**2. Oyni 2 ga bo'lish voqeasida Rasululloh s.a.v qaysi sahobalarni shohidlikka chaqiradilar?**

- a) Talha ibn Ubaydulloh, Sa'd ibn Abu Vaqqos
- b) Abu Bakr as-Siddiq, Usmon ibn Affon
- c) Arqam ibn Abdul Arqam, Abu Salama ibn Abul Asad

**To'g'ri Javob:** Arqam ibn Abdul Arqam, Abu Salama ibn Abul Asad

**Izoh:** Oyni bir parchasi Abu Qubays, ikkinchi parchasi qarshi tomondagi Qayqon tepaliklarining ustiga borib turdi. Shunda Payg'ambar sallalohu alayhi vassallam yonlaridagilarga:

- Shohid bo'linglar, - dedilar. Keyin ikki kishiga alohida xitob qildilar: - Ey Abu Salama ibn Abdul Asad, ey Arqam ibn Abdul Arqam, shohid bo'linglar! (Saodat asri qissalari 2-kitob, 9-bet)

**3. Davs qabilasidan bo'lgan bir shoir islomga kiradi va Rasululloh s.a.v dan o'z qabilasini dinga da'vat qilish uchun izn so'rab ketadi. Uning hassasiga Allohning izni ila nur beriladi, bu inson kim edi?**

- a) Labid
- b) Tufayl ibn Amr
- c) Zuhayr

**To'g'ri Javob:** Tufayl ibn Amr

**Izoh:** Davs qabilasining mashhur shoiri Tufayl ibn Amr bir ish bilan Makkaga keldi. Makkada ancha-muncha tanishlari, do'st birodarlari bor edi. Rasululloh sallalohu alayhi vassallam bilan ko'rishdi, dinni qabul qildi, shaxodat kalimasini keltirib, musulmon bo'ldi. Qavmiga ham Islomni tushuntirish niyatini aytdi va Janobimizdan duo qilishlarini va qavmini ishonitirishga qodir bir oyat-alomat berishini so'radi. Rasululloh sallalohu alayhi vassallam:

- Allohim, unga dalil bo'lajak bir oyat –alomat ber, - deb duo qildilar.

Tufayl manzilga yaqinlashib kelganida, birdan seskanib ketti. Oldi birdan yaraqlab ketti.

Avvaliga yuz bergan hodisani tushuna olmadi, so'ngra bu narsa peshonasidan yaraqib turgan bir

nur ekanini payqadi. Yog'du qo'lidagi hassaga tushdi. Oldini bemalol ko'rib turar, hassasini qaysi tomonga o'girsas, o'sha tomon yorishib ketar edi. (Saodat asri qissalari - 2, 35-bet)

#### 4. Madinalik ilk musulmonlar necha kishidan iborat edi?

- a) 6
- b) 8
- c) 10

**To'g'ri Javob:** 6

**Izoh:** Makkalik ilk musulmonlar 8 kishi bo'lgan bo'lsa, Madinalik ilk musulmonlar 6 kishi edilar. Ular: Asa'd ibn Zurora, Rofi' ibn Molik, Avf ibn Horis, Qutba ibn Omir, Uqba ibn Omir, Jobir ibn Abdulloh. (Payg'ambarimiz va Asharai mubashshara)

#### 5. Ilk Aqoba uchrashuvida madinalik 6 kishini islomni qabul qilishlariga nima turtki bo'ldi?

- a) Ular Rasululloh haqida so'rab-surishtirib imonga keldilar
- b) Yahudiy qo'shnilaridan payg'ambar kelishi haqida ko'p eshitar edilar. Ulardan avval iymon keltiraylik, deyishgan edi.
- c) Boshliqlari As'adning ta'siri ostida imonga keldilar

**To'g'ri Javob:** Yahudiy qo'shnilaridan payg'ambar kelishi haqida ko'p eshitar edilar

**Izoh:** Madinada istiqomat qiladigan arab qabilalari va yahudiy qabilalari o'rtasida azaldan kelishmovchilik bor edi. Qachon o'rtalarida bir bahs-munozara chiqsa, yahudiylar: "Yaqinda bir payg'ambar keladi, biz unga ergashib quvvatlanamiz. O'shanda sizlardan boplab o'ch olamiz!" deyishardi. (Payg'ambarimiz va Asharai mubashshara)

#### 6. Birinchi Aqoba bay'atida necha kishi qatnashdi?

- a) 12
- b) 6
- c) 10

**To'g'ri Javob:** 12

**Izoh:** Ikkinchi Aqoba muloqotida Rasululloh (s.a.v.) bilan 12 kishi uchrashdi. Bu uchrashuvda qo'llarini berib bay'at (qasamyod) ham qildilar. Shu sababdan, Ikkinchi Aqoba muloqotiga "Birinchi Aqoba Bay'ati" deyiladi. (Payg'ambarimiz va Asharai mubashshara)

#### 7. Janobimiz Rasululloh sallallohu alayhi vassallam yasribliklarga Qur'oni karimni o'rgatishdek hayrli vazifani qaysi sahobiyga topshirganlar?

- a) Abdulloh ibn Mas'ud (r.a.)
- b) Zayd ibn Xorisa (r.a.)
- c) Mus'ab ibn Umayr (r.a.)

**To'g'ri Javob:** Mus'ab ibn Umayr (r.a.)

**Izoh:** Aqoba baya'tidan keyin, ko'ngillari poklangan yasriblik musulmonlar vatanlariga qaytar ekan:

- Yo, Rasululloh, biz bilan birga biro dam jo'nating, qavmimizga Qur'onni o'rgatsin, - dedilar. Fahri Koinot (sallallohu alayhi vassallam) janoblarning muborak chehralarida mamnunlik izlari ko'rindi. Mus'ab ibn Umayr ushbu vazifaga eng munosib inson edi. Chaqirtirildi, Yasribda Qur'on o'rgatish vazifasiga loyiq topilgani bildirildi. Mus'ab bu vazifani g'oyat mamnunlik bilan qarshiladi. (Saodat asri qissalari, 2-kitob, 119 bet)

#### 8. Madinaliklardan birinchi bo'lib musulmon bo'lgan kishi kim?

- a) Jobr ibn Abdulloh
- b) As'ad ibn Zurora
- c) Avf ibn Xoris

**To'g'ri Javob:** As'ad ibn Zurora

**Izoh:** G'orda o'tgan vaqtning 3-kuni ovqatni Asmo olib keldi. Ammo ovqat solingan xalta bilan meshning og'zini nima bilan bog'lashni bilmay bir oz boshi qotdi. So'ngra hech ikkilanmay belbog'ini yirtib, ikkalasining ham og'zini mahkam bog'ladi. Rasululloh sallalohu alayhi vassallam uni kulimsirab kuzatib turar edilar.

- Unga jannatda ikki belbog' ehson qilinajak,- deb marhamat qildilar. Shu kundan boshlab Asmo "Zotun niqotayn", yani "Ikki belbog'li xonim" deb ataladigan bo'ldi. (Saodat asri qissalari).

### **9. Ikkinchi Aqoba bay'atida Rasululloh SAVga birinchi bo'lib bay'at qilgan sahoba kim?**

- a) Sa'd ibn Uboda
- b) Baro ibn Ma'rur
- c) Usayd ibn Huzayr

**To'g'ri Javob:** Baro ibn Ma'rur

**Izoh:** Rasululloh ollallohu alayhi vasallam ularga Qur'on tilovat qildilar, Allohga da'vat, Islomga targ'ib qildilar va:

«Ayollaringiz va bolalaringizni nimadan himoya qiladigan bo'lsangiz meni ham o'shanda himoya qilishingiz sharti ila sizlarning bay'atingizni qabul qilaman», dedilar.

Baro ibn Ma'rur Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning qo'llarini olib birinchi bo'lib bay'at qildi. Keyin hamma birma-bir bay'at qilib chiqdi. (Hadis va Hayot: "Olamlarga rahmat Payg'ambar")

### **10. Qaysi javobda madinalik ilk musulmonlar ro'yxati to'liq keltirilgan?**

- a) As'ad ibn Zurora, Avf ibn Horis, Rofi' ibn Molik, Qutba ibn Omir, Uqba ibn Omir, Jobir ibn Abdulloh
- b) As'ad ibn Zurora, Avf ibn Horis, Muoz ibn Horis, Rofi' ibn Molik, Zakvon ibn Qays, Uboda ibn Somit
- c) Abul Haysam ibn Tayyixon, As'ad ibn Zurora, Usayd ibn Xuzayr, Baro ibn Ma'rur, Rofi' ibn Molik, Sa'd ibn Abi Haysama

**To'g'ri Javob:** As'ad ibn Zurora, Avf ibn Horis, Rofi' ibn Molik, Qutba ibn Omir, Uqba ibn Omir, Jobir ibn Abdulloh

**Izoh:** Islom tarixida eng ulug' o'rin tutgan, birinchi navbatda iymon keltirguvchi madinalik sahobalar quyida nomlari yozilmish zotlar edi:

1. As'ad ibn Zurora
2. Avf ibn Horis
3. Rofi' ibn Molik
4. Qutba ibn Omir
5. Uqba ibn Omir
6. Jobir ibn Abdulloh ("Tarixi Muhammadiy")

### **11. Yasribga birinchi bo'lib hijrat qilib kelgan sahobiy kim?**

- a) Abu Salama ibn Abdulasad (r.a.)
- b) Omir ibn Robiy'a (r.a.)
- c) Usmon ibn Affon (r.a.)

**To'g'ri Javob:** Abu Salama ibn Abdulasad (r.a.)

**Izoh:** Mushriklarning shiddatli tayziqi ostida qolgan musulmonlar Payg'ambar sallalohu alayhi vassallamdan hijratga izn so'ray boshladilar. Chunki ular Yasribda o'z dindoshlari ularga yordam berishlarini bilardilar. Ana shu paytda Rasululloh sallalohu alayhi vassallam: "Menga hijrat diyoringiz haqida xabar berildi. U Yasribdir. Kim chiqmoqchi bo'lsa, o'sha yoqq chiqsin", dedilar. Ba'zi musulmonlar mahfiy ravishda hijratga tayyorlana boshladilar. Yasribga birinchi bo'lib hijrat qilib kelgan musulmon Abu Salama ibn Abulasad bo'ldi. (Hayot va hadis "Nubuvvat va risolat" 202 bet.)

### **12. Madinaga eng oxiri hijrat qilgan kim edi?**

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

**Ziyo istagan qalblar uchun**

[www.forum.ziyouz.com](http://www.forum.ziyouz.com)

**Islomiy viktorina: Biz Islomni bilamizmi?**

- a) Umar (r.a.)
- b) Hamza (r.a.)
- c) Abbos (r.a.)

**To'g'ri Javob:** Abbos (r/a)

**Izoh:** Madinaga eng so'ngi hijrat qilgan Rasuli Akramning amakilari Abbos ibn Abdulmuttolib bo'ldi. (Payg'ambarimiz va Asharai mubashshara)

### **13. Yasribga birinchi bo'lib hijrat qilgan muhojir ayol kim?**

- a) Ummu Salama
- b) Laylo binti Abu Hashama
- c) Asmo binti Abu Bakr

**To'g'ri Javob:** Laylo binti Abu Hashama

**Izoh:** Yasribga birinchi bo'lib hijrat qilib kelgan musulmon Abu Salama ibn Abdulasad bo'ldi. Undan keyin Omir ibn Robiy'a o'z ayoli bilan keldi. Uning xotini Laylo binti Abi Hashama birinchi ayol muhojir bo'ldi. So'ngra boshqa sahobalar ham birin-ketin o'ta maxfiy ravishda Makkani tark etib Yasribga hijrat qila boshladilar. (Hadis va Hayot: "Olamlarga rahmat Payg'ambar")

### **14. Madinaga hijratiga qarshiliklari sabab, barcha boyligini mushriklarga topshirgan va Rasululloh SAV tomonidan «Saydoing foyda keltirdi, ey ...» degan ta'rifga sazovor bo'lgan sahoba kim?**

- a) Usmon ibn Affon
- b) Abdurahmon ibn Avf
- c) Suhayb Rumiy

**To'g'ri Javob:** Suhayb Rumiy

**Izoh:** Imom Faxriddin Roziy rivoyat qiladilarki, Suhayb ar-Rumiy Madinai Munavvaraga hijrat qilib jo'naganida, Quraysh mushriklaridan bir guruhi u kishini qaytarmoqchi bo'lib ortidan boribdi. Shunda u kishi ulovidan tushib, o'qdonidagi o'qlarni tizib qo'yib, kamonni qo'llariga olibdi-da:

«Ey, quraysh ahli, mening ichingizda eng merganlardan biri ekanimni yaxshi bilasizlar-a?! Allohga qasamki, o'qdonidagi o'q tugamaguncha, bittangiz ham menga yaqinlasha olmaysiz! So'ngra qilichim bilan, qo'limda qanchasi qolsa, shunchasi bilan chopaman. Keyin nimani istasangiz, qilaverasiz!» dedi. Ular:

«Sen bizning yurtimizga kelganingda hech narsang yo'q gado eding, hozir esa ko'plab molidunyoga ega bo'lding», dedilar.

«Molimning qaerdaligini aytib bersam, o'z yo'limda ketaveramanmi?» dedi Suhayb. Ular, ha, degan edilar, u moli Makkaning qaerida ekanini aytib berdi.

Bu xabar Payg'ambar alayhissalomga yetganda:

«Savdo foyda keltirdi, Ey, Suhayb! Savdo foyda keltirdi, Ey, Suhayb!» dedilar. (Hadis va Hayot: "Olamlarga rahmat Payg'ambar")

### **15. Hamma mushriklardan qo'rqib, yashirin ravishda hijrat qildi. Faqat birgina sahobiy hijrat oldidan bemalol Baytullohni tavof qildi, maqomi Ibrohimda ikki rakat namoz o'qib, mushriklarga hijrat qilmoqchiligini ochiq aytdi. Bu sahobiy kim edi?**

- a) Ali ibn Abu Tolib (r.a.)
- b) Umar ibn Hattob (r.a.)
- c) Xamza ibn Abdulmuttolib (r.a.)

**To'g'ri Javob:** Umar ibn Hattob (r.a.)

**Izoh:** Faqat bir kishi, Umar ibn Xattob roziyallohu anhugina oshkora hijrat qildi. U kishi hijrat qilishga qaror qilganidan so'ng kiyimlarini kiyib, qurollarini taqib bemalol Baytullohni tavof qildi. Maqomi Ibrohimda ikki rak'at namoz o'qidi. So'ngra:



«Kim onasini azador, xotinini tul, bolasini yetim qoldirmoqchi bo'lsa menga manavi vodiyning ortida uchrashsin. Men hijrat qilmoqchiman!» dedi. Hech kim churq eta olmadi. (Hadis va Hayot: "Olamlarga rahmat Payg'ambar")

**16. Umar (r.a.) bilan Yasribga hijrat qilganidan so'ng, Abu Jahlni aldovlariga ishonib, Makkaga qaytgan va asir olingan sahobiy kim?**

- a) Omir ibn Robiya
- b) Xishom ibn Os
- c) Ayyosh ibn Robia

**To'g'ri Javob:** Ayyosh ibn Robia

**Izoh:** Ayyosh bilan Umar (r.a.) Tanodubada uchrashdilar. Darxol yo'lga chiqishdi, Yasribgacha biron kor hol yuz bermadi. Shaxarning Avoli degan joyida Umayya ibn Zayd o'g'illaridikida mehmon bo'ldilar.

Ko'p o'tmasdan Abu Jahl ukasi Horis bilan birga Yasribga keldi, Ayyosh ibn Robiani topdi. Unga onasini ahvoli og'irligini, Makkaga bormagunga qadar onasi sochini taramaslikka, hatto soyaga o'tmaslikka qasam ichganini aytdi. Ayyosh bu so'zlarga ishonadi. Va Abu Jahl bilan Makkaga qaytishga qaror qildi.

Makkaga yaqinlashdilar. Abu Jahl va ukasi Ayyoshning ustiga yopirildilar. Ayyosh ikki kishiga bas keladigan darajada baquvvat emasdi. Ikki daqiqa o'tib – o'tmay, oyoq-qo'li boyloqlik holda tuyaga yuklanadi. Makkaga shu tarzda kirib borishdi. Dastlab Ayyoshga jazo sifatida 100 qamchi urildi. Keyin qamab qo'yildi. (Saodat asri qissalari 139-141 betlar)

**17. Dorun-nadvada Rasululloh (s.a.v.) masalasini hal qilish uchun to'plangan majlisga Iblis qanday suratda keldi?**

- a) Majlisda Iblis ishtirok etmadi
- b) Najdlik qariya suratida
- c) Najdlik o'rta yoshli, baland bo'yi kishi suratida

**To'g'ri Javob:** Najdlik qariya suratida

**Izoh:** Quraysh mushriklari Rasululloh (s.a.v.) da'vatlariga nuqta qo'yish uchun dorun-navada to'plandilar. Bu majlisda Iblis Najdlik qariya suratida qatnashdi. (Al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor)

**18. Rasululloh (s.a.v.) masalasida o'tkazilgan Dorun-nadva kengashi quyidagi qaysi oyatda o'z ifodasini topgan?**

- a) Anfol surasining 30-oyati
- b) A'rof surasining 99-oyati
- c) Naml surasining 50-oyati

**To'g'ri Javob:** Anfol surasining 30-oyati

**Izoh:** Rasululloh (s.a.v.) masalasida o'tkazilgan Dorun-nadva kengashida turli takliflar o'rtaga tashlandi: Makkadan surgun qilish, bir joyga qamab qo'yib, o'lguncha ushlab turish va hkz. Ushbu oyatda ularning turli takliflari bayon etilgan. (Al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor)

**19. Mash'um rejani amalgam oshirish tunida Rasululloh (s.a.v.) to'shaklarida kim yotgan edi?**

- a) Zayd nbn Horisa
- b) Ali ibn Abi Toilib
- c) Abu Bakr

**To'g'ri Javob:** Ali ibn Abi Tolib

**Izoh:** Mash'um reja Rasululloh (s.a.v.)ga ilohiy vahiy orqali bildirildi. Rasululloh (s.a.v.) Alini chaqirtirib orinlariga kirib yotishini, keyin u ham yo'lga chiqishini tayinladilar. (Payg'ambarimiz va Asharai mubashshara)

**20. Rasululloh tunda uy atroflarini o'rab olgan, biroq g'afolatda qolganlar orasidan o'ta turib Yasin surasini nechanchi oyatini tilovat qildilar?**

a) 7-oyat

b) 8-oyat

c) 9-oyat

**To'g'ri Javob:** 9-oyat

**Izoh:** Ushbu oyatda ularning oldidan ham orqasidan ham to'siq qilingani ular ko'rmay qolganlari bayoni kelgan. (Al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor)

## 8-tur javoblari

### Mavzu: Rasululloh SAVning Madinaga hijratlari

#### 1. Rasululloh (s.a.v.) nima sababan boshqa musulmonlar qatori avvalgilardan bo'lib Madinaga hijrat qilmadilar?

- a) Hamma musulmonlar hijrat qilganini ko'rib, hotirjam bo'lib keyin hijrat qildilar
- b) Allohdan izn kutdilar
- c) Mushriklar Rasululloh (s.a.v.)ni Makkada kuch bilan tazyiq ostida ushlab turdilar

**To'g'ri Javob:** Allohdan izn kutdilar.

**Izoh:** Rasululloh (s.a.v) boshqa musulmonlar qatori avvalgilardan bo'lib Makkadan Madinaga hijrat qilmaganlarining sababi, u zotga Alloh tamonidan hali hijrat uchun izn berilmagani edi. Abu Bakr ham Rasululloh (s.a.v.) dan Madina hijrati uchun izn so'rganlarida, Rasululloh (s.a.v.) unga: Sabr qil, balki Alloh senga bir hamroh berib qolar, deya Abu Bakrning safarini orqaga surgandilar. (Al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor)

#### 2. Rasululloh sallallohu alayhi vassallam va Abu Bakrni Yasribga kuzatishayotganda, o'z belbog'ini yirtib, meshning og'zini bog'lagan va "Zotun nitoqayn", yani, "Ikki belbog'li xonim" nomini olgan ayol kim?

- a) Oysha (r.a.)
- b) Asmo (r.a.)
- c) Fotima (r.a.)

**To'g'ri Javob:** Asmo (r.a.)

**Izoh:** Asmo binti Abi Bakr Rasululloh (s.a.v.) va Abu Bakrga ovqat hozirlab, ovqat solingan xalta va meshning og'zini ikki belbog'ini yirtib bog'ladi. Rasululloh (s.a.v.) unga jannatda ikki belbog' ato etilishini xushxabarini berdilar. (Al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor)

#### 3. Rasululloh (s.a.v.) va Abu Bakr (r.a.) uchun mushriklardan "pana" bo'lgan g'or qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Hiro g'ori
- b) Nur g'ori
- c) Savr g'ori

**To'g'ri Javob:** Savr g'ori.

**Izoh:** Rasululloh (s.a.v) va hamrohlari Abu Bakr bilan Savr g'ori tomon ketdilar. Ba'zi manbalarda Savr tog'idagi g'orga yashirindilar, deyiladi. (Payg'ambarimiz va Asharai mubashshara, al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor)

#### 4. Hazrat Rasululloh SAV hijrat uchun ulovni kimdan sotib oldilar?

- a) Abu Bakr siddiqdan
- b) Umar ibn Hattobdan
- c) Usmon ibn Affondan

**To'g'ri Javob:** Abu Bakr siddiqdan.

**Izoh:** ... «Menga chiqish uchun izn berildi», dedilar.

«Hamrohlikmi? Otam sizga fido bo'lsin. Ey, allohning Rasuli», dedi Abu Bakr.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam:

«Ha», dedilar. Abu Bakr:

«Ey, Allohning Rasuli, anavi ikki ulovimdan birini oling», dedi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam:

«O'z bahosiga», dedilar... (Hazrati Oyishadan rivoyat, "Sahihi Buxoriy")

#### 5. Mazkur hijratda payg'ambarimiz (s.a.v) mingan tuyalarining ismi nima edi?

- a) Azboa

b) Jad' o

c) Qasva

**To'g'ri Javob:** Qasva

**Izoh:** Payg'ambarimiz hijrat safariga chiqish oldidan sotib olgan Qasva ismli tuyalariga mingan edilar. Orqa o'rkachiga Hazrati Abu Bakrni mingashtirib oldilar. ("Saodat asri qissalari")

#### **6. Hazrat Rasululloh SAV va Abu Bakr siddiq g'orda qancha muddat qoldilar?**

a) 1 kecha

b) 2 kun

c) 3 kun

**To'g'ri Javob:** 3 kun

**Izoh:** ...Ulovlarini unga berib, uch kechadan so'ng g'or og'zida uchrashishga kelishishdi. U uchinchi kechaning tongida ulovlarni olib ikkovlari oldilariga keldi. Ikkovlari bilan Omir ibn Fuhayra ham yurib ketdi. Yo'l boshlovchi pastqam yo'llarni tanladi». (Oyisha r.a.dan rivoyat, al-Buxoriy)

#### **7. G'orda Rasululloh (s.a.v.) va Abu Bakr ahvolidan xabar olib turgan hamda vaziyatni bildirib turgan kim edi?**

a) Abdulloh ibn Abi Bakr

b) Asmo binti Abu Bakr

c) Abdulloh ibn Urayqit

**To'g'ri Javob:** Abdulloh ibn Abu Bakr

**Izoh:** Buxoriy rivoyat qilgan hadisda, yoshgina yigit Abu Bakrning o'g'li Abdulloh tunda ular bilan g'orda qolib, sahar paytida yo'lga chiqib, xuddi Quraysh bilan tong ottirgan kabi bo'lardi. Eshitgan barcha xabarlarini oqshom tushgach kelib xabar qilardi. (Payg'ambarimiz va Asharai mubashshara, al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor)

#### **8. Rasululloh sallallohu alayhi vassallam va abu Bakr (r.a.) ni Yasribga hijrat qilishlarida kim yo'lboshchilik qilgan?**

a) Abdulloh ibn Urayqit

b) Oss ibn Voil as-Sahmiy

c) Suroqa ibn Molik

**To'g'ri Javob:** Abdulloh ibn Urayqit

**Izoh:** Abu Bakrning 4 oydan beri boqayotgan ikki tuyasi pulga yollangan Abdulloh ibn Urayqit ismli bir g'ayrimusulmon yo'l ko'rsatuvchiga topshirilgan edi. Abdulloh ibn Urayqit tuyalarni g'orga olib keldi. (Payg'ambarimiz va Asharai mubashshara)

#### **9. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga hijratga ruxsat berilganida mushriklar Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni topganga 100 tuya va'da qilishadi. Kim shu ishni bo'yniga oladi, va Allohning mo'jizasi ila islomga kiradi?**

a) Valid ibn Mug'iyra

b) Suroqa ibn Molik

c) Os ibn Voil

**To'g'ri Javob:** Suroqa ibn Molik

**Izoh:** Suroqa otga minib, qochoqlarning izidan tushdi. Ularga yaqinlashganda oti munkib yiqildi. O'rnidan turib yana otiga mindi, ovoz bemalol eshitilgudek joygacha yaqinlashib keldi. Rasululloh parvo qilmay xotirjam ketaverdilar. Abu Bakr esa tez-tez orqasiga burilib qarardi. To'satdan Suroqaning oti tizzasigacha qumga botib qoldi. U otini qamchilab joyidan jildirishga urindi. Joni azobda qolgan jonivorning oyoqlari qumdan chiqar-chiqmas, chang-to'zon ko'tarilib, ko'zlari hech narsani ko'rmay qoldi. Shum niyati g'alati yo'sinda barbod bo'lganidan qattiq vahimaga tushgan Suroqa yordam so'rab payg'ambar alayhis-salomni chaqirdi. Rasululloh hamrohlari bilan Suroqa yetib kelguncha kutib turdilar. U mushriklarning yovuz niyatlarini,

rasulullohni tutish uchun hamma choralarni ishga solishayotganini, hatto pul sarflashayotganini aytib berdi va yonidagi bor oziq-ovqat bilan yo'lga kerakli narsalarni ularga taklif etdi. "Bizga narsalarning kerak emas, faqat quvlab kelayotganlarga ko'rmadim desang bas", deyishdi ular. Suroqa omonlik xati so'ragan edi, rasululloh Abu Bakrga yozib berishni buyurdilar. ("Nurul-yaqin")

**10. Madina hijratida Payg'ambar s.a.v va u kishining yo'lboshchilari yo'lda bir cho'pon arabning uyida to'xtab o'tadilar. Oriq, nimjon, qo'chqor ko'rmagan sovliq qo'ydan sut sog'ib mo'jiza ko'rsatadilar. Bu arab kim edi?**

- a) Omir ibn Fuhayra
- b) Ummu Ma'bad
- c) Bani Dah ibn Hasib

**To'g'ri Javob:** Ummu Ma'bad

**Izoh:** Yo'l uzasida o'tirgan, Ummu Ma'bad nomlik, arablar ichida mashhur bir xotun bor edi. Shuning uyiga kechga tomon kelib tushdilar. Shu yillari ocharchilik bo'lganlikdin, mollari oriq, sog'inlari yo'q edi. Payg'ambarimiz u xotundin ichgani sut so'radilar. Ochligidin yurolmay, oriqligidin o'tloqqa chiqolmay qolgan bir sog'liq qo'y shu yerda yotgan edi, Payg'ambarimizning ko'zlari shu qo'yga tushdi. Anda Rasululloh turib, qo'y oldiga keldilar, «bismilloh» deb, qo'yning orqa-oldini silab edilar, qo'y irg'ib turib, boshqacha bir holga kirdi. Burishib, yopishib yotgan yelin-emchaklarini qutluq qo'llari bilan ushlab turib, «Ey bor Xudoyo, bu qo'yimizga barakot bergil», deb duo qilib edilar, shu onda u qo'y semirib, yelini chotiga sig'may chotrab chiqdi. Bir katta chora (idish) kelturib, o'zlari sog'dilar. Hiyol o'tmay, bu cho'ng chora liq to'lib, o'n-o'n besh kishi ichsa ham qondirgudek bo'ldi. Boshlab uy egasi Ummu Ma'badga ichirdilar va katta-kichik uning kishilari, undin so'ngra Hazrati Abu Bakr boshliq o'z yo'ldoshlariga ichirib, barilarini qondirib, sutga to'ydirdilar. Eng keyin o'zlari ichib, «soqil qavmi oxiruxum shurban», ya'ni, «quyguvchi kishi eng oxirida ichishi kerak», deb ummatlariga adab o'rgatdilar. (Tarixi Muhammadiy)

**11. Madina yaqinida Payg'ambar s.a.v.ni asir olgani chiqib, u kishini ko'rishlari bilan niyatlari o'zgarib iymon keltirgan qabila qaysi javobda ko'rsatilgan?**

- a) Davs
- b) Amr
- c) Aslam

**To'g'ri Javob:** Aslam

**Izoh:** Madina tarafiga yaqinroq yerda «Aslam» qabilasiga qarashlik bir manzilga keldilar. Shu qabilaning raislaridan Bani Dah ibn Hasib degan kishi o'lja olish umidi bilan, yorog'lik sakson odam olib, yo'l to'sib chiqqan edi. Bir jilg'a og'zidin Payg'ambarimizning qarshilariga saf bog'lab chiqib keldilar. Lekin uning Rasulullohga ko'zi tushgan hamon ahvoli o'zgardi, yomon niyatidin ko'ngli qaytdi... (Tarixi Muhammadiy)

**12. Ansorlar Rasululloh (s.a.v.)ni kelishlarini qayerga chiqib kutishar edi?**

- a) Harra tepaligidan
- b) Omiym tevaragidan
- c) Rauna vodiysidan

**To'g'ri Javob:** Harra

**Izoh:** Madina musulmonlari esa payg'ambarimizning hijrat harakatlaridin xabardor edilar. Kelar kunlarini mo'l, har kuni yo'l to'sishib, Harra degan toshloqqa chiqishar edi. Kun qiziganchalik shu yerda kutishib o'tirib, so'ngra qaytishur edilar. Uch kungacha har kuni istiqbol marosimini o'tkazdilar. ("Tarihi Muhammadiy")

**13. Nubuvvatdan keyin asos solingan ilk masjid?**

- a) Madinadagi "Masjidi nabiy"

- b) Qubo masjidida
- c) "Qiblatayn" masjidida

**To'g'ri Javob:** Qubo masjidida

**Izoh:** Rasululloh (s.a.v.)ning ilk qurigan masjidlari "Qubo masjidida" edi. Ikkinchisi esa, Madinadagi "Masjidi Nabiy" bo'ldi. (Hazrati Payg'ambarimiz va islom dini)

#### **14. Nima uchun Rasululloh s.a.v "Masjidi Nabaviy" ni qurishda yer egalari rozi bo'lsalar ham uni pulga sotib oldilar?**

- a) Katta bir oilaga tegishli yer bo'lgani uchun
- b) Beva ayolning yeri bo'lgani uchun
- c) Yetimlarga qarashli yer bo'lgani uchun

**To'g'ri Javob:** Yetimlarga qarashli yer bo'lgani uchun

**Izoh:** Payg'ambar alayhis-salom bani Najjor mahallasidagi tuyasi cho'kkan joyga masjid solishni ixtiyor etdilar. Bu yer As'ad ibn Zurora tarbiyasidagi ikki yetim bolaning xurmo xirmoni edi. Rasululloh ularni chaqirib, xirmon o'rnini va uning atrofidagi xurmozorlarni sotishni iltimos qilganlarida bolalar masjid uchun bu yerni tekinga berajaklarini aytishdi, biroq sarvari olam haqini to'lab, yerni sotib oldilar. ("Nurul-yaqin")

#### **15. Qubo masjidida Qur'oni karimda qanday ta'riflangan?**

- a) Tavba masjidida
- b) Taqvo masjidida
- c) Payg'ambar masjidida

**To'g'ri Javob:** Taqvo masjidida

**Izoh:** Birinchi kundan taqvo asosiga qurilgan masjid borki, siz o'shanda turishingiz loyiqroq. Unda poklikni sevadigan kishilar bordir. Alloh esa o'zlarini mudom pok tutguvchi zotlarni sevar. ("Tavba" surasi, 108-oyat)

#### **16. Ilk jum'a xitobi va ilk jum'a namozi qayerda o'qilgan?**

- a) Masjidun-nabaviyda
- b) Rauna vodiysida
- c) Qubo masjidida

**To'g'ri Javob:** Rauna vodiysida

**Izoh:** Salim ibn Avf oilasi maskan tutgan Rauna degan joyga yetib kelganlarida vaqt qoq tush edi. Hamma peshin namozini o'qishga tayyorgarlik ko'ra boshladi... Dastlab sunnat namozi o'qildi. Payg'ambarimiz oyoqqa qalqdilar. Diqqat bilan tikilib turgan sahobalariga qarata ilk jum'a xitobini qildilar. ("Saodat asri qissalari")

#### **17. "Yasrib" so'zining ma'nosi nima?**

- a) Xurmolar vodiysi
- b) Yashil shahar
- c) Yomonlik

**To'g'ri Javob:** Yomonlik

**Izoh:** Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam hijrat qilib kelgunlaricha Madina shahri Yasrib deb atalar edi. Yasrib arabchada yomonlik ma'nosini anglatadi. Shuning uchun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shaharning nomini «Madina» deb atadilar. (Hadis va hayot: "O'lamlarga rahmat Payg'ambar")

#### **18. Madinaga kirib kelgach Rasululloh (s.a.v.)ning tuyalari qayerda cho'kdi?**

- a) Madinadagi hozirgi masjidlari o'rnida
- b) Abu Ayyub al-Ansoriyning uyida
- c) Xolid ibn Zaydning uyida

**To'g'ri Javob:** Madinadagi hozirgi masjidlari o'rnida

**Izoh:** Madinaga kirib kelgan Rasululloh (s.a.v.) ni ansorlar o'z uylariga taklif qilardilar. Rasululloh (s.a.v.) tuyaning cho'kishi ilohiy dargoh ixtiyorida ekanini aytdilar. Tuya tog'avachchalari Banu Najjor mahallasi, hozirgi Madinadagi masjidleri o'rnida cho'kdi. (Al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor, Saodat asri qissalari)

**19. Quboning ilk kunlarida Rasululloh (s.a.v.) huzurlariga “haqiqiy payg'ambarmi yoki yo'qmi” masalasini aniqlash uchun kelgan sahoba kim?**

- a) Salmon al-Forsiy
- b) Abdulloh ibn Salom
- c) Ka'b ibn Molik

**To'g'ri Javob:** Salmon al-Forsiy

**Izoh:** Quboning ilk kunlarida Salmon al-Forsiy Rasululloh (s.a.v.) huzurlariga kelib, chin payg'ambarliklarini aniqlash uchun xurmo keltirib, uni sadaqa ekanligini aytadi. Rasululloh (s.a.v.) “men sadaqa“ emayman deb rad etadilar. (Al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor)

**20. Hijratdan keyin Quboda dunyoga kelgan ilk musulmon chaqaloq?**

- a) Hasan ibn Ali
- b) Abdulloh ibn Zubayr
- c) Abdulloh ibn Umar

**To'g'ri Javob:** Abdulloh ibn Zubayr

**Izoh:** Hijratdan keyin dunyoga kelgan ilk chaqaloq Abdulloh ibn Zubayr ibn Avvom. Bunday farzandning sharaflari onasi Asmo binti Abi Bakr. Sahihi Buxoriyda yangi tug'ilgan chaqaloq Rasululloh (s.a.v.)ga keltiriganda uning og'ziga xurmo chaynab solib, duo qilganlari ma'nosidagi hadis mavjud. (Al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor)

## 9-tur javoblari

### Mavzu: Madinada Islom jamiyatining qurila boshlanishi

**1. Rasululloh Makkada ekanliklarida Madinadan kelib ilk bor imon keltirgan 12 kishidan biri va Madinaga Rasululloh hijrat qilganlaridan keyin vafot topgan va Baqi' qabristoniga ilk dafn qilingan sahobiy kim edi?**

- a) As'ad ibn Zurora
- b) Sa'd ibn Rabi'
- c) Avf ibn Horis

**To'g'ri Javob:** As'ad ibn Zurora

**Izoh:** As'adni qabrga Alloh yaratgan eng muborak qo'llar qo'ydi. Rahmat malaklari uni haqiqiy bir omonat o'laroq, loyiq bo'lgan izzat va ikrom bilan qarshi oldilar. Baqi' qabristoniga ilk dafn qilingan musulmon As'ad ibn Zurora bo'ldi. («Saodat asri qissalari»)

**2. Rasululloh (s.a.v.) Madinaga hijrat qilib kelganlarida birinchi bo'lib musulmon bo'lgan yahudiy kim edi?**

- a) Abdulloh ibn Salom
- b) Salmon al-Forsiy
- c) Ka'b ibn Molik

**To'g'ri Javob:** Abdulloh ibn Salom

**Izoh:** Rasululloh (s.a.v.) Madinaga hijrat qilib kelganlarida Abdulloh ibn Salom u zotni ko'rish uchun bordi. Rasululloh (s.a.v.)ni ko'rganida u zotning nurafshon yuzlarida hech bir yolg'on alomatini ko'rmadi. Rasululloh (s.a.v.)ga darhol imon keltirdi. (al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor)

**3. Rasululloh SAV Masjid-an-Nabaviyni qurdirganlarida masjidga kirish uchun 3 ta eshik qoldirganlar. Rasululloh SAV har doim masjidga qaysi eshikdan kirganlar?**

- a) Bob ur-Rahmah
- b) Bob ur-Rizvon
- c) Bob us-Salom

**To'g'ri Javob:** Bob ur-Rahmah

**Izoh:** Rasululloh SAV masjidning qiblasini Bayt Al Maqdisga qaratdilar va masjidga kirish uchun 3 ta eshik qurdirdilar. Ulardan bitta eshik masjidning orqa tomonida bo'lib, Bob ur-Rahmah deya nomlangan va Rasululloh SAV o'zlari shu eshikdan kirishga odat qilgan edilar. («Muxtasar Seerah Ar-Rasool»)

**4. Madinadagi masjid qurilishida barcha bittadan g'isht tashisa, u ikkitadan gi'sht tashigan sahoba kim edi?**

- a) Umar ibn Xattob
- b) Ammor ibn Yosir
- c) Suhayb ar-Rumiy

**To'g'ri Javob:** Ammor ibn Yosir.

**Izoh:** Rasululloh SAV Madinada tuyalari cho'kkan yerda masjid qurilishini boshlab yubordilar. Ammor ibn Yosir bu qurulishda ikkitadan g'isht tashishga astoydil bel bog'lagan edi. (al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor)

**5. Rasululloh sallallohu alayhi vassallamning qizlari Ruqayya va kuyovlari Usmon ibn Affonga uy joy berish qaysi yasriblik sahobiyga nasib qildi?**

- a) Avs ibn Sobit
- b) As'ad ibn Zurora
- c) Sa'd ibn Muoz



**To'g'ri Javob:** Avs ibn Sobit

**Izoh:** Rasululloh SAVning nuridiydalari Ruqayyaga, uning umr yo'ldoshi bilan birga, uyidan joy berish sharafiga Avs ibn Sobitga nasib etdi. (Saodat asri qissalari)

**6. Kimning uyida Madinalik va Makkaliklar (muhojir va ansorlar) qarindosh tutindilar?**

- a) Oisha onamizning
- b) Ummu Sulaymning
- c) As'ad ibn Zuroraning

**To'g'ri Javob:** Ummu Sulaymning

**Izoh:** Mo'minlarning bir-birlariga qarindoshligi oqibati go'zal bo'lishi aniq edi. Shu sababli payg'ambarimiz SAV bir kuni Ummu Sulaymning uyida bir makkalik, bir madinalik qilib, "muhojir – ansor qarindoshligi"ni ta'asis etdilar. (Saodat asri qissalari)

**7. Ma'lumki, Rasululloh (s.a.v.) Madina davrining ilk kunlarida muhojir va ansorlar o'rtasida "qardoshlik" ahdini tuzdilar. Ushbu qardoshlikning meros bilan bog'liq hukmining keyinchalik ijrosi qanday bo'ldi?**

- a) Rasululloh (s.a.v.) vafotlariga qadar amalda bo'ldi
- b) Barcha ansor va muhojirlar vafotiga qadar o'z hukmini saqlab qoldi
- c) Badr g'azotidan keyin hukm bekor qilindi

**To'g'ri Javob:** Badr g'azotidan keyin hukm bekor qilindi

**Izoh:** Qardoshlikning meros bilan bog'liq hukmi ko'pga cho'zilmadi. Badr g'azotidan so'ng Anfol surasining 75-oyati bilan bekor qilindi. (al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor, Hazrati Payg'ambarimiz va islom dini)

**8. Kim Rasululloh s.a.v ga saj daraxtidan yasalgan, xurmo novdalari ila to'qilgan - sadr sovg'a qiladi va shu bilan Rasululloh s.a.v umrlarining oxirigacha mana shu sadrda uxladilar?**

- a) Zubayr ibn Avvom.
- b) Abu Ayyub Xolid ibn Zayd
- c) As'ad ibn Zurora

**To'g'ri Javob:** As'ad ibn Zurora

**Izoh:** As'ad bir sadr keltirgan ekan, shunga ishora qilib:

- Buni siz uchun yasattirdim, ey Allohning Rasuli, ustida yotib istirohat etasiz, - dedi. Rasulullohning yuzlarida quvonch alomatlarini indi... (Saodat asri qissalari)

**9. Rasululloh s.a.v Madinaga hijrat qilganlaridan so'ng kimni Makkaga borib, u yerda qolgan bola chaqalarini olib kelishini aytadilar?**

- a) Hamza ibn Abdumuttalib bilan Abu Ayyub
- b) Zayd ibn Xoris bilan Abu Rofiy
- c) Ali ibn Abu Tolib bilan Usmon ibn Affon

**To'g'ri Javob:** Zayd ibn Xoris bilan Abu Rofiy

**Izoh:** Bu orada Rasululloh SAV tutingan o'g'illari Zaydni Abu Rofiy degan bir madinalik bilan qo'shib, yo'lga chiqardilar. Ular Makkaga borib, u yerda qolgan bola-chaqalarini olib kelishlari kerak edi. (Saodat asri qissalari)

**10. Ma'lumki, Madinai munavvarada Islom tarqagan, Rasululloh SAV hijrat qilgan paytlarda yahudiylar ham yashar edilar. Rasululloh SAV ularga qanday munosabatda bo'ldilar?**

- a) Yahudiylar o'z dinida qoladigan va jizya to'laydigan bo'ldilar.
- b) Ahdnoma tuzilib, ularning dini va moli kafolati olindi.
- c) Yahudiylar bilan urushmaslik va do'stlik shartnomasi tuzildi.

**To'g'ri Javob:** Ahdnoma tuzilib, ularning dini va moli kafolati olindi.

**Izoh:** Madinai Munavvarada yahudiylar ham yashar edilar. Ular ham yangi Islom jamiyati bilan o‘zaro aloqada bo‘lishlari turgan gap edi. Shuning uchun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ular bilan ahdnoma tuzdilar.

Ikki tarafning kelishuvi bilan yozilgan bu ahdnomada ko‘pgina masalalar batafsil bayon qilindi. Jumladan, yahudiylarga o‘z dinlarida turishlari kafolati, molu mulklari kafolati, ularning haq-huquqlari va mas’uliyatlari batafsil zikr etildi. (“Hadis va hayot” – Olamlarga rahmat Payg‘ambar)

**11. Nabiy alayhissalom ansorlarni chaqirib, ularga qayerni bermoqchi ekanliklarini aytganlarida, ansorlar, muhojir birodarlarimizga ham xuddi shunga o‘xshash joyni bermasangiz, bizga buning keragi yo‘q, deganlar?**

- a) Hijoz
- b) Quvayt
- c) Bahrayn

**To‘g‘ri Javob:** Bahrayn

**Izoh:** Ansoriylar haqida Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda bunday deyiladi: «Nabiy alayhissalom ansorlarni chaqirib, ularga Bahraynni (shu nomdagi hozirgi diyorni) bermoqchi ekanliklarini aytganlarida, ansorlar, muhojir birodarlarimizga ham xuddi shunga o‘xshash joyni bermasangiz, bizga buning keragi yo‘q, dedilar». (“Hadis va hayot” – Olamlarga rahmat Payg‘ambar)

**12. Islomdagi ilk munofiqlik qayerda zohir bo‘lgan?**

- a) Madinada
- b) Habashistonda
- c) Makkada

**To‘g‘ri Javob:** Madinada

**Izoh:** Islom dinining avvalgi paytlarida Makkai Mukarramada munofiqlik yo‘q bo‘lgan. Hijratdan keyin, musulmonlar Madinai Munavvarada alohida jamiyat bo‘lib, «ko‘kraklariga shamol tegib» yashay boshlaganlaridan so‘nggina bu dard paydo bo‘ldi.

Makkada musulmonlar oz sonli, zaif bo‘lib, xohlagan kishi ularga bermalol zulm o‘tkazar va azob berar edi.

Odatda, bunday paytda faqat haqiqiy mo‘minlarga sabr-chidam bilan dinlarini mahkam ushlaydilar.

Madinada esa, musulmonlar kuch-quvvatga, o‘z davlatlariga ega bo‘ldilar, ular bilan hisoblashmaslikning iloji qolmadi. (“Hadis va hayot” – Olamlarga rahmat Payg‘ambar)

**13. Azon qachon farz qilindi?**

- a) Hijratdan avval
- b) Hijratning birinchi yili
- c) Hijratning ikkinchi yili

**To‘g‘ri Javob:** Hijratning birinchi yili

**Izoh:** Azon hukmi hijratning birinchi yili farz qilindi. (al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor)

**14. Azon matnini tushida ko‘rgan kim edi?**

- a) Abdulloh ibn Zayd va Umar ibn al-Xattob
- b) Abdulloh ibn Zayd va Bilol al-Habashiy
- c) Bilol al-Habashiy va Umar ibn al-Xattob

**To‘g‘ri Javob:** Abdulloh ibn Zayd va Umar ibn al-Xattob

**Izoh:** Azon matni uchun ashob tomonidan turli fikrlar o‘rtaga tashlandi. Hech biri ma‘qul ko‘rilmadi. Ansordan Abdulloh ibn Zayd bir tush ko‘rdi va uni Rasululloh (s.a.v.)ga yetkazdi. Hazrati Umar ham ayni shu tushni ko‘rgan va Bilolning azonini eshitib Rasululloh (s.a.v.) oldilariga yugirib kelib buni bildirgan edi. (Hazrati Payg‘ambarimiz va islom dini)

**15. Bomdod namoziga "Assolati hoyrum minan navm" (Namoz uyqudan afzal) deb kiritilishiga kim sababchi bo'ldi?**

- a) Ali r.a.
- b) Umar r.a.
- c) Bilol r.a.

**To'g'ri Javob:** Bilol r.a.

**Izoh:** Hazrati Bilol bomdod namozining azonida "Hayyal alal falah" dan keyin ikki marta "Assolatu xoyrun min an-navm" (Namoz uyqudan yaxshiroq) degan gapni qo'shib aytdi. Rasululloh bu gapni ma'qullab e'tirof etdilar. (Nurul-yaqiyn)

**16. Qibla Masjidul Aqsodan Masjidi Haramga o'zgarganligi vahiysi qaysi namozda sodir bo'ldi?**

- a) Asr namozida
- b) Bomdod namozida
- c) Peshin namozida

**To'g'ri Javob:** Peshin namozida

**Izoh:** Hijratning ikkinchi yili Rasululloh (s.a.v.) peshin namozini jamoat bilan Quddusga qarab o'qiyotgan edilar. Namoz ichida qiblaning o'zgarganligi haqida vahiy keldi/ Rasuli Akram shu zahoti yuzlarini Quddusdan Ka'baga tomon burdilar. (Hazrati Payg'ambarimiz va islom dini)

**17. Ikki qiblali ma'nosini anglatadigan "Masjidul qiblatayn" nomini olgan masjidni aniqlang?**

- a) Qubodagi masjid
- b) Banu Salama masjidi
- c) Masjidi Nabiy

**To'g'ri Javob:** Banu Salama masjidi

**Izoh:** Rasululloh (s.a.v.) yangi qibлага burilib peshin namozining uchinchi va to'rtinchi rakatlarini Masjidi Haramga qarab o'qidilar. Bu namoz Banu Salama yurtida ado etilgan edi. Shu sababli Banu Salama masjidi "Masjidul Qiblatayn" egan nom olgan. (Hazrati Payg'ambarimiz va islom dini)

**18. Rasululloh (s.a.v.) ko'rgan tushlari ("Qora tanli, sochi to'zg'igan bir ayolni ko'rdim. Madinadan chiqib Juhfaga ketdi") ni nimaga ta'bir qildilar?**

- a) Yahudiylarni Madinadan surgun qilinishi
- b) Madina vabosining ketishi
- c) Musulmonlarning Badr g'azotiga chiqishi

**To'g'ri Javob:** Madina vabosining ketishi

**Izoh:** Madina vabosi ko'blab ashobni holdan toydirdi. Rasululloh SAV Allohdan bu dardni ketkazishini so'rab iltijo qildilar. Bir kuni bomdod namozidan keyin ko'rgan tushlarini aytib berdilar. "Qora tanli, sochi to'zg'igan bir ayolni ko'rdim. Madinadan chiqib ketdi va Juhfaga to'xtadi", dedilar. Men bu tushni Madinadagi vaboning Juhfaga uloqtirilganligi ma'nosida tusundim dedilar. (al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor, Saodat asri qissalari)

**19. Bir kuni Rasululloh s.a.v. ma'lum sabab bilan namozga kech qoladilar. Abu Bakr namozda imomlik qilayotganlarida Ul zot s.a.v. keladilar. Sahobalar Abu Bakrga buni bildirmoqchi bo'lishadi. Namozdan so'ng Rasululloh s.a.v tanbeh berib "Namozda biron narsani bildirishga ehtiyoj sezsangizlar "SubhanAlloh" deb aytinglar" deyдилar.**

**Mo'minlar Abu Bakrga qay yo'l bilan Rasululloh s.a.v ni kelganlarini bildirishmoqchi edi?**

- a) ismlarini chaqirib
- b) chapak chalib
- c) tomoq qirib, ovoz chiqarib

**To'g'ri Javob:** chapak chalib

**Izoh:** Hazrati Abu Bakr mehrobga o'tib namozni boshladi. Ular namozdalik paytlari rasululloh SAV ham yetib keldilar va darhol safga qo'shilib, imomga iqtido qildilar. Payg'ambar kelganini sezganlar chapak chalib, Abu bakrga bildirmoqchi bo'lishdi. U esa ishoratlarni sezmay, namozni davom ettiraverdi... (Saodat asri qissalari)

**20. Dajjol kirmaydigan shaharni aniqlang.**

- a) Makka, Madina
- b) Makka, Madina, Quddus
- c) Makka

**To'g'ri Javob:** Makka va Madina

**Izoh:** "Sahih al Buxoriy" (1881) va "Fath al-Boriy" (96/4) asarlarida, Anasdan rivoyat qilinadi, dedilar: Rasululloh (s.a.v.) dedilar: Dajjol Makka va Madinadan boshqa barcha shaharlarga kiradi. Ularning barcha kirish joylarini safga tizilgan farishtalar qo'riqlaydilar. (al-Anvar fi sirati an-nabiy al-muxtor)

## 10-tur javoblari

### Mavzu: G'usl, tayammum va poklik hukmlari (Hanafiy mazhabida)

#### 1. Qur'oni karimning qaysi oyatida tahorat, g'usl va tayammum haqida hukmlar kelgan?

- a) Moida surasi, 6-oyat .
- b) Niso surasi, 43-oyat.
- c) Voqea surasi, 79-oyat

**To'g'ri Javob:** Moida surasi, 6-oyat .

**Izoh:** Ey mo'minlar, namozga turganingizda yuzlaringizni hamda qo'llaringizni chig'anoqlarigacha yuvingiz, boshlaringizga masx tortingiz (ya'ni nam qo'llaringiz bilan silangiz) va oyoqlaringizni oshiqlarigacha yuvingiz! Agar junub bo'lsalaringiz, cho'milingiz! Agar bemor yo musofir bo'lsangiz yoki sizlardan biron hojatxonadan chiqqan bo'lsa yoxud xotinlaringizga qo'shilgan bo'lsalaringiz va (mazkur holatlarda) suv topa olmasangiz, pokiza tuproq bilan tayammum qilingiz (ya'ni yuzingiz va qo'llaringizni pokiza tuproq bilan silangiz). Alloh sizlarga mashaqqat qilmoqni istamaydi, balki sizlarni poklashni va shukr qilishlaringiz uchun sizlarga O'z ne'matini komil qilib berishni istaydi. («Moida» surasi, 6-oyat)

#### 2. Quyidagilardan qaysi biri g'uslning farziga kirmaydi?

- a) Niyat qilish
- b) Og'izga suv olib chayqamoqlik
- c) Burunga achishgunga qadar suv tortib qoqmoqlik
- d) Badanning hamma yeriga suv yetkazmoqlik

**To'g'ri Javob:** Niyat qilish

**Izoh:** G'uslning farzlari uchta:

1. Og'izga suv olib chayqamoqlik - mazmaza.
2. Burunga achishgunga qadar suv tortib qoqmoqlik - istinshoq.
3. Badanning hamma yeriga suv yetkazmoqlik. Badanning hamma yeriga bir marta suv yetkazmoqlik vojibdir. Agar badanning ozgina joyiga suv yetmay qolsa ham, g'usl durust bo'lmaydi. Yana jasaddagi chuqurchalarga, ya'ni kindik va shunga o'xshash a'zolariga ham suv yetishi shart. Va yana g'usl qilishdan oldin badandagi har qanday suvni to'suvchi xamir, yog', ko'z atrofiga yig'ilib qoladigan kir, burunning kiri, ba'zi ayollar tirnoqlariga qo'yadigan lakka o'xshash narsalarni ketkazish lozimdir. Agar qimirlatmasa, ostiga suv yetmaydigan uzuk, bilaguzukka o'xshash narsalar bo'lsa, ularni ham aylantirib suv yetkazish kerak. Ayollarga o'rilgan sochlarini yechib, hammasini ho'l qilish shart bo'lmaydi. Balki sochning asli chiqqan joyini ho'l qilishlari kifoya bo'ladi. Ammo erkaklarning sochlari o'rilgan bo'lsa ham yechib, hammasini ho'l qilishlari farz bo'ladi. («Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari»)

#### 3. G'uslning 3-farzi butun badanni qoldirmay yuvishdir. Ayollar o'rilgan sochlarini g'uslda to'la yuvishlari shartmi?

- a) uni to'la, soch taglari va o'rimlarini ham birga ho'llab qo'yish kifoya qiladi.
- b) sochlarini bir marta suvga pishib, tarab, ichlariga suv kiritish kerak bo'ladi.
- c) uni to'la yuvishga hojat yo'q, soch taglari ho'llansa kifoya qiladi. Soch o'rimlarini ho'llash ham lozim emas.

**To'g'ri Javob:** uni to'la yuvishga hojat yo'q, soch taglari ho'llansa kifoya qiladi. Soch o'rimlarini ho'llash ham lozim emas.

**Izoh:** G'usl komil bo'lishi uchun uning farz va sunnatlarini bilish muhimdir. G'uslning uch farzi bor: 1) og'izni g'arg'ara qilib yuvish; 2) burunni dimoqqacha (dimog achishgulik darajada) chayish va 3) butun badanni qoldirmay yuvish. Ayollarning sochi o'rilgan bo'lsa, uni to'la yuvishga hojat yo'q, soch taglari ho'llansa kifoya qiladi. Soch o'rimlarini ho'llash ham lozim emas («Hidoya»).

#### 4. Quyidagi qaysi holatda g'usl vojib bo'lmaydi?

- a) uyquda ehtilom kelishi
- b) kofirning junub bo'lmagan holatda musulmon bo'lishi
- c) kishining vafot etishi

**To'g'ri Javob:** kofirning junub bo'lmagan holatda musulmon bo'lishi

**Izoh:** Ayollardan hayz yoki nifos qonining chiqishi, qon chiqmasa-da, farzand ko'rishi va musulmon kishining o'limi g'usl ni vojib qiladi. Shahid esa bundan mustasno. Kishi shahid bo'lib o'lsa, uni g'usl qilishning hojati yo'qdir. Kofir junub paytida musulmon bo'lsa, bunga ham g'usl vojib bo'ladi, ammo u musulmon bo'lganida junub holida bo'lmasa, uning g'usl qilib olishi vojib emas, balki mustahabdir. Zero, kufr ma'naviy najosatdir, Islom kelishi bilan bu najosat poklanadi. Lekin junublik hukmiy najosat bo'lib, faqat suv bilan, suv yo'q bo'lsa, tayammum orqali niyat bilan poklanadi. («Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari»)

#### 5. Quyidagi qaysi holatda g'usl vojib bo'ladi?

- a) kishining shahid holida vafot etishi
- b) maziyning chiqishi
- c) ayollarning farzand ko'rishi

**To'g'ri Javob:** ayollarning farzand ko'rishi

**Izoh:** Ayollardan hayz yoki nifos qonining chiqishi, qon chiqmasa-da, farzand ko'rishi va musulmon kishining o'limi g'usl ni vojib qiladi. Shahid esa bundan mustasno. Kishi shahid bo'lib o'lsa, uni g'usl qilishning hojati yo'qdir. Kofir junub paytida musulmon bo'lsa, bunga ham g'usl vojib bo'ladi, ammo u musulmon bo'lganida junub holida bo'lmasa, uning g'usl qilib olishi vojib emas, balki mustahabdir. Zero, kufr ma'naviy najosatdir, Islom kelishi bilan bu najosat poklanadi. Lekin junublik hukmiy najosat bo'lib, faqat suv bilan, suv yo'q bo'lsa, tayammum orqali niyat bilan poklanadi.

G'usl ni vojib qilmaydigan narsalar:

1. Maziyning chiqishi bilan g'usl vojib bo'lmaydi. Maziy - suyuq, oq suv hisoblanadi, shahvat vaqtida shiddatsiz chiqadi. Maniy esa shiddat bilan otilib chiqadi. Maziy erkaklardan ko'ra ayollarda ko'proq uchraydi. Goho uning chiqib qolganligi ham sezilmaydi. Demak, maziy tahoratni buzsa-da, g'usl ni vojib etmaydi.
2. Vadiyning chiqishi bilan ham g'usl vojib bo'lmaydi. Vadiy - oq, xiralangan, yopishqoq, hidsiz suyuqlikdir. U bavlning orqasidan keladi.
3. Bir shaxs xoh ayol bo'lsin, xoh erkak bo'lsin, uyqusidami yoki xayolidami ehtilom bo'lib lazzatni sezdi-yu, lekin namlikni ko'rmadi, shu holatda ham g'usl vojib bo'lmaydi. («Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari»)

#### 6. Istinshoq nima?

- a) G'uslning farzlaridan bo'lib, burunga achishgunga qadar suv tortib qoqmoqlikdir
- b) G'uslning farzlaridan bo'lib, og'izga suv olib chayqamoqlikdir.
- c) G'uslning ruknlaridan biri bo'lib, g'usldan avval tahorat qilmoqdir.

**To'g'ri Javob:** G'uslning farzlaridan bo'lib, burunga achishgunga qadar suv tortib qoqmoqlikdir

**Izoh:** G'uslning farzlari uchta:

1. Og'izga suv olib chayqamoqlik - mazmaza.
2. Burunga achishgunga qadar suv tortib qoqmoqlik - istinshoq.
3. Badanning hamma yeriga suv yetkazmoqlik. («Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari»)

#### 7. Quyidagilardan qaysi biri g'uslning sunnatlariga kiradi?

- a) Niyatni til bilan qilmoq.
- b) Ayollarning o'rilgan sochlarini yechib yuvishlari
- c) Ishqalashlik.

**To'g'ri Javob:** Ishqalashlik.

**Izoh:** G'uslning sunnatlari:

1. Niyat bilan boshlamoq. Niyat esa qalb bilan qilinadi. Ulamolar qalbning niyatini til bilan nutq qilish orqali tasdiqlashni chiroyli sanashdi. Shuning uchun ham agar avratlari berk bo'lsa, junublikdan poklanish uchun g'usl qilmoqlikni niyat qildim, deb aytadi. Albatta til bilan zikr qilish sunnat emas. Balki yuqorida aytganimizdek, ulamolar chiroyli sanashgan amaldir.
2. G'uslning boshida «Bismillah...»ni aytmoq.
3. G'uslni ikki qo'lni bilagigacha yuvmoqlikdan boshlamoq.
4. Qo'lni yuvib olgach, farjini yuvmoqlik va g'uslni boshlashdan oldin badandagi najosatlarni ketkazmoq.
5. G'uslni namozdagidek tahorat olish bilan boshlamoq.
6. Badandan oldin boshni uch marta yuvmoq. Aslida birinchisi farz, ikkinchi va uchinchi sunnat bo'ladi.
7. Ishqalashlik.
8. Avval badanni o'ng tomonidan yuvib, so'ng chap tomonni yuvmoqlik.
9. Har ikki tomonni ham uch martadan yuvmoq. Va yana tahoratdagi sunnatlarning hammasi g'uslda ham sunnatdir. («Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari»)

#### **8. Quyidagi qaysi holatlarda g'usl qilishlik sunnat hisoblanadi?**

- a) Zavoldan so'ng Arofat tog'ida turishlik uchun qilingan g'usl
  - b) Arafa kechasida, qadr kechasida g'usl qilish
  - c) Ka'bai Muazzamani ziyorat qiladigan kishining g'usl qilishi
- To'g'ri Javob:** Zavoldan so'ng Arofat tog'ida turishlik uchun qilingan g'usl

**Izoh:** G'usl qilishlik sunnat bo'lgan holatlar:

- A) Juma va ikki iyd namozlari uchun (kunlari uchun emas, balki juma va iyd namozlari uchun g'usl qilgan kishi) tahorati sinmay turib, shu g'usl bilan namozni o'qishi sunnatdir;
- B) Haj yoki umra uchun ehrom bog'lashdan oldingi g'usl;
- V) Zavoldan so'ng Arofat tog'ida turishlik uchun qilingan g'usllar sunnat hisoblanadi. («Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari»)

#### **9. Quyidagi holatlarda g'usl qilish qanday amal hisoblanadi?**

1. Juma va ikki iyd namozlari uchun qilingan g'usl
  2. Musulmon mayyitning g'usl qildirilishi.
  3. Mast kishining mastligi ketsa, g'usl qilishi
    - a) 1-sunnat, 2-farz, 3-mustahab
    - b) 1-sunnat, 2-farz, 3-mandub
    - c) 1-mustahab, 2-farz, 3-sunnat
- To'g'ri Javob:** 1-sunnat, 2-farz, 3-mustahab
- Izoh:** 1. G'usl qilishlik farz bo'lgan holatlar:
- A) Janobatdan poklanish uchun qilingan g'usl;
  - B) Hayz va nifos qoni to'xtagandan so'ng qilingan g'usl;
  - V) Musulmon mayyitning g'usl qildirilishi.
2. G'usl qilishlik sunnat bo'lgan holatlar:
- A) Juma va ikki iyd namozlari uchun (kunlari uchun emas, balki juma va iyd namozlari uchun g'usl qilgan kishi) tahorati sinmay turib, shu g'usl bilan namozni o'qishi sunnatdir;
  - B) Haj yoki umra uchun ehrom bog'lashdan oldingi g'usl;
  - V) Zavoldan so'ng Arofat tog'ida turishlik uchun qilingan g'usllar sunnat hisoblanadi.
3. G'usl qilib olishlik mustahab bo'lgan holatlar:
- A) Jinni sog' bo'lsa, hushidan ketgan o'ziga kelsa, mast kishining mastligi ketsa, g'usl qilib olish mustahabdir;
  - B) Sha'bon oyidagi badr kechasida, arafa kechasida, qadr kechasida g'usl qilib olish ham mandub amaldir;

V) Yana qurbonlik kunining subhida Muzdalifa tog'ida turgan kishiga, shaytonga tosh otish uchun qurbonlik kunida Mino tog'iga chiqadigan kishiga, Ka'bai Muazzamani ziyorat qiladigan kishiga, oy yoki quyosh tutilganda va yomg'ir talab qilinganda o'qiladigan namozni o'quvchi kishiga, Madinai Munavvaraga kiradigan kishiga ham g'usl qilishlik odob hisoblanadi. Yana odamlar jamoasiga kiruvchiga, yangi libosni kiygan kishiga, mayyitni yuvgan g'assolga, gunohidan tavba qilgan insonga, safardan qaytganga, istihoza qoni to'xtagan ayolga, musulmon bo'lganlarga ham g'usl qilib olish odobdir. («Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari»)

**10. Rasululloh (s.a.v.) ta'kidlariga ko'ra, Allohning har bir mo'mindagi haqqi sifatida necha kunda g'usl qilish atvsiya etiladi?**

- a) 3 kunda
- b) 5 kunda
- c) 7 kunda

**To'g'ri Javob:** 7 kunda

**Izoh:** Rasululloh (s.a.v.) aytganlar: «Allohning har bir mo'mindagi haqqi yetti kunda bir marta butun a'zosini yuvib, g'usl qilishligidir». Payg'ambar alayhissalom mo'minlarga juma kuni g'usl qilishni buyurganlar. Amaliy va tibbiy tajribalardan ma'lumki, g'usl kishilarni turli nopokliklardan tozalabgina qolmay, jimo' tufayli yo'qotilgan kuch-quvvatni tiklash va tanani tetiklashtirish uchun ham xizmat qiladi. («Dinda savolim bor»)

**11. Junub holda quyidagilardan qaysi biri makruh hisoblanadi?**

- a) Tirnoq olish, tuklarni qirish
- b) Ovqatlanish, saxarlik qilish
- c) Qur'on o'qish, ta'lim berish

**To'g'ri Javob:** Tirnoq olish, tuklarni qirish

**Izoh:** Junublikda (ya'ni, jinsiy aloqadan so'ng yoki uyquda bulg'anib qolganda) kindik osti tuklarini tozalash, tirnoq olish makruhdur, bu ishlarni g'usldan so'ng bajarish kerak. Junub kishi tirnoq olishi, tuklarni qirishi, qon oldirishi, kindik osti va qo'ltig'ini tozalashi, vujudidan har qanday parchani uzib olishi mumkin emas. Chunki barcha a'zolar qiyomatda tirilganida yuvilmay qolgan yoki shu holatda olib tashlangan har bir narsa junub holda bo'ladi.

Junub holdagi kishilar avval qo'llarini, keyin og'izlarini yuvib ovqatlanishlari, namoz vaqtini o'tkazmaslikka ko'zi yetsa, uxlashlari mumkin. Emizikli ayolning bolasi yig'lasa, g'uslga fursati bo'lmasa, ko'kragini yuvib emizsa bo'ladi.

Junub bo'lgan odamning uxlashdan oldin tahorat olishini ba'zilar mustahab, deyishgan («Ayollar fiqhi»).

**12. Rasululloh SAV tavsiyalariga ko'ra, g'usl uchun ishlatilishi kerak bo'lgan suv miqdori qancha?**

- a) 1 so' (taxminan 4,5 litr)
- b) 3 mud (taxminan 3 litr)
- c) 2 so' (taxminan 10 litr)

**To'g'ri Javob:** 1 so' (taxminan 4,5 litr)

**Izoh:** Abu Ja'far aytadilar: «Jobir huzurida bir jamoa kishilar bor edi, ulardan biri g'usl to'g'risida so'radi. «Senga bir so' suv kifoya qiladi»,— dedi Jobir. «Menga kifoya qilmaydi»,— dedi u. Shunda Jobir: «Sendan ko'ra sochi ko'proq, o'zi yaxshiroq kishiga (Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga, demoqchi) ham kifoya qilgan edi»,— dedi. Keyin yupun kiyingan holda imomatga o'tdi». («Sahihul Buxoriy»)

**13. Ayollarning soch, tirnoq va lab bo'yoqlari g'uslga monelik qiladimi?**

- a) soch bo'yoqlari g'uslga monelik qilmaydi, tirnoq va lab bo'yoqlarini g'usldan avval tozalash kerak.



b) xinadan boshqa soch bo'yoqlari sochda qatlam hosil qilganligi uchun g'uslga monelik qiladi, ayollar tirnog'idagi, lablaridagi bo'yoqlarni ketkazishlari kerak, aks holda g'usllari g'usl hisob qilinmaydi.

c) agar soch, tirnoq va lab bo'yoqlaridan foydalanishdan avval ayol g'usl qilgan bo'lsa, joiz.

**To'g'ri Javob:** xinadan boshqa soch bo'yoqlari sochda qatlam hosil qilganligi uchun g'uslga monelik qiladi, ayollar tirnog'idagi, lablaridagi bo'yoqlarni ketkazishlari kerak, aks holda g'usllari g'usl hisob qilinmaydi.

**Izoh:** Agar bo'yoq soch tolalari ustida qatlamni tashkil qilsa, g'uslga mone' bo'ladi.

Dorishunoslar esa xinadan boshqa barcha bo'yoqlar qatlam hosil qilishini tasdiqlashgan. Shuning uchun xinadan boshqa sun'iy bo'yoqlarni soch bo'yashda ishlatish joiz emas.

Shuningdek, tirnoq ustiga surilgan bo'yoq ham g'uslga mone' hisoblanadi. Ayollar g'usl qilayotganida tirnog'idagi, lablaridagi bo'yoqlarni ketkazishlari kerak, aks holda g'usllari g'usl hisob qilinmaydi. («Dinda savolim bor»)

#### **14. Musofir odam oyoq kiyimiga mahs tortib qancha yurishi mumkin?**

a) 1 kecha-kunduz

b) 2 kecha-kunduz

c) 3 kecha-kunduz

**To'g'ri Javob:** 3 kecha-kunduz

**Izoh:** Ali ibn Abu Tolibdan (r.a.) qilingan rivoyatda Rasululloh (s.a.v.): «Musofir (oyoq kiyimiga) uch kecha-kunduz mash tortadi, muqim esa bir kecha-kunduz», deb aytdilar.

Mo'min kishi sovuq paytda bir kecha-kunduz miqdorida oyog'iga kiygan etik, maxsini yechmasdan, tahorat olganda mash tortishi ham durust. Ammo musofir bo'lsa uch kecha-kunduz maxsisini yechmay, mash tortishi mumkin. Zarurat va xavf-xatar tug'ilgan paytlarda uch kecha-kunduzdan ko'proq vaqt o'tsa ham mash tortish joiz. Xavf-xatar tugashi bilan maxsisini yechib, yangidan tahorat olib, oyoqlarini yuvadi. Oyoq-yalang bo'lganda oyoq yuviladi, masx tortish mumkin emas. («Sof islomiy aqida»)

#### **15. Mash tortishning farzi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

a) Qo'lning kichik barmoqlaridan uchtasi miqdoricha ikki qadamning ustiga nam qo'l bilan silash.

b) Oyoq kiyimning kamida to'rtidan biriga nam tegmoqligi.

c) Mash tortish sunnat amal, uning farzlari yo'q.

**To'g'ri Javob:** Qo'lning kichik barmoqlaridan uchtasi miqdoricha ikki qadamning ustiga nam qo'l bilan silash.

**Izoh:** Qo'lning kichik barmoqlaridan uchtasi miqdoricha ikki qadamning ustiga nam qo'l bilan silamoqlik mashning farzidir. Oyoqning ostiga yoki yonlariga mash tortish durust emas.

(Mash tortishlik sunnat amal hisoblansa ham, uning ichida xuddi sunnat namozlarining ichida farzlar bo'lganga o'xshagan farzi bor... - tarj.) («Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari»)

#### **16. Muqim odam peshinda tahorat qildi va mahsi kiydi. Tahorati asrda sindi va qayta tahorat qilib, mahsisiga mahs tortdi. Endi u qachongacha mahs tortishi mumkin?**

a) ertasi kungi bomdodgacha

b) ertasi kungi peshingacha

c) ertasi kungi asrgacha.

**To'g'ri Javob:** ertasi kungi asrgacha.

**Izoh:** Muqim uchun mash tortib yurish muddati bir kecha-kunduz, ya'ni yigirma to'rt soat bo'lsa, musofir uchun uch-kecha kunduz, ya'ni yetmish ikki soat hisoblanadi. Bu vaqt tahorat singandan boshlab e'tiborga olinadi. Misol uchun bir kishi subhda tahorat oldi-da, mahsini kiydi va shu tahorati peshinda sindi. Demak, bunda u yangi tahorat qiladi, oyog'iga mash tortadi va

keyingi kunning peshin namozigacha oyog'iga mash torta oladi, agar musofir bo'lsa, uchinchi kunning peshinigacha mash tortishi mumkin. («Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari»)

### 17. Quyidagi qaysi holatlarda tayammum lozim bo'lmaydi?

- Yarim soatlik yoki undan ko'proq yo'l orasida suvning yo'qligi; suv bor yerda dushman yoki yirtqich hayvonning xavfi bo'lsa
- Suv o'ta sovuq bo'lib, isitadigan sharoit bo'lmasa va shu suv insonga aziyat yetkazib qo'yadigan darajada bo'lsa; agar suvda tahorat qilsa-yu, o'zi yoki sherigi va hatto hayvoni chanqab, halokatga uchrashi xavfi bo'lsa.
- Hamma sharoitlar bor-u, lekin tahorat qilib kelguncha juma qazo bo'lsa.

**To'g'ri Javob:** Hamma sharoitlar bor-u, lekin tahorat qilib kelguncha juma qazo bo'lsa.

**Izoh:** Tayammum qilish lozim bo'lgan sabablar:

- Yarim soatlik yoki undan ko'proq yo'l orasida suvning yo'qligi. Bu taxminan ikki chaqirimni tashkil etadi, bir chaqirim to'qqiz yuz metrdir.
- Kasallikdan yoki uning ziyoda bo'lishidan va yo davoning sekinlashidan tashvish bo'lsa.
- Suv o'ta sovuq bo'lib, isitadigan sharoit bo'lmasa va shu suv insonga aziyat yetkazib qo'yadigan darajada bo'lsa.
- Agar suvda tahorat qilsa-yu, o'zi yoki sherigi va hatto hayvoni chanqab, halokatga uchrashi xavfi bo'lsa.
- Hamma sharoitlar bor-u, lekin tahorat qilib kelguncha iyd yoki janoza namozlari o'qib qo'yilishi ehtimoli bo'lsa ham, tayammum qilinadi. Chunki bu namozlar qazo bo'lsa, o'rniga o'qiladigan namoz yo'q. Ammo juma namoziga yeta olmasligini bilsa ham, tahorat qiladi, chunki agar juma qazo bo'lsa, uning o'rniga peshin o'qilishi mumkin. Agar namoz qazo bo'lishi ehtimoli yuzaga chiqsa, vaqtni ehtirom qilish yuzasidan tayammum bilan o'qishi joiz. Lekin baribir tahorati yo'q bo'lsa, tahorat olib yoki junublik yetgan bo'lsa, g'usl qilib qaytadan o'qiydi. Chunki tayammum qilishga sabab mavjud emas.  
(Quduqda suv bor-u, lekin uni chiqarib olishga asbob yo'q, bu o'rinda ham tayammum qilinadi. Ammo suvni chiqarishga asbob bo'lsa, tayammum qilinmaydi, agar jamoat ko'p bo'lib, har birlari tahorat olgunlaricha namoz vaqti chiqib ketsa ham. Chunki buholatda ham tayammum qilishga sabab topilmayapti. Suv bor yerda dushman yoki yirtqich hayvonning xavfi bo'lsa ham, tayammum qilinadi... -tarj.) («Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari»)

### 18. Quyidagilardan qaysi biri tayammumning sunnatlariga kirmaydi?

- Niyat qilmoq
- “Bismillah”ni aytmoq
- Mashni o'ng qo'ldan boshlamoq

**To'g'ri Javob:** Niyat qilmoq

**Izoh:** «Bismillah...»ni aytmoq, zarbni kaftning ichi bilan qilmoq, qo'ldagi changlarni silkitib tashlamoq, tartib bilan qilmoq, ya'ni avval yuzga mash tortib, keyin qo'lga mash tortmoq, ketma-ket qilmoq, ya'ni niyat qilib tayammumni boshlagach, to tugaguncha boshqa amalni qo'shmaslik, soqol va barmoqlar orasiga xilol qilmoqlik, keng uzuk bo'lsa, uni qimirlatib ostiga mash yetkazmoq, ammo uzuk tor bo'lsa yoki soatga o'xshash narsalar bo'lsa, ularni tayammumdan oldin yechib qo'yish kerak, chunki ularning ostiga mash yetmaydi, mashni o'ng qo'ldan boshlamoq, bularning hammasi sunnat hisoblanadi. («Hanafiy mazhabida tahorat va namoz hukmlari»)

### 19. Quyidagilardan qaysi biriga tayammum qilish mumkin emas?

- pokiza tuproq, qum
- pokiza ohak, bo'r, tosh
- pokiza yog'och, yaproq
- b va c javoblar to'g'ri

**To'g'ri Javob:** pokiza yog'och, yaproq

**Izoh:** Yer jinsidan bo'lgan hamma narsa - toza tuproq, qum, bo'r, ohak, tosh kabi narsalar bilan tayammum qilish mumkin. Bularning hammasidagi asosiy shart - ular pokiza bo'lishi kerak. Bular - Imom A'zam va Imom Muhammadning nazdlarida. («Dinda savolim bor»)

**20. Suv ham, tayammum uchun pok narsa ham topolmagan kishi namozini qanday ado etadi?**

a) to pok bo'lmaguncha namozlarini o'qimaydi.

b) namoz payti kirganida joynamoz ustida huddi namozga o'tirgandek o'tiradi. So'ng suv yoki tayammum uchun pok narsa topilsa, qazo niyati bilan namozini o'qiydi.

c) namozni o'tkazib yubormaslik uchun niyat qilib, imo-ishora bilan o'qiyveradi. Poklangandan keyin esa boshqatdan o'qib oladi.

**To'g'ri Javob:** namoz payti kirganida joynamoz ustida huddi namozga o'tirgandek o'tiradi. So'ng suv yoki tayammum uchun pok narsa topilsa, qazo niyati bilan namozini o'qiydi.

**Izoh:** Suv ham, tayammum uchun pok narsa ham topolmagan kishi namoz payti kirganida joynamoz ustida huddi namozga o'tirgandek o'tiradi. So'ng suv yoki tayammum uchun pok narsa topilsa, qazo niyati bilan namozini o'qiydi. («Radd ul-muxtor»)

## "Biz Islomni bilamizmi?" tanlovi yakuniy natijalari

<b>№ Nik nomi</b>	<b>To'plagan bali</b>
1. Muslima	955 ball
2. NOZA	950 ball
3. Dilmurod Majidov	915 ball
4. Akbar	905 ball
5. Shoir	905 ball
6. Lolo	855 ball
7. Anisa	845 ball
8. Muhammad Ibrohim	830 ball
9. Abdulloh90	810 ball
10. Isroilov Farhod	805 ball
11. Dilnoza Mirsaidova	770 ball
12. Robiya	630 ball
13. Musannif Adham	615 ball
14. Huzayfa_89	535 ball
15. Muxsina	530 ball
16. Mastura Islom	490 ball
17. Sita	485 ball
18. Sarah Mann	480 ball
19. KWL	435 ball
20. Abdulatif	410 ball
21. Olimxon	375 ball
22. Alisher Abdullayev	350 ball
23. Dilshod ibn Hamid	335 ball
24. Sakina	305 ball
25. Abdurrahmon	290 ball
26. Y U R I S T	275 ball
27. Guli Iskandarova	260 ball
28. Ilhom Ahmadjonov	260 ball
29. Kamronbek	260 ball
30. Asadulloh	250 ball
31. Nurulla Mukhamedov	245 ball
32. Muzayyana	230 ball
33. Fazilat	220 ball
34. Maryam Isaboyeva	215 ball
35. Abduxoliq	165 ball
36. Oysha	160 ball
37. Mubashsher	160 ball
38. Ummatiy Muhammadiy	155 ball

<b>39. Nozima G'aniyeva</b>	135 ball
<b>40. Muhammad Murod</b>	120 ball
<b>41. Habibullayev Ulug'bek</b>	105 ball
<b>42. Naimjon</b>	105 ball
<b>43. Ulugbek-Uz</b>	100 ball
<b>44. Baxtiyor Xonkeldiyev</b>	85 ball
<b>45. Mars</b>	85 ball
<b>46. Umid Xalilov</b>	75 ball
<b>47. Salmoni Forsiy</b>	55 ball
<b>48. Halim</b>	50 ball
<b>49. Munira Rozikova</b>	50 ball
<b>50. Azimjon Madrahimov</b>	45 ball
<b>51. Mis Shoir</b>	35 ball
<b>52. Sherzodjon</b>	35 ball

## **“Biz islomni bilamizmi?” viktorinasi haqida administrator ma’lumoti:**

Assalomu alaykum!

Mana, Allohning karami va inoyati ila, "Biz Islomni bilamizmi?" tanlovimizning 1-bosqichi ham o'z nihoyasiga yetdi.

Bu tanlovimiz, **77 kun** davom etib, unda **200 ta savol** berildi. Tanlovda **52 kishi** bevosita ishtirok etdi, yana yuzlab muxlislar savol va javoblarni kuzatib, ilm hosil qilganliklari haqida yozishdi.

"Biz islomni bilamizmi?" viktorinasi ko'p tolibi ilmlarni kitob titkilashga, yaxshi kitoblarni sotib olib, undan ilm hosil qilishga undagani bizni judayam xursand qildi. Turdan turga ishtirokchilarning bilim saviyasi oshib borganini kuzatish mumkin edi.

Hakamlar hay'zati a'zolari - **Diydor opa** va **Munira opa** bilan birgalikda savollarni saralash, javoblarni hisoblash va boshqa tashkiliy ishlarni bajardik. O'z navbatida ularga ham muxlislarning tashakkurlarini izhor etmoqchiman.

Viktorinaning har bir turida faol ishtirok etgan **Muslima, Noza, Dilmurod Majidov, Akbar, Shoir, Lolo, Muhammad Ibrohim, Abdulloh90, Farhod Isroilov, Dilnoza Mirsaidova, Huzayfa89** ga o'z minnatdorligimizni izhor etamiz. Birinchi turda ishtirok etolmagan bo'lsa-da, **Anisa** ham javoblari va savollari bilan viktorinada faol ishtirok etdi.

Negadir 5-6 turda judayam faol bo'lgan, uzerlarimiz keyingi turlarda kamnamo bo'lib qoldilar. ularga keyingi bo'ladigan bosqichlarda faollik va yuksak ilm martabasini tilaymiz.

Bizga o'z savollari bilan katta yordam bergan **Munira xonim, Diydor, Muslima, Noza, Maryam Isabayeva, KWL, Farhod Isroilov, Dilmurod Majidov, Muhammad Ibrohim, Anisa, Asadulloh, Abdulloh90, Lolo, Sarah Mann, Olimxon, Muxsina, Alisher Abdullayev, Robiyaga** ham alohida minnatdorlik bildiramiz.

Hozircha quyidagi ishtirokchilarga sovg'alarni taqdim etmoqchimiz. Inshaalloh, yana imkon bo'lganda boshqa qatnashchilarni ham taqdirlaymiz.

**1-o'rinni** egallagan **Muslima**ga diplom (esdaliknoma), **Mushaf va kassetalar to'plami (al-Qahtoniy)** va **Hadis va hayot: Payg'ambarlar qissasi kitobi** taqdim etiladi.

**2-o'rinni** egallagan **Noza**ga diplom (esdaliknoma), **Qur'oni karim tajvidi kassetasi** va **Hadis va hayot: Nubuvvat xonadoni xonimlari kitobi** taqdim etiladi.

**3-o'rinni** egallagan **Dilmurod Majidov**ga diplom (esdaliknoma), **Qur'oni karim tafsiri (Alouddin Mansur)** va **Saodat asri qissalari (4 ta kitob)** taqdim etiladi.

**4-o'rinni** egallagan **Akbarga** diplom (esdaliknoma), **Saodat asri qissalari** va **Hadis va hayot: Nubuvvat va risolat kitobi** taqdim etiladi.

**5-o'rinni** egallagan **Shoirda** diplom (esdaliknoma), **Hadis va hayot: Payg'ambarlar qissasi kitobi** taqdim etiladi.

Sovg'alarimiz hozircha shulardan iborat. Kam bo'lsa-da ko'p o'rnida qabul qilasizlar.

Inshaalloh, keyingi bosqich sentabr oyida boshlanadi.

**Davronbek Tojialiev (AbdulAziz)**

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

**Ziyo istagan qalblar uchun**

[www.forum.ziyouz.com](http://www.forum.ziyouz.com)

**Islomiy viktorina: Biz Islomni bilamizmi?**